

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
AL-XORAZIMIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK _____

JUMANIYOZOVA XURSHIDA O'TKIROVNING


**XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA DUNYODAGI GEOSIYOSIY
JARAYONLAR**

Mutaxassislik — 5A 120302 “Tarix” (yo‘nalishlar va mamlakatlar bo‘yicha)

Magistr akademik darajasini olish

uchun yozilgan

DISSERTATSIYA


Ilmiy rahbar:
dots. Davletov S. R.

Urganch-2015

Mundarija		
Kirish.....		3
I BOB. Geosiyosat va geosiyosiy jarayonlarning mohiyati.		
1-§	1.1. Geosiyosat tushunchasi va geostrategik manfaatlarning mazmuni haqida	9
2-§	1.2. Davlatlararo munosabatlarni geosiyosiy talqin etish.....	17
3-§	1.3. Globallashuv sharoitida mafkuraviy va geosiyosiy jarayonlarning uyg'unlashuvi.....	25
II BOB. XX asr oxirida dunyodagi yangi geosiyosiy burilishlar.		
4-§	2.1. Sovuq urushi xotimasi va AQSH geosiyosati.....	36
5-§	2.2. Dunyoda yangicha tartib uchun kurashning kuchayishi.....	49
6-§	2.3. Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy jarayonlar va unda O'zbekistonning tutgan o'rni.....	60
III BOB. XXI asr boshlarida geosiyosiy jarayonlarning mohiyati va maqsadi.		
7-§.	3.1. Hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi va mintaqaviy xususiyatlari...	73
8-§.	3.2. Xalqaro tashkilotlarning dunyodagi tinchlik va barqarorlikni saqlash yo'lidagi faoliyati.....	88
IV.	Xulosa.....	103
V.	Adabiyotlar ro'yxati.....	107
VI.	Ilovalar.....	111

Kirish.

Mavzuning asoslanishi va dolzarbligi. Geosiyosat tushunchasi – muayyan bir mamlakat oʻrni, tabiiy boyliklari, iqlim va boshqa geografik omillarning davlat tashqi siyosatiga muayyan taʼsirini ifodalash uchun ishlatiladi.¹ Yani turli siyosiy voqea-hodisalarning geografik sharoitga bogʻliq holda rivojlanishini yoki inqirozini oʻrganadi. Koʻpgina mutaxassislar geosiyosatni geografik, tarixiy, siyosiy va boshqa omillarni oʻrganuvchi, ularning oʻzaro munosabatlarini hamda shu munosabatlarning mamlakatning strategik salohiyatiga taʼsirini kompleks tarzda oʻrganuvchi fan sifatida qarashadi. Buning oʻziyoq bugungi kundagi davlatlararo munosabatlarning ham aynan geosiyosiy makon ustiga qurilgan munosabat ekanligini izohlaydi va uning dolzarbligini oshiradi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqadigan boʻlsak, Markaziy Osiyo mintaqasi ham qadimdan geografik-siyosiy tizimlarda katta rol oʻynab kelgan. Mintaqaning hozirgi geosiyosiy jarayonlardagi oʻrni qay darajada ekanligini bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarning bizning mintaqaga boʻlgan qiziqish va aloqalarning rivojlanshida buni koʻrishimiz mumkin. Ayniqsa bu hamkorlik aloqalari Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillik va suverenitetni qoʻlga kiritganidan keyin jonlanib, ahamiyati yana ham oshdi. Chunki bu mintaqqa qadimdan to bugungi kungacha Sharq va Gʻarb bir-biri bilan bogʻlovchi koʻprik vazifasini oʻtab kelayotir. SHuning uchun ham Prezident Islom Karimov “bu respublikalarda yuz berayotgan hodisalar jahondagi eng yirik davlatlar, turli joʻgʻrofiy-siyosiy tuzilmalarning manfaatlariga bevosita daxldordir” deya taʼkidlaydi.² Har qanday davlat ham oʻzining joʻgʻrofiy-siyosiy yoʻlini belgilagan vaqtida ana shu vaziyatni hisobga oladi va oʻzi uchun siyosiy, iqtisodiy va strategik foyda yoʻlini koʻzlab harakat qiladi. Ammo mana shu foyda yoʻlida oʻzga davlatlar va xalqlar manfaatlariga nisbatan ziddiy munosabatlarning kelib chiqishiga ham koʻz yumib boʻlmaydi, albatta. Bu esa oʻz navbatida Xalqaro tashkilotlarning dunyoda yuz berayotgan siyosiy-ijtimoiy,

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат миллий нашриёти: 2-ж. Т., 2001

² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. Т.1997.

iqtisodiy va ekologik muammolarning oldini olish, chora ko'rishdagi nufuzi hamda amaliy ahamiyatini yanada oshirishni talab qiladi. Ammo bugungi kundagi Xalqaro tashkilotlarning mintaqaviy, g'oyaviy va guruhiiy asosda tashkil etilishining o'zi ham dunyoda tinchlik va barqarorlikni saqlashga bo'lgan harakatga shubha bilan qaralishiga olib kelayotir. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda davlatlar va tashkilotlar qanday qilib mintaqa xavfsizligini ta'minlay oladi degan savol tug'iladi. Bu boradagi shubxa gumonlar Ukrainada yuz bergan voqealardan keyin yanda ortdi. Dunyoning nufuzli Xalqaro tashkilotlaridan bo'lgan SHHT va NATO bu kabi hodisaning oldini olib bilishmagani va aslida uning sababchisiga aylanganligining o'ziyoq bu mavzuning naqadar chigal, dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Mazkur tashkilotlarning ayniqsa mafkuraviy va g'oyaviy asosda birlashuvi esa buning dolzarbligini yanada oshiradi. Yani bugungi kunda geosiyosiy maqsadlarni amalgam oshirishning eng oqilona va samarali yo'lib u yosh avlaodning ongi-shuurini egallashga qaratilganligidir. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Fikr qaramligi, tafakkur qulligi har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ham ko'ra dahshatliroqdir".³

Tadqiqot obyekti va predmetining belgilanishi: XX asr oxiri – XXI asr boshlarida dunyodagi geosiyosiy makon va jarayon tadqiqot obyekti bo'lib, uning asosiy jihatlarini yangi internet ma'lumotlari, ilmiy adabiyotlar asosida davlatlararo geosiyosiy munosabatlarni o'rganish, tahlil etish – predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Mazkur magistrlik dissertatsiyasining maqsadi XX asrning oxiri - XXI asrning boshlarida yuz bergan geosiyosiy jarayonlarni tahlil etish, o'rganish va dunyo davlatlarining bugungi kundagi munosabatlar tizimini geosiyosiy talqin qilish hamda yangi ma'lumotlar kiritish orqali to'laroq manbani yaratishdan iborat. Vazifasi shundan kelib chiqqan holda yangi ilmiy adabiyotlar, gazeta va jurnallar, internetda keltirilgan ma'lumotlarni chuqur tahlil qilib, o'z fikr-mulohazalarni izchillikda bayon qilish hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi «XX

3 Erkin va faravon hayotni yuksak ma'naviyatsiz qurib bo'lmaydi. "Yoshlik" talabalar shaharchasidagi suhbat. T., "O'zbekiston", 2006, 28-bet.

asrning oxiri - XXI asr boshlaridagi dunyodagi geosiyosiy jarayonlar» mavzusida bo'lib, ikkinchi jahon urushi yakunlari va uning dunyo siyosiy manzarasiga ta'siri, g'oyaviy va siyosiy kurashlar ostiga qurilgan, xalqaro munosabatlar bipolyar tizimiga asos solgan "Sovuq urushning" yuzaga kelishi, Sobiq Ittifoq va AQSH o'rtasidagi qurollanish poygasi munosabatlariga hamda XXI asrda boshlarida yuz bergan mintaqaviy mojarolarga bag'ishlangan. Ayniqsa, dissertatsiyada XXI asrning boshida yuz bergan dunyo siyosiy o'zgarishlari, mafkuraviy tahdid va geosiyosiy jarayonlarning tobora uyg'unlashuvi hamda kuchlar markazining bo'linib ketishi muammolariga alohida urg'u berilgan. Shuningdek davlatlarning geosiyosiy joylashuvi va xalqaro terrorizm, diniy ekstremizmga qarshi kurash, Afg'oniston va Iroq muammolari ham yoritilgan.

Hozirgi dunyo siyosatida qudratli davlatlar oldida ikkita tanlov dilemmasi mavjud: Iqtisodiy ta'sir va siyosiy ta'sir. Siyosiy ta'sir bu o'z navbatida katta yo'qotishlar orqali erishiladigan uslub ekanligiga tarixning o'zi guvoh. Bundan ko'rinib turibdiki, yaqin kunlar ichida iqtisodiy ta'sirining o'rni va ahamiyati tobora oshishi aniq. Ya'ni bunda dastlab mamlakatlarga iqtisodiy sarmoyalar kiritish orqali ularga keyinchalik yaqin kelajakda ta'sir o'tkazish, bunga Xitoyning Afrikadagi olib borayotgan siyosati va Germaniya-Rossiya munosabatlari misol bo'la oladi. Ayniqsa yaqin kelajakda Xitoyning geosiyosiy qudrati juda kuchayib ketishi hamda dunyo davlatlari iqtisodiy jihatdan Xitoyga bo'glanib qolishi kutilmoqda. Natijada kelajakda Xitoyning bunday rivojlanishi xom-ashyoga bo'lgan talabini kuchayishiga, keyinchalik esa nisbatan rivojlanmagan davlatlarning moddiy resurslariga ko'z olaytirishiga olib kelishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekistondan tashqari Markaziy Osiyoning boshqa davlatlaridagi ichki va tashqi siyosiy vaziyat ancha nozik bo'lib, ular tashqaridan amalga oshirilayotgan kuchli geosiyosiy ta'sir ostida qolib kelmoqda. Chunki davlatlar o'rtasidagi bunday geosiyosiy qarashlar Markaziy Osiyo, Kavkaz mintaqasi, Yaqin va Uzoq sharq hududlariga bo'lgan e'tibor kuchayishiga hamda geosiyosiy manfaatlar to'qnashgan nuqtaga aylantirishi tabiiydir. Ushbu asl sabab, mohiyatni anglab yetgan xalq ommasi orqali bugungi kunda yuz berayotgan siyosiy janjal va nizolarning oldi olinib, doimiy tinchlik hamda

barqarorlikni saqlab qolishga erishish mumkin. XXI asr oxirida davlatning mustahkamligi ko'proq ma'naviyat va madaniyat sohasiga bog'liq bo'lib boradi. Chunki bugungi kunda geosiyosiy maqsadlarga erishishning eng oson va samarli yo'li bu – fikr, unga erishish quroli bu – “axborot” sanaladi. Nega deganda bugungi kunda davom etayotgan geosiyosiy jarayonlar rivojida fikrlar va g'oyalar to'qnashuvi sodir bo'lmoqda.

Mavzusi bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Geosiyosat tushunchasini fanga birinchi bo'lib, 1916 yilda SHved olimi Rudolf CHellen kiritdi. Lekin bu fanning otasi nemis olimi va geografi Fridrix Ratsel hisoblanadi. Chunki u bu fanning nazariy asosini yaratgan shaxs hisoblanadi. Geosiyosat asosan 3 ta ilmiy qarash asosida shakllandi. Geografik determinizm yondashuvi qadimiyroq, uning namoyonda-lariga Gerodot, Gippokrat, Polibiy, Fukidid, Arastu va boshqalar kiradi.

Ikkinchi qarash sivilizatsion yondashuv bo'lib, uning tarafdorlari N.Danilevskiy, K.N.Leont'ev, O.SHpengler, P.N.Savitskiy, L.N.Gumilyov, A.Toynbi, S.Xantingtonlar rivojlantirgan. Masalan, S.Xantingtonning «Sivilizatsiyalar to'qnashuvi» asari ko'p munozaraga sabab bo'ldi. Harbiy strategik yondashuv nazariyasi uning namoyondalari A.Mexen, X.Moltke, K.Klauzevits, N.Makiavelli va boshqalar. Mexenning «Dengiz kuchining tarixga ta'siri» kitobi kata ahamiyatga ega.

XX boshlaridan geopolitika mustaqil fan sohasi deya talqin etila boshlandi. So'nggi yillarda geosiyosat masalalari ko'plab xorijiy mutaxassislarining tadqiqot mavzusiga aylandi. Jumladan, mavzuning nazariy jihatlarini yoritishda N.Nartov⁴, A.Dugin⁵, V.Trofimov⁶, P. A.Tigankov⁷ va boshqalarning ishlari katta ahamiyat kasb etadi. Ularda mutaxassislar geosiyosatni geografik, tarixiy, siyosiy va boshqa omillarni o'rganuvchi, ularning o'zaro munosabatlarini hamda shu munosabatlarning mamlakatning strategik salohiyatiga ta'sirini kompleks tarzda o'rganuvchi fan sifatida qarashadi. Markaziy Osiyo mintaqasiga oid geosiyosiy jarayonlar

⁴ Нартон Н.А. Геополитика, М., издательство политической литературы, 2002.

⁵ Дугин А. Основы геополитики. (www.геополитика.ру).

⁶ Трофимов В. Геополитика. (www.геополитика.ру)

⁷ П. А.Циганков. Геополитика: последнее прибежище разума. (www.геополитика.ру)

masalalarini tadqiq etishda esa turli soxalarda izlanishlar olib borayotgan mutaxassislarning tadqiqotlari katta o`rin tutadi<sup>8</sup>. SHuningdek, mavzuni ayrim jixatlarini yoritishda mustaqillik yillarida yaratilgan bir qator asarlar katta ahamiyatga ega<sup>9</sup>. Ayniqsa XXI asr geosiyosiy jarayonlarini o`rganishda A.Jalilov, G.Tulenova va A.G.Dianov, S.G.Sizov larning asarlari foydali manba hisoblanadi¹⁰.

Tadqiqotda qo`llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Mavzuni tadqiq qilish jarayonida Prezident Islom Karimovning tanlangan asarlari, xorijiy va respublikamizning mutaxassis olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar, siyosatshunos tadqiqotchilarning vaqtli matbuot, ilmiy va ijtimoiy-siyosiy nashrlar hamda Internet sahifalaridagi materiallaridan ijodiy foydalanildi. Tadqiqotning nazariy metodologik asosi sifatida tarixiylik, xolislik, uzviylik va tarixan muhim ahamiyatga ega bo`lgan tarixiy jarayonlarning sabab-oqibatli bog`lanishining muqarrarliligi kabi ilmiy tamoyillar xizmat qilish nazarda tutiladi. Ilmiy tadqiqot olib borishning turli yo`llariga, kompleks-statistik qiyosiy solishtirish usullariga va tarixiy hodisa, fakt va raqamlarni falsafiy mushohada qilish yo`lida, umuminsoniy tafakkur qoidalariga, insonparvarlik g`oyalariga asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyada o`z yechimini topgan masalalar yuzasidan chiqarilgan ilmiy xulosalardan Oliy O`quv yurtlarida O`zbekiton tarixi, Fan tarixi, sotsiologiya, geopolitika va O`zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanlarini, Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida Amaliy geografiya fanlarini talabalarga o`qitishda, mazkur fanlar bo`yicha yangi adabiyotlarni yaratishda foydalanish mumkin.

Hozirgi kundagi globallashuv sharoitida geosiyosiy jarayonlarni chuqur tahlil etish va o`rganish asosida xalqaro tashkilotlarning dunyodagi tinchlik, barqarorlikni saqlash yo`ldagi ahamiyatini yanada oshirishni ko`zda tutadi. Hamda millatlararo

⁸Иқтисодий-ижтимоий география, геосиёсат ва геодемографиянинг долзарб муаммолари. Тўплам. Андижон, Ибрагимов И.Геосиёсат ва Марказий Осиёга мафкуравий таъсирлар. Karimov.I Noosfera, geosiyosat va mafkura. (www.pedagog.uz), Геосиёсат ва Марказий Осиёдаги мафкуравий жараёнлар (www.uz.pef.uz).

⁹ Рафиқов А., Вакобов К., Қаюмов А., Азимов Ш. Амалий география. Т. «Шарк». 2004 й.; Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. Давлат миллий нашриёти: 2-ж. 2001; 3-4 ж – 2002; 5-ж. – 2003.; Фалсафа Қомусий луғат. «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти» Т. 2004 й.; Жаҳон мамлакатлари. Муаллифлар жамоаси. Т.«Шарк». 2006 й.; Атамуродов С., Ергашев И. ва бошқалар. Политология.Т.1999.; Ўзбекистонда политология.Т.2001.; Ўрта Осиё табиий географияси. Т.2001.

¹⁰ А. Жалилов, Г. Туленов “Геосиёсат” фанидан услубий қўлланма. Т., 2010;
А. Г. Дианов, С.Г.Цизов “Геополитика”. Омск., 2008.

totuvlik va davlatlararo hamjihatlikni ta'minlashda geosiyosiy jarayonlarni o'rganishning samarasini va ahamiyatini ko'rsatishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi ilmiy tadqiqot ishida geosiyosiy jarayonlar yangi ma'lumotlar asosida boyitiladi hamda tadqiqotda davlatlararo munosabatlar geosiyosat kontekstida o'rganilib, hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasini aks ettiruvchi voqelikning asosiy mohiyati ochib berildi. Hamda geosiyosiy jarayonlarni tahlil qilishda Xalqaro tashkilotlarning o'rni va ahamiyati haqidagi ma'lumotlar to'laqonli yoritib o'tishga harakat qilinadi.

Mavzu ijtimoiy fanlarda qaror topgan yangicha qarashlar va mustaqillik mafkurasi asosida tadqiq etilib, «XX asrning oxiri - XXI asr boshlaridagi dunyodagi geosiyosiy jarayonlar» masalasini har tomonlama tahlil qilindi.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, sakkizta bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati, ilova va taqdimot ishidan iborat.

I BOB. Geosiyosat va geosiyosiy jarayonlarning mohiyati.

I.1. Geosiyosat tushunchasi va geostrategik manfaatlarning mazmuni haqida.

Geosiyosat – turli siyosiy jarayonlarning geografik muhitga bogʻliq holda rivojlanishini oʻrganadigan fandır. XX asrda dunyo siyosiy xaritasining tubdan oʻzgarishi, hududiy, ijtimoiy-ekologik va demografik muammolarning keskinlashuvi geosiyosat faniga boʻlgan eʼtiborni kuchaytirib yubordi. Geosiyosat fanini oʻrganish geografiya, tarix, demografiya, etnografiya, dinshunoslik, ekologiya, sotsiologiya, harbiy fanlar, siyosatshunoslik va boshqa fanlar boʻyicha ham bilimlarga ega boʻlishni taqazo etadi. Geosiyosat tushunchasini fanga birinchi boʻlib, 1916-yilda shvetsiyalik olim Rudolf Chellen kiritgan. U geosiyosat tushunchasini shunday taʼriflaydi: “Geosiyosat – makonda ifodalangan joʻgʻrofiy tana shaklida boʻlgan davlat toʻgʻrisidagi fandır”.¹¹ Uning fikricha, har qanday davlat bir butun geografik organizm sifatida qaralmogʻi lozim.

Geografik organizmni maʼlum bir landshaft oʻz navbatida tabiiy, hududiy, ijtimoiy, iqtisodiy majmua boʻlib, geosiyosat fani siyosiy geografiya asosida shakllanadi va rivojlanadi. Siyosiy geografiya jahondagi davlatlarning turgʻun holatdagi tavsifini tuzish bilan shugʻullanadi. Siyosiy geografiyani koʻproq davlatlarning joylashishi, hududining shakli, oʻlchamlari, chegaralari, xoʻjaligi, aholisining savodxonlik darajasi, madaniyati qiziqtiradi. Geosiyosatni esa davlat hududining makon va zamonga mos boʻlgan geosiyosiy oʻziga xoslik, jahon siyosiy jarayonlariga qay darajada taʼsir koʻrsatishi qiziqtirib kelmoqda. Geosiyosat tushunchasi nihoyatda keng qamrovli tushuncha hisoblanib, nafaqat quruqlik Yer mintaqasida, suvda, havoda, fazoda kechadigan jarayonlarni ham qamrab oladi va ulardagi oʻzgarishlarning insoniyat sivilizatsiyasiga oʻzaro bogʻliqligini oʻrganadi. Yaʼni geosiyosatning asosiy vazifasi, oʻrganish predmeti boʻlgan sayyoraviy makonni nazorat qilishdir. Bunda geosiyosiy omillarni oʻrganish va baholash muhim ahamiyatga ega. Geosiyosiy omillarga quyidagilar kiradi:

¹¹ А.Жалилов, Г.Туленова “Геосиёсат” фанидан услубий қўлланма. Т., 2008, 15-бет.

- geografik (geografik o' rni, tabiiy resurslari);
- siyosiy (siyosiy tuzumi, davlat chegaralari, jamiyatning ijtimoiy tarkibi, asosiy erkinliklarning mavjudligi);
- iqtisodiy (ishlab chiqarish kuchlarining quvvati va tarkibi, aholining turmush darajasi, strategik zaxiralar va safarbarlik quvvatlari);
- harbiy (qurolli kuchlarning kattaligi, quvvati, harbiy tayyorgarligi, harbiy kadrlarni tayyorlash holati);
- ekologik (cheklangan yoki tugaydigan va tiklanmaydigan) resurslarga bo'lgan demografik bosim, xomashyo resurslarining kamayishi va tugashi, aholi turmush darajasining o'zgarishi);
- demografik va madaniy-ma'rifiy.¹²

Bu kabi omillar geosiyosiy jarayonlarda makon va hududning qanchalik ahamiyatli, hamda jahon geosiyosatida tutgan o'rnini belgilab beruvchi asosiy mezon hisoblanadi. Shuningdek bu kabi omillar ijobiy yoki salbiy holatda ekanligi davlatning butun dunyo mamlakatlari orasidagi maqomi yoki ta'rifini ko'rsatib turuvchi ko'rsatgich vazifasini ham o'taydi. Shuning uchun ham yuqoridagi omillarni o'zida yaxshi yoki yomon shakillantirgan davlat bo'ladimi, u albatta bu kabi xususiyatlardan oqilona yo'lda foydalanmog'i, kamchiliklarni esa to'g'irlamog'i lozim. Yuqoridagi omillarni geosiyosiy jihatdan tahlil qilish uchta yo'nalishda olib boriladi:

- a) ijtimoiy-siyosiy vaziyatni ularning ma'lum bir hudud va davr rivojlanishi bilan bog'liq holda tadqiq etish;
- b) ma'lum bir hudud to'g'risidagi haqiqiy ma'lumotlarni ayrim hollarda tamomila qarama-qarshi tasavvurlar bilan taqqoslash;
- d) makonni o'zgartirish bo'yicha siyosiy strategiyani amalga oshirishni bashoratlash. Ya'ni omillarni ijobiy yoki salbiy tomonga rivojlanganligi biz bugungikunda ilg'or darajada ham iqtisodiy-siyosiy ham ijtimoiy-madaniy jihatdan

¹² У.Норбеков. Геосиёсий жараёнлар: кеча ва бугун. -Т.,«Фан ва технология», 2010, 36-бет.

o'zidagi barqarorlikni qo'ldan bermay kelayotgan makon, o'lka qiyosan xulosa chiqariladi. Geosiyosat fan sifatida uzoq tarixga ega bo'lsa-da, bugungi kunda u nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda yangidan qo'llanayotgan fanlar sirasiga kiradi. Buning sababi, *birinchidan*, ushbu fanning o'ziga xosligiga, aniqrog'i, u tadqiq qiladigan muammolarning keng ommaga mo'ljallanmaganligi, ya'ni bundan geosiyosiy voqelik barcha insoniyatga daxldor emas degan xulosaga kelmaslik kerak. Aksincha bu kabi voqelik va jarayon nafaqat insoniyat, balki bugungi zamonning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan jonli va jonsiz tabiat, uzoq va yaqin sayyoralarga bog'liq jarayondir. Faqat bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan globalashuv jarayonida bu kabi masalani hamma ham tushunib yetishi va anglay olishi qiyin kechuvchi dolzarb fan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan geosiyosiy muammolar keng ommaga mo'ljallanmagan jarayon sanaladi.

Ikkinchidan esa, geosiyosiy jarayonlarning ko'pincha maxsus institutlar tomonidan o'rganilishi va yaratilgan xulosalarning tashqi siyosatni belgilashda tor doiradagi mutaxassislar tomonidan qo'llanilishiga borib taqaladi. Yuqorida takidlaganimizdek, hamma ham mag'zini chaqa olmaydigan murakkab hodisadir. Aynan shuning uchun ham uning ustida ishlovchi va uni tadqiq qiluvchi maxsus faoliyat tor doiradan iborat. Bu esa geosiyosiy masala yechimini yanada chigal bir muammo ekanligini isbotlaydi. Ya'ni bu jarayon butun bir borliqqa daxl qiladi, ammo unga ta'sir o'tkazish maydoni chegaralangandir. Bundan tashqari, olib borilayotgan geosiyosiy tadqiqotlar, bir qarashda ushbu fanni siyosiy amaliyotga oid qandaydir noilmiy majmuaga o'xshatib qo'yadi. Chunki geosiyosiy tadqiqotlarni faqat nazariy maqsadlarni ko'zlab olib borish murakkab jarayon bo'lib, ularning aksariyati tashqi siyosat amaliyotida qo'llaniladi.

Hozirgi kunda Yevrosiyo davlatlari geosiyosatining o'ziga xos xususiyatlari ushbu mintaqaning nihoyatda boy tabiiy, mineral, energetik, insoniy hamda boshqa resurslari tufayli tobora oshib borayotgan geostrategik holati bilan izohlanadi. Bu erda dunyodagi ko'pgina yirik davlatlarning geosiyosiy va strategik manfaatlari to'qnashadi. Bu jarayon tug'risida Prezident I. Karimov o'zining quyidagicha fikr-

mulohazalarini bildirib o'tadi: «...siyosiy kuchlarning o'z geopolitik va strategik manfaatlaridan, ba'zan esa mayda manfaatlardan kelib chiqqan holda, dunyoning siyosiy xaritasini qaytadan taqsimlash, Yevrosiyo makonida, Kavkaz va Markaziy Osiyo mintaqalarida kuchlarning yangi tartibini o'rnatish lozimligi haqidagi turli xil da'volarini mutlaqo nomaqbul, deb hisoblaymiz».¹³ Ushbu fanning muhimligini bevosita mamlakatimiz va mintaqamiz atrofida kechayotgan voqea-hodisalar misolida osonroq tushunish mumkin. Aniqroq aytganda, O'zbekistonda dastlab 1999 yil 16 fevralda ro'y berib, keyingi yillarda bir necha marta takrorlangan terroristik voqealar aynan Markaziy Osiyo atrofida keyingi o'n yilliklarda ro'y berayotgan geosiyosiy jarayonlarning oqibati ekanligini namoyon etdi. Bu jarayonlar uzoq xorijdan turib boshqarilishi, umuman, bunday voqealar yoqilg'i energitika zaxiralari ulkan mintaqalar atrofida tashqi ta'sir ostida ro'y berishi nazarda tutilsa, geosiyosat fani va geosiyosiy tadqiqotlarning muhimligi yanada oydinlashadi. Ana shu nuqtai-nazardan qaraganda, bundan buyon geosiyosatning tub mohiyatini o'rganish, bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish alohida ahamiyat kasb etadi.

Geosiyosatni fan sifatida xalqaro munosabatlar fani doirasiga kiritish mumkin bo'lsa, boshqa tomondan u mintaqashunoslikka yaqinlashib ketadi. SHuning uchun ushbu fanni xalqaro munosabatlar amaliyotiga tegishliligini ta'kidlagan holda alohida fan ekanligiga e'tiborni qaratamiz. Rus geosiyosatchi olimlaridan K.E.Sorokin «...geosiyosat jug'rofiy omillar majmuasining tarixiy jarayonga ta'siri to'g'risidagi fan sifatida vujudga kelgan»ligini qayd etadi.¹⁴ Boshqa geosiyosatchi olim YU.V.Tixonravovning fikriga ko'ra esa geosiyosat, o'zining mazmunidan kelib chiqqan holda, «yer, jug'rofiy hudud va davlat siyosatining o'zaro bog'liqligi»ga e'tibor qaratishi lozim.¹⁵ Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, geosiyosatda jug'rofiy hudud va davlat siyosati o'zaro bog'liqlikda tahlil etilishiga e'tibor qaratish va ushbu fanning mohiyati, uning yalovbardorlari yaratgan asarlarga murojaat etish maqsadga muvofiqdir.

¹³ «Евросиё» журнали 2008 йил декабр. Каримов.И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамиз.-Т.: «Ўзбекистон», 1999. 176 бет.

¹⁴ Сорокин.К.Е. Геополитика современности и геостратегия России. -М., «Российская политическая энциклопедия». 1996, 5-бет

¹⁵ Тихонравов Ю. Геополитика. - М.: ЗАО 1998,11-бет

Geosiyosiy ta'limotning asoschilari Evropa tadqiqotchilari hisoblanadi. Bu boradagi asosiy ilmiy izlanishlar nemis, fransuz, ingliz shuningdek, amerikalik olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Rossiya hududiy nuqtai-nazardan geosiyosiy jarayonlarning markazida bo'lganligi tufayli rus olimlari ham ushbu yo'nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

SHuni alohida e'tirof etish kerakki, Yevroosiyo qit'asining asosiy qismini egallagan Rossiya hududi o'tgan asrda ikki jahon urushining ob'ekti bo'lganligi uning aynan geostrategik markaziy hududni egallaganligidan kelib chiqqan edi. Zero, mumtoz geosiyosatchilar yer sharining yuragini egallagan bu mintaqani qo'lga kiritish butun dunyoga hukmronlikni anglatishini ta'kidlaganlar. Buni chuqur tushunib yetgan rus geosiyosatchilari Rossiyaning yaxlitligini saqlash uchun mustahkam geosiyosiy ittifoq tuzish zarur ekanligini ta'kidlashgan. Yevroosiyochilik konsepsiyasi rus geosiyosatchilari yaratgan muhim geosiyosiy ta'limot hisoblanadi.

Garchi Yevroosiyoning markaziga intilish va uni egallash geosiyosiy ta'limotning ko'zga ko'rinmas, biroq asosiy nuqtasi bo'lsa-da, ham geosiyosiy jarayonlar, ham ilmiy tadqiqotlar Yevroosiyo qit'asining qirg'oq hududlarida jadallik bilan olib borilgan. Bu Yevropaning geosiyosiy taqdiri borasida olib borilgan kurashlarda ilmiy va adabiy asarlarda ayniqsa ko'proq namoyon bo'lgan. Geosiyosiy ta'limot borasidagi mumtoz asarlari bugungi xalqaro munosabatlarning tub ildizlarini ochib berishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

XX asr oxiriga kelib dunyo siyosiy xaritasida tub o'zgarishlar yuz berdi. Yevroosiyo mintaqasidagi geosiyosiy ahvol sezilarli darajada o'zgardi. Albatta bunday o'zgarishlar geosiyosiy jarayonlarni yanada kuchayishiga, to'g'rirog'i yanada yuqori pog'onalarga ko'tarilishiga olib keldi. SHu ma'noda XXI asr boshlariga kelib geosiyosat eng dolzarb sohalardan biriga aylana boshladi. SHuni ham ta'kidlab o'tishimiz lozimki XX asr 90-yillarigacha bu yo'nalishga imperializmning agressiv tashqi siyosatini targ'ib qiluvchi fan sifatida qarab kelingan. Lekin bugungi kunda geosiyosat mustaqil fan sifatida rivojlanib, uning hozirdagi mohiyati shundan iboratki, u davlatlar o'rtasida hududiy, siyosiy masalada kelib chiquvchi ziddiyatlarni oldindan tahlil qiladi va unga chora ko'rishdan iborat.

Geosiyosat geografiya asosida vujudga kelgan. Bu albatta tasodifiy emas. Chunki, geo-makon, yer, siyosat esa davlatni makon bilan o'zaro aloqasi va faoliyatini bildiradi. Ilmiy adabiyotlardan ham ma'lumki, davlat maqomini olishning ham eng asosiy shartlaridan biri bu – geografik chegaralangan hudud va makonga ega bo'lish hisoblanadi. Insonlar hayoti va jamiyatda geografik muhit aloqasi haqidagi g'oyalarni qadimgi olimlar ham ko'rsatib o'tgan (Aristotel, Gerodot, Strabon, Polibiy va boshqalar). Hattoki geografik muhit odamlarning fikrlash doirasi va dunyoqarashiga ham ta'sir o'tkazishi fanda o'z isbotini topgan hisoblanadi.

Rattsel geografiyani siyosat bilan aloqasini ilmiy talqinda tushuntirib berishga harakat qiladi. Katta hudud yoki makon insonlar hamjamiyatini himoya qiladi va rag'batlantiradi, shu bilan birga kelajakda yirik davlatlarni tashkil topishiga imkon yaratadi. Rattsel o'zining qarashlarida geografik makonni nafaol xususiyatlarini geosiyosiy va hatto geostrategik jihatlarini ochib berishga harakat qiladi. Rattselning tadrijiy xulosasiga ko'ra davlat tirik organizm, lekin u erdan oziqlanadi.

F.Rattselning ishlarini shved olimi R.Chellen (1846-1922) davom ettirgan. Chellen kuchli geograf bo'lmagan, lekin geosiyosatni ustozlari singari politologiyaning bir qismi sifatida o'rgangan. Aynan u o'zining asarlarida ilk bor «geosiyosat» atamasini qo'llagan va uni fanga kiritgan. Chellen ustozlari g'oyalari izidan borib, shunday ta'rifni keltiradi: «Davlat bu tasodifiy birlashma emas, u qonunlar yo'li bilan ushlab turilgan tirik mavjudotdir». Rattsel va Chellen o'z g'oyalarida geografiya va siyosatni o'zaro aloqalarini, umuman geosiyosat asoslarini yaratdilar. Ularning izdoshlari esa (Mexen, X Makinder, N Speykman, K Xausxofer va boshqalar) global geosiyosiy nazariyalarni ishlab chiqqan, jahonning istiqboldagi taraqqiyotini izohlab berishga harakat qilganlar.

Geosiyosatga yanada mufassalroq ta'rif «Zeitschrift fur Geopolitik» deb nomlangan nemis jurnalida berilgan: «Geosiyosat bu yerga munosabat va siyosiy jarayonlar to'g'risidagi fandır. Geosiyosat mohiyatiga ko'ra siyosiy faoliyat va butunicha siyosiy hayotga yo'naltiruvchi vositalar bilan ta'minlaydi. Geosiyosat bu

san'at, aynan amaliy siyosatni boshqarish san'atidir. Geosiyosat- bu davlatning geografik aql-idroki».¹⁶

Geosiyosat siyosiy hodisalar, ularni hududiy o'zaro munosabatlari, zaminga, madaniy omillarga ta'sirini o'rganadi. Geosiyosat ham tabiat va jamiyat haqidagi boshqa fanlar singari ijtimoiy, iqtisodiy, geografik, siyosiy, harbiy va boshqa tizimlar tarqqiyotini vujudga kelish qonuniyatlarini o'rganadi. Geosiyosatni tadqiq qiluvchi mutaxassislarning ko'pchiligi geosiyosatning asosiy qonuniyati fundamental dualizm deb hisoblashadi. G'arb olimlaridan R.Chellen va A.Mexen, X.Makinder va K.Xausxofer, rus tadqiqotchilari N.YA.Danilevskiy va V.P.Semenov-Tyanshanskiy, P.N.Savitskiy va L.N.Gumilevlar bu dualizmnı quruqlik qudrati (tellurokratiya) va dengiz qudrat (talassokratiya)ni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishda ko'radilar. Birinchisi harbiy-avtoritar sivilizatsiya ko'rinishida namoyon bo'ladi (masalan qadimgi Sparta, qadimgi Rim), ikkinchisi savdo sivilizatsiyasi (masalan qadimgi Afina va Karfagen).

Politolog Pozdnyakov E.A. ta'kidlashicha geosiyosat asosiy e'tiborini siyosatda fizik omillar imkoniyatlaridan faol foydalanish va harbiy-siyosiy manfaatlarga ta'siri, davlatni iqtisodiy va ekologik xavfsizligini o'rganish va ochishga qaratadi. «Amaliy geosiyosat davlatni hududiy muammolari bilan bog'liq muammolar, uni chegaralari, resurslardan oqilona foydalanish va taqsimlash masalalarini o'rganadi». Ya'ni qaysiki davlat muhim geosiyosiy omillarga ega bo'lsa, albatta uni anglay olishi va undan oqilona, unumli foydalana bilishi ham eng muhim vazifalardan biridir.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Danilevskiy nazariyasi bir qator olimlar tomonidan yanada rivojlantirilgan (K.N.Leontev, O.SHpengler, P.N.Savitskiy, L.N.Gumilev va boshqalar). Bu nazariyani yanada batafsilroq ko'rib chiqqan olim bu ingliz tarixchi va sotsiologi A.Toynbi hisoblanadi. U sivilizatsiyani rus-provaslav turini alohida ajratib ko'rsatadi. XX asr oxiriga kelib bu nazariya olimlarning asosiy bahs mavzusiga aylangan. Ayniqsa S.Xantingtonning «Sivilizatsiyalar to'qnashuvi»

¹⁶ Н.А. Нартов «Геополитика» М., 2003. 11- бет

asari juda ko`p munozaralarga sabab bo`ldi. XXI asrda ixtiloflarni asosiy sababi iqtisodiy yoki mafkuraviy emas, balki sivilizatsiyaviy farqlar bo`ladi va sivilizatsiyalar to`qnashuvi jahon siyosatini hal qiluvchi omillaridan biri bo`lib hisoblanadi.

SHunday qilib qisqacha ta`rifini beradigan bo`lsak, geosiyosat - hududni nazorat qilish haqidagi bilimlar tizimidir.

1.2. Davlatlararo munosabatlarni geosiyosiy talqin etish.

Tarixdan ma'lumki, davlatlar o'rtasidagi kuchlar nisbati doimo o'zgarib turgan. Chunki har bir tarixiy taraqqiyot bosqichida ma'lum bir sabablarga ko'ra davlatlar rivojlangan yoki aksincha rivojlanishiga to'siq bo'luvchi omillar tufayli yuksalishdan to'xtab qolgan. Shuning uchun ham insoniyat tarixi geosiyosiy nuqtai nazardan geosiyosiy bosqichlarning yoki ma'lum bir kuchlarning navbatma-navbat almashinib kelishi sifatida qaraladi. Har bir geosiyosiy bosqich kuchlar muvozanatiga, ta'sir doirasi va chegaralariga ega bo'ladi.

Jumladan, ilk sivilizatsiyalar tarixi shundan darak beradiki, dastlabki davlatlar iqlimi va tabiiy sharoiti qulay bo'lgan suv havzalari bo'yida vujudga kelgan. Hamda dastlabki kuchli davlatlar ham xuddi shu davlatlar bo'lib, ular asosan suv va quruqlik orqali savdo-sotiq bilan shug'illanish orqali rivojlana borganlar. Ilk o'rta asrlarda esa xuddi shu singari qulay savdo imkoniyatlariga ega bo'lgan hududlarni egallashga qaratilgan harakat avj ola boshlagan. Shuningdek bu davrda xristian dini ham yetakchi kuchga aylana borgan. Ya'ni bu davrda yagona din va katta hudud kuchli davlat ramzi hisoblana boshlagan. Keyinchalik esa mustamlakachilik siyosati tufayli ko'p sonli va yaxshi qurollangan qo'shinga, ishlab chiqarish kuchlariga ega davlat kuchli maqomiga sazovar bo'ladi.

XVIII – XIX asrlarda ilmiy-texnika inqiloblari tufayli kuchli davlat maqomi yana o'zgardi. Bu davrda ko'plab bug' va mashina sohasida ulkan kashfiyotlar qilgan Buyuk Britaniya davlatining kuchayishiga olib keladi. Chunki texnika inqiloblarining ishlab chiqarish sohalariga keng joriy etilishi mamlakat boy imkoniyatlarining yuzaga chiqishiga va iqtisodiyotning rivojlanishiga olib kelgan edi. Shuning uchun ham bu paytda ulkan ishlab chiqarish kuchlariga, boy imkoniyat va ilmiy-texnika yutuqlariga ega davlat kuchli, rivojlangan hisoblangan.

XX asr boshlari va oxirlariga kelib vayron etuvchi va portlovchi qirg'inbarot qurollarning yaratilishi esa kuchli davlat yo'nalishini yana o'zgarishiga olib keldi. Endi havoda, suvda va quruqlikda hamda fazoda ham katta qurol vositalariga ega bo'lgan davlat o'z so'zini o'tkaza oladigan zamon zo'rlari edi. Lekin XXI asrga kelib

bu nisbat o'z ahamiyati yo'qata bordi. Chunki bugungi kunda kuchli davlat atamasining o'zi ham mohiyatan o'zgardi. Ya'ni biz bugungi kunda aniq bir davlatni kuchli deya takidlay olmaymiz. Zero hozirgi globallashuv sharoitida biz rivojlangan deb takidlovchi davlatlarning ham ko'z ilg'amas kamchiliklari yo'q emas. Zamonning shiddat bilan rivojlanishi, davlatlar o'rtasidagi bog'liqlikning va odamlar munosabatlaridagi bir-biriga ta'sirining kuchayish jarayoni bu masalani chigal va mushkul bir muammo ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek XXI asr g'oyaviy kurash asri bo'lib, bu paytda esa inson qalbi va ongi eng katta kuch va eng ojiz nuqta sanaladi. XXI asrda qaysi davlat qudratli, qaysi xalq kuchli bo'ladi? Prezidentimiz tabiri bilan aytganda, bu savolga, "aholisi intellektual nuqtai nazardan barkamol, yoshlari bilimli, or-nomusli, vatanparvar bo'lib unib-o'sayotgan davlat", deb javob qaytarish mumkin.¹⁷

Geosiyosatning tarixiy rivojlanishi uchta bosqichga bo'lib o'rganiladi. Shulardan eng birinchisi Vena bosqichi o'ziga xos o'rin egallaydi. Chunki bu bosqich dunyo siyosiy kartasida muhim geosiyosiy o'zgarishlarga olib keldi. Buning asosi sifatida geografik hududni nazoratda tutish tamoyili olingan. Vena kongressining tashabbuskori Buyuk Britaniya bo'lib, bundan u asosiy raqibi Fransiyaning yo'q qilib, Yevropada o'zining yagona hukmronligini o'rnatish maqsadini ko'zlagan edi. Hamda Fransiya mulklari boshqa kichikroq Yevropa davlatlari o'rtasida taqsimlandi, ayrim davlatlar esa mustaqil deb elon qilindi. Natijada geosiyosiy makon rivojlanishining bu bosqichida jahon kuchlari markazi sifatida Rossiya va Avstriya-Vengriya imperiyasi, Britaniya kolonial imperiyasi, Germaniya, XIX asrning o'rtalaridan jaxon kuchlari markazi sifatida Fransiya o'zini namoyon eta boshladi. 1877 yildan boshlab Turkiya sultoni «Usmonli turklar imperatori» maqomini qabul qildi. Bu bosqichda Britaniya bor e'tborini Yevropa mintaqasida kuchayishga qaratadi. Natijada yirik geosiyosiy markazlarning harbiy, siyosiy va boshqa ko'rinishdagi nizolari, goh bir markazning rivojlanishi (AQSH, Germaniya) yoki, aksincha, parchalanishi, yoki ta'sir doirasining pasayishi (Rossiya, Ispaniya) kuzatildi. Voqealarning bunday rivoji

¹⁷ Каримов.И.А. БМТ Бош Ассамблеясида сўзлаган нуткидан. 9-жилд. Т., "Ўзбекистон", 2001.

ushbu bosqichdagi eng yirik siyosiy voqealardan biri ikkita yirik ittifoqning shakllanishiga olib keladi. Bu ittifoqning vujudga kelishi siyosiy ham iqtisodiy masala edi. Britaniyaning gegemonlikka intilishi uni Germaniya bilan munosabatlarining yomonlashishiga hamda Avstriya va Vengriya davlatlarining Germaniya bilan ittifoq tuzishiga olib keldi. Italiya ham o'zi davogarlik qilib kelayotgan yerlarning Fransiya qo'l ostida ekanligi uni ham Germaniya bilan hamkorlik qilishga undaydi. Shunday qilib, «Uchlik ittifoqi» hisoblanib, unga Germaniya, Avstriya, Vengriya va Italiya kirgan edi. Ikkinchi ittifoq Antanta hisoblanib, unga Fransiya, Angliya va Rossiya davlatlari birlashgan edilar. Bolqon yarim oroli uchun bo'lgan raqobat tufayli Rossiya ham Angliya va Fransiya tarafida turib kurashishga olib keladi.

«Uchlik ittifoqi» ning Birinchi jahon urushida (1914-1918) parchalanib ketishi Versal geosiyosiy bosqichning boshlanishi bilan xarakterlanadi va u geosiyosiy kuchlar nisbatining tubdan o'zgarishiga olib keldi. Kuchli siyosiy markaz bo'lgan Germaniya, Avstriya-Vengriya, Rossiya va Turkiya imperiyalari inqirozga yuz tutdi. Ushbu davlatlarning parchalanishidan paydo bo'lgan nisbatan kichik davlatlarni Versal shartnomasining mualliflari o'z ta'sir doiralariga kiritishni maqsad qilib oldilar. Versal shartnomasi siyosiy etakchilikni quruqlikda Fransiya, dengizda esa Angliya tegishini ta'minlab berdi¹⁸. Natijada Rossiyani yakkalab qo'yish va uni geosiyosiy makonda gegemon bo'lishdek xavfni bartaraf etish choralarini ko'rib boshladilar. Chunki bu davlatlarni nafaqat makon balki g'oyaviy, iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy qarashlari ham bir-biridan ajratib turar edi. Ya'ni bu bosqichda davlatlar tanlagan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'llariga qarab ikki katta tarafdosh guruh davlatlarga ajralib ketdilar. Bular:

1. G'arb davlatlari boshchiligidagi kapitalistik rivojlanish yo'lini tanlagan davlatlar;

2. Sobiq SSSR yetakchiligidagi sotsialistik rivojlanish yo'li kabi g'oyaviy guruh davlatlariga ajraladilar. Bunda ayniqsa hudud yoki geografik makonning bog'liqligi ko'zga tashlanadi. Bu bosqichda geosiyosiy makonda yangi “katta uchlik” deb

¹⁸ Тихонров Ю. В. Геополитика. -М., 1998, 90-бет .

atalgan davlatlar – AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya barcha masalalarni hal qiluvchi davlat maqomiga ega bo'ldilar. Ular Germaniya masalasida turli fikrda bo'lsalarda, ammo Sovet Rossiyasiga qarshi kurash masalasida yagona fikrda edilar.¹⁹

G'olib davlatlar siyosatchilari nuqtai nazaridan Rossiya uchun Yevropada joy yuq edi. Versal shartnomasining ajralmas qismi hisoblangan Millatlar Ligasi nomidan Germaniya va Turkiya AQSH prezidenti Vilsonning rejalariga ko'ra Rossiya davlati bir necha ta'sir doiralariga bo'linishi kerak edi. Masalan, Kavkaz Turkiya imperiyasining bir qismi sifatida, O'rta Osiyo esa biron-bir Yevropa davlatining protektorati qilinishi lozim edi. Rossiya va Sibirning o'zida esa amalda hech qanday siyosiy kuchga ega bo'lmagan qaram davlat tuzish ko'zda tutilgan edi. Shu maqsadda jahonning 15 ta yirik davlati o'z qo'shinlarini Rossiya hududiga kiritgan edi.

Birinchi jahon urushida eng katta yutuqqa AQSH burjuaziyasi erishgan edi. U o'z kuchini his qilgan xolda 1922 yilda Vashington konferensiyasida AQSH Angliya bilan bir qatorda harbiy dengiz flotiga ega bo'lish huquqini qo'lga kiritdi. Millatlar Ligasi yordamida g'olib davlatlar tamonidan Germaniya va Rossiya o'rtasida Fransiya va Angliya davlatlari ta'siri doirasida bo'lgan bir guruh davlatlardan iborat «sanitar kordoni» tashkil etildi va bu bilan ikki yirik davlatning to'g'ridan-to'g'ri aloqalariga chek qo'yildi. Chunki ikkita kuchli geosiyosiy ta'sir maydoniga ega Germaniya va Sovet Rossiyasi birlashadigan bo'lsa, katta uchlikning iqtisodiy-siyosiy mavqeiga putur yetar edi. Bu hol XX asrning 40-yil-larigacha davom etdi.

Birinchi Jahon urushidan keyin AQSH davlati ayniqsa kuchaydi. AQSHning kuchayishi uning dunyoda yakka hukmronlikka erishish istagini yanada oshirdi. AQSH Yevropada Angliya yoki Fransiyaning gegenmon bo'lib qolishini istamasdi. Shuning uchun ham u bunga xalaqit beruvchi Germaniyani saqlab qolishdan manfaatdor edi. Bunday intilish Ikkinchi jahon urushining boshlanishiga va Versal tinchligiga chek qo'yilishiga olib keldi. Urushning barcha qiyinchilik-larini Sobiq ittifoq o'z bo'yniga oldi. Lekin ushbu urushdan u harbiy va geosiyosiy jixatdan

¹⁹ Karimov.I Noosfera, geosiyosat va mafkura. T., “Yangi asr avlodi”, 2008, -B 34

mustahkam bo'lib chiqdi. O'z tarixida birinchi marta Rossiya atrofida yirik geosiyosiy blokni tashkil etdi. Chunki dunyo siyosiy kartasidagi muhim geosiyosiy hududni egallagan bir qancha davlatlar va 15 ta respublika sotsialistik blokka birlashgan hamda yirik davlatlar jumladan, Xitoy ham rivojlanishning sotsialistik yo'lini tanlagan edi. Keyinchalik ushbu blokni mafkuraviy va axborot qurollari yordamida parchalash uchun yarim asr vaqt sarfladi.

Potsdam bosqichi 1945 yildan boshlandi va Berlin shahri yaqinida joylashgan bu shaxarchada imzolangani uchun Potsdam shartnomasi nomini oldi. Germaniya va uning ittifoqchilari ustidan qozonilgan g'alabadan so'ng Yevropadagi kuchlar muvozanatini o'zida aks ettirdi, yangi geosiyosiy kuchlarning xolatini yangi chegaralar aniqlab berdi. SHartnoma jahonning ko'pqirralilikdan biopolyar tizimga o'tganligidan dalolat berar edi. Ya'ni bir tomondan, kontinental (kuruklik) kuchlarini namoyon qiluvchi Sobiq ittifoq va uning ittifoqchilari, ikkinchi tomondan, ko'proq dengiz kuchlarini o'zida namoyon qiluvchi AQSH va uning ittifoqchilari geosiyosat olamida tan olindi. Jumladan, "Sharq" SSSR va uning ittifoqchilariga, G'arb so'zi esa AQSH va uning ittifoqchilariga nisbatan ishlatila boshlandi. Lekin bu geografik tomonlarning atalishi ittifoqqa kiruvchi davlatlar joylashgan yer yuzasi tomonlarini inobatga olmagan edi. Masalan, AQSH biqinida joylashgan Kuba davlati ham sotsialistik tuzum tarafdori bo'lib chiqqan edi. Bu ikki qutbning qarama-qarshiligi Potsdam bosqichining mazmunini aniqlab berdi. Uning ahamiyatga molik tomoni shunda ediki, ikkita yirik kutbning qarama-qarshiligi «sovuq» va yadro urushlari o'rtasidagi muvozanatda kechdi. Bu bosqichning e'tiborli tomoni yana shundan iborat ediki, bu davrada ikki blokning yirik harbiy-siyosiy tashkilotlari, ijtimoiy-iqtisodiy hamjamiyatlar tuzilishiga, Yevropada esa integratsiya jarayonini boshlab bergan edi.

Jumladan Xalqaro tinchlikni saqlash maqsadida BMTning tashkil etilishi ham geosiyosiy jarayonlarga ta'sir etmasdan qolmadi. Lekin shunga qaramasdan BMT tashkiloti 1949 yilda AQSH boshchiligida NATO harbiy-siyosiy bolki va 1955 yilda SSSR yetakchiligida Varshava shartnomasini tuzilishiga, ikkita blok o'rtasidagi keskinlikning kuchayishiga to'sqinlik qila olmadi. Keyinchalik boshlangan Koreya,

Yaqin sharq mojarosi hamda Karib inqirozi kabi nizoli holatlar yetakchi kuchlar barqarorligiga zarba bergan. Quruqlik kuchi hisoblanmish Sobiq Sovet davlati muhim geosiyosiy makonda joylashgan bo'lib, AQSH Osiyo, Yaqin Sharq yoki Sharqiy Yevropa davlatlari bilan aloqa qilishi uchun albatta Sovet davlati bilan hisoblashishga majbur bo'lar edi. Sovet davlatiga esa Tinch va Atlantik okeani umuman suv havzalarida joylashgan muhim geostrategik mintaqalarning AQSH nazorati ostida ekanligi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga to'sqinlik qilar edi. Bu kabi holatlar 1990 yillargacha davom etgan qurollanish poygasi hisoblangan "Sovuq urushi"ga sababchi bo'ldi. Yarim asr davom etgan bu urushga g'arbda kommunizm mafkurasini to'la mag'lubiyati va SSSRning parchalanishi yakun yasadi.

Geosiyosiy tadqiqotlarga ko'ra Yevroosiyoda kechayotgan barcha geosiyosiy jarayonlar tarixan shakllangan qat'iy qonuniyat asosida qirg'oq hududlardan qit'aning markaziga intilishga qaratilgan.²⁰ Chunki tarixdan ma'lumki, nafaqat davlat, insoniyat ham o'zida yo'q imkoniyatlarni axtarishga, o'rganishga yoki o'zlashtirishga harakat qilib kelgan. Zero, qita markazidagi davlatlar ham hamisha qirg'oq hududlarga intilishi natijasida yangi iqtisodiy-ijtimoiy aloqa yo'llarini kashf etishgandir.

AQSH boshchiligida geosiyosiy tahlilning muhim elementi davlatning kuch-qudrati hisoblanadi. Davlatning kuch-qudrati deganda ikki narsa tushuniladi, birinchidan, davlatning o'z maqsadiga boshqa davlat siyosatiga tashqi siyosat orqali ta'sir ko'rsatish yo'li bilan erishish, ikkinchidan, uning o'z manfaatlarini o'zining imkoniyatlari vositasida himoya qila olish qobiliyati tushuniladi. Har qanday davlatning kuch-qudratini quyidagi omillar belgilab beradi:

- davlatning geografik o'rni;
- tabiiy resurslari;
- sanoat salohiyati;
- qurolli kuchlarining miqdori va sifat ko'rsatkichlari;
- milliy xususiyatlari;

²⁰ А.Жалилов, Г.Туленова "Геосиёсат" фанидан услубий қўлланма. Т., 2008, 60-бет.

- diplomatiya sifati va davlat boshqaruvi darajasi kabilardan iborat. Bu kabi mezonlardan Sorokin 10 tasini ko'rsatib o'tganligini U. Norbekov o'z kitobida qayd etib o'tgan.²¹

Qadimdan kuchli hisoblangan davlatlar nisbatan kuchsiz davlatlarni bo'ysundira olmaganligi haqida ko'p misollar uchraydi. Masalan, miloddan avvalgi asrlarda benihoya qudratli Fors davlati saklar tomonidan yoki Makedonskiy qo'shinlarining so'g'dlar tomonidan qattiq zarbaga uchraganliklari hamda ko'chmanchi gotlar tomonidan ulkan G'arbiy Rim imperiyasining qulagani misol bo'la oladi. XX asrning ikki buyuk davlati – AQSH va Sobik ittifoq ham maqsadiga erisha olmadilar. AQSH Vetnam urushida, Sobiq ittifoq qurolli kuchlari esa Afg'onistonda mag'lub etilgan edi. SHu munosabat bilan hozirgi geosiyosat nazariyasi davlatlar o'rtasidagi kuchlar nisbatini baxolash masalasiga jiddiy e'tibor bermoqda. Ushbu muammo xalqaro hamjamiyatda kuchlar muvozanatini aniqlash bilan bog'liqdir.

Davlatlararo munosabatlarda geosiyosiy yo'nalishlar muhim vazifani bajaradi. Ular juda muhim quruqlik, dengiz va havo yo'llari hamda kommunikatsiyalar bilan bog'langandir. Mazkur yo'nalishlarga neft va neft mahsulotlarini Yaqin Sharqdan Yevropa va AQSHga yetkazib beruvchi asosiy yo'llar va quvurlar kiradi. Ya'ni davlatlar o'rtasida bo'ladigan o'zaro iqtisodi, siyosiy va savdo aloqalari qurulik yoki suv transporti, ayniqsa bugungi kunda rivojlangan havo transporti orqali amalga oshiriladi. Bu kabi hamkorlik dunyo aholisining madaniy aloqalarning, faravonligining, tinch-totuvligining ham mustahkam garovi sanaladi. Ko'rinadiki, geosiyosiy yo'nalishlar jahon geosiyosiy xaritasini shakillantiruvchi, undagi mintaqalarni birlashtiruvchi vosita ro'lini bajaradi.

SHunday qilib, geosiyosiy yo'nalishlar - bu geosiyosiy makonni tashkil etuvchi jarayonlarning elementlaridir. Geosiyosiy makon deyilganda davlat yoki davlatlar ittifoqi tomonidan nazorat qilib turiladigan makon tushuniladi.

Kuchlar muvozanati tarixiy kategoriya bo'lib, u insoniyatning va mintaqalarning taraqqiyotini belgilab beradi. Raqobat qilayotgan davlatlar frontal rakobatga xam

²¹ У.Норбеков. Геосиёсий жараёнлар: кеча ва бугун. -Т.,«Фан ва технология», 2010, 10-бет.

sabab bo'lishi mumkin. Bizga ma'lumki, bunday raqobat davlatlarning barcha manfaatlarini o'zaro yo'q qilishga yo'naltiriladi. Geosiyosiy raqobat gorizontal va vertikal xususiyatlarga ega deyishimiz mumkin. Gorizontal rakobat quruqlik va dengizda vujudga kelib, suvdagi va quruqlikdagi raqobatga bo'linadi. XX asrning 60-90-yillari va hozirgi paytda harbiy havo kuchlarining kuchayishi bilan vertikal raqobat vujudga keladi. Chunonchi 1960 yilda AQSH prezidenti lavozimini egallagan Jon Kennedi kosmosda AQSHning yetakchi davlat bo'lishini ta'minlash maqsadida "Appolon" deb ataluvchi dasturni ilgari surgan edi.²² Y'ani jahon sivilizatsiyasi shu darajada kuchli rivojlanganki, bugungi kunda insoniyat nafqat yerda fazoda va kosmosda ham o'zining imkoniyatlarini sinab ko'rish sharoitiga ega hisoblanadi. Bu kabi imkoniyatlarni sinash esa XX asrning 90-yillarida ayniqsa avj oldi. Shuning natijasidan kelib chiqqan holda geosiyosat olamida yangicha raqobat maydoni vujudga keldi va bu raqobat mamlakatlar taqdirida muhim omil hisoblana boshladi.

²² Бжезинский З. "Великая шахматная доска". М-1999, 56-bet.

1. 3. Globallashuv sharoitida mafkuraviy va geosiyosiy jarayonlarning uyg'unlashuvi.

“ Fikr qaramligi, tafakkur qulligi har qanday iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan ham ko'ra dahshatliroqdir”.²³

Bugungi globallashuv sharoitida geosiyosiy maqsadlarni amalga oshirishning o'ziga xos va mos yo'li bu – kishilar ongi va qalbini egallashga qaratilgan mafkuraviy hurjlarning geosiyosiy jarayonlar bilan uyg'unlashuvi hisoblanadi. Shu o'rinda geosiyosat va mafkura tushunchalarini o'zaro talqin qilish zaruriyati paydo bo'ladi. Geosiyosat tushunchasi – muayyan bir mamlakat o'zni, tabiiy boyliklari, iqlim va boshqa geografik omillarning davlat tashqi siyosatiga muayyan ta'sirini ifodalash uchun ishlatiladi.²⁴ Mafkura atamasi ham geosiyosat tarifiga bir muncha o'xshash bo'lib, muayyan bir ijtimoiy guruh yoki davlatning ehtiyoj va maqsadlarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari hisoblanadi.²⁵ Ya'ni bunda geosiyosiy maqsadni ko'zlagan biror bir davlat bevosita boshqa bir davlat jamiyati kishilarining azaldan shakillanib kelgan, maqsadlarini ifoda etadigan g'oyalariga daxl qilib, ta'sir o'tkazadi. Bu esa jamiyat hayotida ikkilanishlarga olib kelib, tinchlik va barqarorlikni buzilishiga zamin hozirlaydi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqadigan bo'lsak, bir davlat mafkuraviy dunyoqarashga ta'sir etishi bu – o'z mavqei va tasirini boshqa hudud yoki mintaqalarda kuchaytirishga qaratilgan – geopolitik maqsadni amalga oshirishning eng samarali usuli hisoblanadi.

Tarixdan ma'lumki, har bir davrning o'ziga xos ilg'or g'oyalari mavjud bo'lgan. Hamda jamiyat tarixi har doim turli xil g'oyalarning o'zaro qarama-qarshi kurashidan iborat. Jumladan ma'naviy hayotda – yaxshilik va yomonlik, madaniyat, din sohasida – ko'p xudolik va yakka xudolik, ijtimoiy-siyosiy hayotda – kapitalizm va sotsializm g'oyalari o'rtasida turli xil ko'rinishlarda dialektik holatlar namoyon bo'lib kelgan. Yunon faylasufi Platon ham o'z asarlarida jamiyat tarixi bu – insoniyatning emas,

²³ Karimov I.A. Erkin va faravon hayotni yuksak ma'naviyatsiz qurib bo'lmaydi. T., “O'zbekiston”, 2006, 28-bet.

²⁴ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т., 2001. 643-бет

²⁵ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча, тамойиллар ва атамалар луғати. Т., “Янги аср авлоди”. 2002, 86-бет

uning ruhiy olami bilan bogʻliq boʻlgan gʻoyalar tarixi mavjud va realdir deb hisoblaydi. Haqiqatdan ham insoniyat tarixi bu – gʻoyalar tarixi. Chunki tarixiy taraqqiyot davrining har bir dahosi faqat oʻzining gʻoyalari bilangina jamiyat taqdiriga taʼsir koʻrsata olgan va hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa bugungi kunda taraqqiyotning aql sohasi – “Noosfera bosqichi”ga kirgan bir paytda²⁶, Yer deb atalgan yakka-yu yagona planetani muqarrar halokatdan saqlab qolish uchun aql natijasi boʻlgan gʻoyalardan, fan-texnika taraqqiyotidan umummilliy va umumbashariy maqsadlar yoʻlida foydalanish zarur. Ammo bugungi kunda buning aksini qilayotgan harakatlar va geosiyosiy maqsadni koʻzlagan mafkuraviy tahdidlar avj olmoqda. Hozirgi kunda turli gʻoya va qarashlardan oʻzga yurt, makon toʻgʻrisida noxolis fikrlarni fuqarolar ongiga singdirish va oʻz geosiyosiy manfatlarni amalga oshirishning quroli sifatida foydalanayotganlar ham yoʻq emas.

Yaqin oʻtmishdagi tarixiy jarayonlar geosiyosiy maqsadlarga erishish yoʻlidagi mafkuraviy taʼsir oʻtkazishning qadimiy “boʻlib tashla va hukumronlik qil” tamoyiliga amal qilinishini koʻrsatib bergan. Bu tamoyil oʻziga xos uchta yoʻlga asoslanadi:²⁷

1. Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarni boʻrttirib koʻrsatish, yaʼni turli xil yolgʻon axborotlar orqali aholi ongida norozilikni uygʻotish harakatlarida nomoyon boʻladi. Bunga misol sifatida “Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” asarida keltirilgan 1989-yil Fargʻona, 1990-yil Namangan voqealarini keltirish mumkin.
2. Maʼlum bir mintaqadagi davlatlar orasida yetakchi yaʼni gegemon davlat mavjudligiga ishontirish. Bu orqali esa boshqa davlatlarni bir davlatga nisbatan gʻaraz va dushman kayfiyatini shakillantirish va barqarorlikni buzishdan iborat.
3. Muayyan mamlakat toʻgʻrisida noxolis, notoʻgʻri tasavvurlarni shakilllantirish.

Yaʼni bunga biz Afgʻonistonni misol qila olamiz. Afgʻonistonga ayrim davlatlar tomonidan notinch, urushqoq davlat maqomi berilgan edi. Shu oʻrinda yurtboshimiz Islom Karimovning “Afgʻon xalqi azaldan tinch xalq va afgʻon xalqi tinchlik

²⁶ Karimov.I Noosfera, geosiyosat va mafkura. T., “Yangi asr avlodi”, 2008, -B 17.

²⁷ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Ўқув қўлланма. Т., “Янги аср авлод”, 2001, -Б 62-63.

istaydi” degan fikrlarini butun jamoatchilikka qarata aytishi O‘zbekistonning tinchliksevar siyosatining maqsad-mohiyatini ham ko‘rsatadi.

XXI asr shiddatli rivojlanish yoki globallashuv asrida geosiyosiy maqsadlarga erishishning mafkuraviy ta’sir etish jarayonining ahamiyatini yanada oshiradi. Bunday geosiyosiy maqsadlarni amalga oshirish nafaqat ma’lum bir davlat yoki mintaqa uchun emas, balki butun bir olam va borliq uchun ayanchli ahvolga olib kelishi mumkin. A. Toyibiyning tabiri bilan aytganda, insoniyat “umumiy uy”, “umumiy taqdir” va “umumiy tashvishlar” bilan yashashga kirishayotgan globallashuv sharoitida yashamoqdamiz.²⁸ Masalan, Z.Bjezinskiy global g‘alayon, S.Xantington tamaddunlar to‘qnashuvi, K.Santoro umumsayyoraviy tratibsizlik xavfi haqida o‘zlarining turli fikr-mulohaza va konsepsiyalarini ilgari surdilar. Mutaxassislarning takidlashlaricha, bunga, avvalo, o‘tgan asrning oxiri – XXI asrning boshida jahon iqtisodiyotida ro‘y bergan o‘zgarishlar sabab bo‘lmoqda:

- ishlab chiqarish, kommunikatsiya, savdo, moliya hamda investitsiyalar sohasidagi tub o‘zgarishlar ta’sirida nafaqat xalqaro mehnat taqsimoti, balki ulkan ishlab chiqarish-savdo tuzilmalari, yagona axborot tizimi orqali bog‘langan butun dunyoni qamrab olgan global iqtisodiyotning vujudga kelishi, rivojlanishi va G‘arbdagi eng rivojlangan davlatlar manfaatlarigagina hizmat qilishi dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi tengsizlikning kuchayishiga sabab bo‘layotgani; - xalqaro iqtisodiy munosabatlarining asosiy subyektlari – “katta sakkizlik” va yetakchi xalqaro tashkilotlarning iqtisodiy siyosati asosan, rivojlangan mamlakatlar manfaatlariga bo‘ysundirilgani;

- transmilliy korporatsiyalar, banklar, investitsiya fondlari, sanoat-moliya guruhlar mavqeyi va ta’sir doirasining beqiyos darajada ortishi;

- sobiq ittifoqning parchalanib ketishi oqibatida jahon xaritasida bir qutbli tizimning vujudga kelishi. Bu hol jahon bozorlariga kuchli ta’sir o‘tkazish, boshqa davlat va mintaqalarning tabiiy, moliyaviy va intellektual zaxiralarini egallash hamda uni o‘z manfaatlariga bo‘ysundirish imkoniyatini yaratadi;

²⁸ Jo‘rayev. N Tarix falsafasining nazariy asoslari. T., “Ma’naviyat”, 2008. –B 221.

- davlatlar o'rtasida turli darajada va miqyosdagi integratsion jarayonlar hamda moliyaviy-iqtisodiy va savdo munosabatlaridagi tub o'zgarishlar ta'sirida "geoiqtisodiyot"ning vujudga kelishi kabilardan iborat.

Hozirgi kundagi siyosatshunoslik fanida butun bir omma siyosat subyekti sifatida qaralmoqda. Chunki insonlar va davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, g'oyaviy bog'liqlik shu qadar kuchaygan-ki, buni bir so'z bilan tariflash qiyin. G'aybulloh as-Salom shunday deydi: "Tomchida quyosh aks etgani singari alohida olingan har bir shaxsda millat yashaydi".²⁹ Ya'ni quyoshning zarrin nurlari har bir tomchida aks etganday, bugungi kundagi geosiyosiy maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan mafkuraviy tajovuzlar soyasidan ham hech bir inson chetda qolmaydi. Xullas birgina inson ham millat taqdiriga ta'sir etish jarayonining kuchayganligini ko'rsatadi. Bu esa butun bir insoniyatning umumiy taqdir, umuminsoniy manfaatlar yo'lida birlashish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Hamda mafkurani o'ziga qurol qilib olgan geosiyosiy maqsadlarning ig'volariga qarshi turish va kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakillantirish ehtiyojining ahamiyatini yanada oshiradi. Buning uchun esa geosiyosat va mafkura tushunchalarini to'la anglab yetish, ularni esa ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni, ahamiyatini baholay olish qobiliyatiga ega bo'lishni talab etadi. Bu borada quyidagilarni amalga oshirish joiz, deb hisoblaymiz:

- jamiyat hayotida geosiyosat fanining ro'li va ahamiyatini aniq belgilab olish, o'z navbatida geosiyosiy jarayonlarda mafkuraning tutgan o'rnini ko'rsata olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

- o'rta-maxsus va oliy ta'lim bosqichlarida geosiyosat fanining samarali o'qitish tizimini yaratish hamda ulardagi bu fanni o'qitish jarayoni ustidan nazarotni kuchaytirish;

- "Geosiyosat va mafkura" mavzusida ta'lim dargohlarida davra suhbatlari, siyosatchilar bilan muloqatlar tashkil etish, bu orqali yoshlarda bugungi kunning siyosiy jarayonlari haqida aniq bilim ko'nikmalarga ega bo'lish, erkin munosabat va ongli siyosiy fikrlash qobiliyatini shakillantira olishga xissa qo'shish mumkin.

²⁹ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Ўқув қўлланма.Т., "Янги аср авлод", 2001, -Б 106.

Tarixdan ma'lumki, qadimgi davlatlar o'rtasida mustahkam va do'stona munosabatlar o'rnatishda elchilik, xat-habar aloqalarining o'zni muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki bu elchilik aloqalari orqali necha-necha ming urushlarning oldi olinib, millionlab insonlarning hayoti saqlab qolinishiga erishilgan. Yani bugungi kunda mana shunday ahamiyat kasb etayotgan vosita bu – Ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Ana shu ahamiyatdan kelib chiqib, oxirgi paytlarda informatsion xurujlarning tez-tez takrorlanib turishi bugungi kunda urushga munosabatning o'zgarganligini, yani yangicha qurol turi kashf qilinganidan darak beradi. Bu qurol vositasi – axborotdir.

Shu o'rinda axborot atamasiga lug'aviy izoh berish joiz. Axborot atamasining o'zagi arabcha “axbor” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbekcha “xabarlar” degan ma'noni anglatadi. Axborot so'zining o'zagi muqaddas hadis va ezgu amallarga nisbatan qo'llanilgan atamadan kelib chiqqan.³⁰ Yani har nimani yoki yolg'on xabarni biz axborot deb hisoblab, uni keng jamoatchilikka yoyishimizning o'zi ham aslida gunoh hisoblanadi. Chunki yuqorida keltirilgan ta'rifdan kelib chiqadigan bo'lsak, axborot atamasini biz faqat jamiyatga foyda keltiradigan, kishilar qalbiga ziyo va yaxshilik ulasha oladigan, odamlarni bir-biriga nisbatan mehr-oqibatli qila oladigan va albatta tinchlikka qaratilgan xabarni yoki yangilikni axborot deya qabul qilishimiz mumkin. Bu esa bugungi kunda jamoatchilik tamonidan ayrim yangiliklarga nisbatan axborot atamasining noto'g'ri qo'llanayotganligini ko'rsatadi.

Axborot tushunchasi bu – biron bir voqea haqidagi batafsil xabar, ma'lumot. Davlatlarning o'rtasidagi muzokaralar natijasida tuzilgan bitim yoki shartnoma to'g'risida hukumatning rasmiy xabari.³¹ Bu esa axborot tushunchasiga be'tibor bo'lmaslik, uning naqadar davlat ahamiyatiga doir muhim bir hujjat ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek hozirgi kunda ayrim geosiyosiy maqsadlarni ko'zlovchi uzoq va yaqindagi davlatlar axborot vositalaridan o'z maqsadlariga erishishning quroli sifatida foydalanishga urinayotganligi ham bu masalaning naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda.

³⁰ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Т., 2000, -Б. 528.

³¹ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Т., 2000, -Б. 528.

AQSH siyosatshunosi S.Xantington “XX asr mafkuralar to`qnashuvi asri bo`lgan bo`lsa, XXI asr sivilizatsiyalar yoki diniy to`qnashuvlar asri bo`ladi”, degan edi.<sup>32</sup> Shu o`rinda XXI asrni biz axborot-texnologiyalar asri deb ham ataymiz. Xuddi mana shu tomonlama yondashadigan bo`lsak, S.Xantington fikrida kelirilgan to`qnashuvlarning amalga oshiruvchisi yoki tezlashtiruvchi omili bu – axborot hisoblanadi. Zero, bugungi globallashuv zamonida axborot omilining almashishining tezlashuvi insoniyat hayotidagi ta`sir kuchining ahamiyatini yanada oshirdi. Nima uchun deganda ayni payta ko`pchilik kishilar va davlatlar o`rtasidagi munosabatlarning ijobiy yoki salbiy ko`rinishda bo`lishida axborot almashinuvi muhim ro`l o`ynamoqda. Chunki axborot almashuvining ijtimoiylik munosabat-larida ayniqsa madaniyat va ma`naviyat sohalariga chuqurroq kirib borib, yoshlar hayotida ko`proq namoyon bo`lmoqda. Prezident Islom Karimov mana shunday murakkab vaziyatda xalqimiz oldida turgan eng muhim vazifa haqida gapirib, shunday degan edi: “Agar biz dinu diyonatimizni uni buzib talqin etayotgan kimsalardan himoya qilmasak – shunday xatarni yaqin tariximizda va bugunning o`zida ham boshimizdan kechirmoqdamiz – odamlar, ayniqsa, hayot tajribasi bo`lmagan yoshlarimiz ertaga ana shu kuchlarning ma`shum ta`siriga tushib qolishi mumkin”.³³

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda bugungi kunda yurtimizda ommaviy axborot vositalarining jamiyatimiz hayotidagi tutgan o`rni va ahamiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqargan holda, unga qo`yiladigan haqqoniylik va hayotiylik tamoyillarini davr talabi ekanligini uqtirishdan iborat. Jumladan ommaviy axborot vositalarini “to`rtinchi hokimyat” deb etirof etilgani-ning<sup>34</sup> o`zi ham jamiyatimiz hayotida yuz berayotgan o`zgarishlarni ijobiy hal qiluvchi, ijtimoiy tartibni saqlovchi, davlatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni samardorligini oshiruvchi kuch va chetdan kirib keluvchi yolg`on xabarlarining oldini oluvchi himoyachi vazifalarni o`tash masuliyatini yuklaydi.

³² Karimov.I Noosfera, geosiyosat va mafkura. T.,. “Yangi asr avlodi”, 2008, . –B. 96.

³³ Каримов И.А. “Биз учун халқимиз, ватанимиз манфаатидан улуғ мақсад йўқ”. // Халқ сўзи газетаси, 2001-йил, 7-декабр сони.

³⁴ Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. Иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси тўққизинчи сессиясидаги нутқи // Халқ сўзи. 30 август. 2002 й.

O'z oldiga erkin fuqarolik jamiyatini qurishni maqsad qilib olgan davlatimiz Konstitutsiyasining 29-moddasida shunday deyiladi: “ Har kim fikrlash, so'z va etiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir...”.³⁵ Lekin bu kabi qonunlarni tushunmagan holda o'zicha “oshkoralik va demokratiya” ni talab qilayotgan shaxslar ham yo'q emas. Bu kabi illatlarning asl sababi ma'naviy qashshoqlikdan boshqa narsa emas. Asuski bunday kishilar hali ham hayotimizda ahyon-ahyonda uchrab turadi. Bu kabi kishilar har qanday axborotni oxirini va asl ma'nosini o'ylamasdan o'z ma'nfaatlarini o'ylagan holda kasbiga nisbatan suistemolchilikka yo'l qo'yadi. Ayniqsa axborot sohasida qilingan kasbga beparvolik nafaqat kichik bir chegara hududning balki, umumbashariyat kishilarining boshiga to'qmoq bo'lib tushishi mumkin. Shu o'rinda ommaviy axborot vositalarining ta'sir kuchini ko'rsatadigan shunday bir gap bor: “Har qanday puch g'oya, uydirma haftasiga uch martadan to'rt yil davomida takrorlansa – “haqiqat” tayyor bo'ladi, odamlar unga chippa-chin ishonadilar”.

Mashhur siyosatchilardan biri Buyuk Britaniya sobiq Bosh vaziri Margaret Tetcher: “Ommaviy axborot vositalari – terrorchilar uchun kislorod vazifasini o'taydi”, degan.³⁶ Ya'nikim, ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun havodek zarur hisoblanadi. Jumladan, telvideniya orqali jamoatchilikka havola qilinayotgan terroristlarning xatti-harakatlari insonlarda qo'rquv va vahima uyg'otadi. Xuddi mana shu narsa ularning asl maqsadi sanaladi. Shuning uchun ham har nimani axborot deb jamoatchilikka elon qilinishini biz davlat va jamiyat hayotiga aks ta'sir etuvchi omil ekanligini bugungi va kelgusi avlodaga uqtirishdek ulkan vazifani oldimizga maqsad qilib qo'yishimiz lozim.

Darhaqiqat ikki qutbli dunyo barham topganidan keyin jahondagi geosiyosiy manfaatlar ham o'zgardi. Geosiyosiy manfaatlar o'zgarishi bilan butun yer yuzidagi, jumladan, dunyoning turli mintaqalaridagi davlatlararo munosabatlar ham o'zgardi.

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., 2014. - B. 8.

³⁶ Ergashev.I Milliy istiqlol g'oyasi. Darslik. T., 2005. –B. 309.

Ana shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlar ham murakkabligicha qolmoqda. Shuningdek G'arbning "universal demokrat" tarafdorlari Konstitutsiyamizning 64- va 66-moddalarini "shaxsga nisbatan zo'ravonlik" deb, hamda o'zbek qizlariga ota-onalarining kalta kuylak kiyishini, kechqurun uydan ruxsatsiz chiqmaslikni, televizorda behayo filmlar ko'rishni ta'qiqlashi kabilarni "ayollar huquqlarining paymol qilinishi" degan fikrlari orqali asrlar davomida shakllangan ma'naviyatimizni o'zlarining g'arb madaniyati ya'ni "ommaviy madaniyat"ning asiriga aylantirishni niyat qilishgan.³⁷ Bu kabi buzg'unchlarning asl maqsadi insoniylikka mutlaqo yot bo'lgan mana shunday g'oyalar orqali o'z mafkurasini singdirish va bu orqali o'z hukmronligini o'rnatishdan iborat. Ya'ni ayrim davlatlar tomonidan o'z geosiyosiy maqsadlarini amalga oshirishda qulay bo'lgan - fikr va tafakkuri qaram insonlar jamiyatini yaratishda axborot omili – siyosiy omil bo'lib hizmat qilmoqda.

Urush, ekologik falokatlar, ma'naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm kabi muammolarni hamma biladi. Lekin bugungi kunda hamma ham anglayvermaydigan, oshkora ko'zga tashlanmaydigan, ma'naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar ham borki, hoziroq ularni oldini olmasak, keyin kech bo'lishi mumkin. Jumladan, bugungi kunda mafkura va ma'naviyat geosiyosiy jarayonlar ishtirokchisi bo'lgan ayrim davlatlarning o'z geopolitik maqsadini amalga oshirishda qurol vazifasini bajarmoqda. Ommaviy axborot vositalari esa kishilar ongini egallashda vosita bo'lib hizmat qilmoqda. Shu o'rinda geopolitik maqsad tushunchasi nima degan savol tug'iladi? Geopolitik maqsad – bu muayyan davlatning o'z mavqei va ta'sirini o'zga hudud va mintaqalarda kuchaytirishga qaratilgan siyosatni ifodalaydi³⁸. Xalqaro maydonda turli shakllarda namoyon bo'layotgan bunday maqsadlar mafkuraviy siyosat bilan qo'shilib bormoqda. Inson qalbi va ongi uchun kurash – bu jarayoning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Prezidentimiz ta'biri bilan

³⁷Karimov I.A Erkin va faravon hayotni yuksak ma'naviyatsiz qurib bo'lmaydi. T., "O'zbekiston", 2006. - B. 40.

³⁸ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Услубий-амалий қўлланма мажмуа. Т., "Янги асп авлоди" 2001, 69-бет.

aytganda, “Fikr qaramligi, tafakkur qulligi har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ham ko`ra dahshatliroqdir”³⁹.

Ayniqsa hozirda avj olgan G`arb olamida keng tarqalgan egosentrizm va erkinlik niqobidagi ahloqsizlik falsafasidir. Ularning maqsadi millatlar ong-u shuurini egallab, yanada ko`proq boylik orttirish, inson ehtiyoji uchun zarur bo`lgan moddiy va ma`naviy resurs manbalariga ega bo`lish orqali butun dunyo tizginini o`z qo`liga olishdir. Yani yuqorida takidlangan geopolitik maqsadni amalga oshirishga qaratilgan. Hamda dunyoda yakka hukmron bo`lib, uni o`z bilganicha boshqarishga erishishdan iborat. Shunday ekan, o`zga hududlarni zabt etish uchun ularning aholisini yo`qotish shart emas. Zero, ongi va shuuri zabt etilgan, qarash va kayfiyatlari qulay qolifga solingan aholi ko`magida har qanday boylik, tabiiy resurslarga egalik qilish mumkin bo`lib qolmoqda. Shu o`rinda fransuz adibi Markiz de Sadning “Fohishaxonalar falsafasi” asaridagi quyidagi jumllarini keltirib o`tmoqchiman: *”Bundan buyon dunyoni zabt etmoq uchun behisob qo`shin bilan uzoq hududlarga harbiy hujum uyushtirishimiz, jangdan so`ng o`lgan askarlarimiz etigi begona yurtlarda chirib bitishi mutlaqo shart emas. Agar mening kitoblarimga o`xshagan asarlarda tasvirlangan yashash tarzini butun dunyoga asta-sekin muvaffaqiyatli targ`ib qila olsak, shu orqali u yerlarda yashovchi odamlar qalbini egallasak, ularni jisman mahv etishga hech qanday hojat qolmaydi. Qalbi bizning qo`limizga o`tgan xalqlarning o`zi, ixtiyoriy ravishda, oyog`imiz ostiga yukinib keladi, bizga qul bo`ladi...”*⁴⁰.

1 – bob bo`yicha xulosa. Geosiyosat fani siyosiy jarayonlarning geografik makondagi o`zaro aloqalarini, ularning Yerga va madaniy omillarga ta`sirini o`rganadi.⁴¹ Ya`ni geosiyosat fani asosiy e`tiborni tabiiy muhit omillarini harbiy-siyosiy, iqtisodiy va ekologik xavfsizlik maqsadlarida faol foydalanishga qaratadi. Geosiyosat fanining o`rganish obyekti: sayyoraviy makon, geosiyosiy jarayonlar va hodisalardir. Sayyoraviy makonga quruqlik, suvlik (Dunyo okeani), havo qobig`i,

³⁹Karimov I.A Erkin va faravon hayotni yuksak ma`naviyatsiz qurib bo`lmaydi. T., “Yoshlik” talabalar shaharchasidagi suhbat. T., “O`zbekiston”, 2006, 28-6er.

⁴⁰Karimov I.A Erkin va faravon hayotni yuksak ma`naviyatsiz qurib bo`lmaydi. T., “Yoshlik” talabalar shaharchasidagi suhbat. T., “O`zbekiston”, 2006, 45-bet.

⁴¹ www.google.uz

davlatlar va ularning resurslari kiradi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, geosiyosat fanining maqsadi yuqoridagi o'rganish obyektlarning siyosiy jarayonlarda tutgan o'рни o'rganish hamda ularning jahon tinchligi va barqaroaligiga aks ta'sir etishining oldini olishdan iborat. Geosiyosat fani nafaqat bugungi kundagi jarayonlarni balki qadim o'tmishdan shakillangan makonlarning o'ziga xosligini, uning tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, o'rganib bugungi kunda yuz berishi mumkin bo'lgan noxushliklarni oldini olish ya'ni, bashorat qilish vazifasini ham bajaradi.

Avvalgi tarixiy va geosiyosiy voqealar rivojidan kelib chiqadigan bo'lsak, dastlab katta quruqlik va keng dengiz hududlariga ega davlat kuchli yoki imkoniyatlari katta deb hisoblansa, XXI asrga kelib fazoda ham davlatlar imkoniyatlari o'lchana boshlandi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, globallashuv ya'ni shiddatli rivojlanish zamonida insoniyat intilish va imkoniyatlari cheksizligi ortib borishi bilan davlatlar o'rtasidagi raqobat ham chegara bilmaydigan turli yo'nalishlarda o'sib boraveradi. Bunday sharoitda ham barcha voqea-hodisalarning asosi va hal qiluvchi kuchi inson ya'ni uning aql-idroki bo'lib qolaveradi.

Hozirda rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olgan Yaponiya davlatida ham shunday muammolardan biri – bu ludomoniyaning keng tarqalganidir⁴². Aynan yaponlar tomonidan ushbu muammoning yechimi O'zbekistondan topilganining o'zi ham Vatanimizda madaniy va ma'naviy ishlarning samarali yo'lga qo'yilgan-ligini ko'rsatadi. Chunki bizda azaldan shakillanib kelayotgan an'na-marosimlari-ga, urf-odat va xalq o'yinlariga bo'lgan etibor kuchli sanaladi. Yapon mutaxassis-lari tomonidan aynan bizdagi xalq o'yinlari o'zlashtirilib, uni yapon bolalariga o'gatish orqali turli kompyuter o'yinlaridan chalg'itish hamda ludomoniya kasalligini davolovchi vosita sifatida baholanmoqda. Ana shunday salohiyatni qo'ldan boy bermaslik uchun bugungi kunda ma'naviyat, talim-tarbiya sohasida har tomonlama tayyorgarlikka ega bo'lgan, shunday tahdidlar bilan kurasha olishga qodir fidoyi va yuksak ma'naviyatli, etiqodi mustahkam kishilar suv bilan havodek zarur. Shuningdek milliy g'oyamizni o'qib o'rganish chog'ida, uning asosiy tushunchalarini

⁴² Quronov M. Ezgu g'oyalar ro'yobi. T., "Ma'naviyat". 2011, 177-bet.

shunchaki emas, balki mazmun mohiyatini anglagan holda, uni ma'naviy olamimizga va qalbimizga singdirishimiz kerak. Yuqorida takidlangan davlatni barpo etishda o'ylaymanki, har bir o'zbek millati istaydi va o'z xissasini qo'shishga harakat qiladi. Shunday ekan quyidagi **taklif va tavsiyalarni** keltirib o'tishni joiz deb bilaman:

- Ommaviy axborot vositalari orqali milliy g'oya, ma'naviyat, madaniyat sohalariga oid tushunchalarni va chetdan kutilayotgan tahdidlarning mohiyatini tushuntirishni keng targ'ib qilish hamda teleko'rsatuvlar tayyorlash, ularni doimiyligini, aniqligini nazorat qilib borish;
- maktablarda yozma, kollej, litsey va oliy talim dargohlarida elektron kundalik daftarlarini tashkil etish orqali yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va uning sofliqi, davomiyligini nazorat qilish hamda bu orqali vaqtini bekorga sarf qilayotgan yoshlarga vaqt qadrini anglatish;
- mahallalarda milliy g'oya, manaviy tahdid va information xurujlar bo'ycha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boruvchi uchrashuvlar, tadbirlar tashkil etish orqali katta yoshdagi fuqarolarga milliy g'oyamizning mazmunini, tanlagan yo'limizning to'g'ri va insoniyligini tushuntirish. Bu orqali eski tuzumni qo'rsash holatlarini bartaraf etib, davlatimiz tanlagan yo'lga ishonch va etiqodni mustahkamlash, ikkilanishlarning oldini olish kabi takliflardan iborat.

II BOB. XX asr oxirida dunyodagi yangi geosiyosiy burilishlar.

2.1. Sovuq urushi xotimasi va AQSh geosiyosati.

Sovuq urushi davri tarixi 1945-1990 yillar tarixini o'z ichiga oladi. Bu davrdagi geosiyosiy voqealar dunyoning ikki qutbli bo'lishidan to bir qutbli dunyo bo'lib qolishigacha bo'lgan davrni bosib o'tdi. Ya'ni bu davrda «Sharq» va «G'arb» tushunchalari tarix va geografiya fanlarida bir xil ma'noni anglatmaydi. Geografiyada Sharq Quyosh chiqish tomonini, G'arb esa Quyosh botish tomonini anglatga, tarixda bu ikki tushuncha mutlaqo boshqa ma'no kasb etadi. Ayni paytda ular turli tarixiy davrlarda turlicha mazmunga ham ega bo'lgan.

Jumladan, ilk o'rta asrlar davrida tarixda «Sharq» termini dastlab noxristian olamga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik esa bu so'z dunyoning kuchli davlatlari tomonidan bosib olingan qaram ya'ni, mustamlaka hududlarga nisbatan qo'llanildi. 1945-1990 yillarida esa «Sharq» so'zi SSSR va uning ittifoqchilariga, «G'arb» so'zi esa AQSh va uning ittifoqchilariga nisbatan ishlatildi.

XXasrning 80-90-yillardan keyingi davrlarda «Sharq» so'zi iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslanmagan totalitar davlatlarga nisbatan, «G'arb» so'zi esa iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan demokratik davlatlarga nisbatan ishlatildi. Yer yuzida bugungi kunda 190 dan ortiq davlat bor. Mutaxassislarning fikricha, ulardan atigi 75 tasi iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan demokratik davlat hisoblanadi.⁴³

Sovuq urushi yillaridagi geosiyosiy voqealar ikki gegemon davlatlar AQSh va Sovet davlati o'rtasida kechgan edi. Ikki davlat o'rtasidagi siyosiy voqealar goh keskinlashib, goh yaxshi tomonga o'zgarib turgan. Xuddi mana shu davrlardan boshlab geosiyosiy qarashlar ancha rivoj topgan. Ya'ni shu davrdan boshlab dunyo geosiyosiy makonining siyosiy-iqtisodiy hamda ijtimoiy voqelikka aloqasining naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligi to'g'risidagi nazariyalar o'zining amaliy isbotini topa boshlagan edi. Jumladan, AQShning dunyo miqyosidagi va ayniqsa Markaziy Osiyodagi xalqaro munosabatlarida XX asrda vujudga kelgan Xalford Makkinder (1861-1947 y.y.), Alfred Mexen (1840-1914 y.y.), Nikolas Spaykmen

⁴³ Бжезинский З. «Великая шахматная доска». М-1999 161-бет.

(1893-1943 y.y.) kabi olimlarning geosiyosiy nazariyalari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu olimlar tomonidan AQSH Yevroosiyoda kuch va manfaatlar muvozanatini saqlash borasida faol tashqi siyosat olib borishi, bu mintaqa AQSH geostrategiyasining muhim ob'ekti ekanligi qayd etilgan.⁴⁴ Jahon sahnasidagi yuz beradigan har bir o'zgarish siyosatshunoslik sohasi hamda matbuot dunyosida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ladi. Bu bahslarda har bir olim yoxud siyosatchi, bo'lib o'tayotgan hodisaga o'z nuqtai nazaridan turib baho beradi va o'ziga xos yangicha talqin qilishga intiladi.

XX asrning eng achinarli voqeasi hisoblangan ikki jahon urushida ham AQSh katta foyda ko'rgan edi. Jumladan Birinchi Jahon urushi yillarida AQSh prezidenti V.Vilson 1916-yil oyida shunday nutq so'zlaydi: "Biz dunyoda katta rol o'ynashimiz mumkin. Siz bir faktning ahamiyatini e'tiborga olayotibsizmi, oxirgi bir yoki ikki yil ichida biz qarzdor davlatdan qarz beruvchi davlatga aylandik. Jahondagi ortiqcha oltinning shu qadar ko'p qismi bizning qo'limizdagi, ilgari hech qachon bunchalik oltinga ega bo'lmaganmiz. Shu vaqtdan boshlab bizning ishimiz qarz berish, katta xalqaro korxonalarga yordamlashish orqali butun jahonni talaygina miqdorda mablag' bilan ta'minlashimizga va uni o'z bilganimizcha va xoxlaganimizcha boshqara olishimizga to'g'ri kelmoqda".⁴⁵ Ayniqsa Ikkinchi jahon urushi AQShni iqtisodiy va harbiy jihatdan dunyoning eng qudratli davlatiga aylantirdi. Bunga, birinchidan, urushning AQSh hududiga daxl qilmaganligi uchun erishildi. Urush harakatlarida to'rt yilda 300 ming kishi halok bo'ldi. Natijada AQSh urushdan eng kam zarar bilan chiqdi. Uning to'g'ridan to'g'ri zarari 1,2 mlrd dollarni tashkil etdi. Bu ikkinchi jahon urushida ko'rilgan barcha zararining atigi 0,4 foizini tashkil etdi.

Ikkinchidan, fashistik davlatlar blokiga qarshi urushayotgan davlatlarga ko'plab miqdorda qurol-yarog' va boshqa sanoat hamda qishloq xo'jalik mahsulotlari sotish hisobiga erishildi.

Uchinchidan, chet davlatlar AQShdan 41 mlrd dollar miqdorida qarz bo'lib

⁴⁴Параманов В.В. Геостратегия США в Центральной Азии. Т. 2002й, 13-б.

⁴⁵ Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. Политические исследования. 1994. № 1. 157-бет

qoldi.⁴⁶ Bu kabi omillar dunyoning urushda ishtirok etgan yetakchi davlatlarning ko'pchiligining AQSHdan minnatdorchilik va qarzдорlik xissini qaror topishiga hamda o'z-o'zidan bu davlatning ta'sir doirasiga tushib qolishiga olib kelgan edi. Natijada dunyo oltin zaxirasining 65 foizi AQSH xazinalarida to'plandi. Dollar xalqaro savdo va iqtisodiy aloqalarda hukmron valutaga aylandi. 1947-yilda dunyo sanoat ishlab chiqarishining 54 foizi AQSH hissasiga to'g'ri keldi. Xalqaro savdoda yetakchi o'rinni egalladi. Flotining quvvati ham 5 baravar ortdi. AQSH dunyoning birinchi dengiz davlatiga aylandi.⁴⁷ Bu esa AQShni dunyo davlatlari orasida so'nggi qarorni qabul qilish darajasiga olib chiqqan edi.

Ikkinchi jahon urushi tugagandan keyin dunyoning mafkuraviy va siyosiy qarashlar jihatdan ikkiga bo'linishi geosiyosiy makonda yangi harbiy-siyosiy tashkilotlar paydo bo'ladi. Jumladan, NATO va Varshava shartnomalari shulardan eng asosiylari hisoblanadi. Xuddi shu ikki shartnoma tashkilotchilari tomonidan davlatlarni o'z tomoniga og'dirishga hamda o'z tarafdorlarini ko'paytirishga bo'lgan harakat asosida qurollanish poygasi avj olgan edi. Bu ittifoqlar tomonidan 1945 yilda eski mustamlakachi davlatlardan ozod bo'lgan yangi tashkil topayotgan davlatlarni o'z ta'sir doirasiga qo'shishga bo'lgan harakatlari ayniqsa achinarli tus oladi. Masalan, o'sha davrda "Yaqin sharq", Hindixitoy, Koreya, Hindiston va Pokiston davlatlarini tuzish masalasida SSSR va AQSh manfaatlari to'qnashgan nuqtaga aylangan. Bu esa bu masalalarni tinch hal etish omilini yo'qqa chiqishiga va minglab begunoh kishilarning umriga zomin bo'lishiga olib keldi.

Faylasuf Frensis Fukuyamaning shov-shuvli "Tarix oxiriga yetmadi?" asarida ham aynan shu savollarga javob qidiriladi. Fukuyama mashhur faylasuf Xegelning tarixga oid g'oyalaridan kelib chiqib, insoniyat abadiy barqaror rivojlanish bosqichiga yaqin turibdi, degan fikrni dadil ilgari surdi. Ham Bushning nutqini, ham Fukuyamaning asarini o'qigan inson ular o'rtasida o'xshashlikni payqashi tayin. Fukuyama o'z maqolasini Bushdan bir necha yil ilgari (1989) ilm ahli e'tiboriga havola etgan edi. Ushbu fakt Katta Bushning Fukuyama asarini "tasodifan" bo'lsada,

⁴⁶ Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. Политические исследования. 1994. № 1. 168-бет

⁴⁷ Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. Политические исследования. 1994. № 1. 168-бет

varaqlagani to'g'risida taxmin qilishga asos beradi. Nima bo'lganda ham, sovuq urush tugaganidan keyin bir necha yil maboynida turli hayratomuz taxminlar va fikrlar ko'plab tug'ildi. Ammo shubhasiz, "Yangi dunyo tartibi" g'oyasi ular orasida o'zgacha o'rin egalladi.⁴⁸

Olamda har bir narsaning jufti bor. Kun-tun, issiq-sovuq, oq-qora, musbat-manfiy, shimol-janub, shirin-achchiq va hokazo. Dunyoning yaralish va undagi o'zaro munosabatlar tabiatida bamisoli tarozining ikki pallasidek muvozanat mavjud. Tarixdan ma'lumki, dunyoda hamisha bir nechta siyosiy, iqtisodiy qutblar mavjud bo'lgan. Bu qutblar bir-biriga qarama-qarshi holda vujudga kelib, jahondagi umumiy geosiyosiy va geostrategik muvozanatni saqlagan. Ayniqsa qutubiy bo'linish "sovuq urush" davrida AQSH va sobiq ittifoq timsolida yaqqol ko'rinishga ega edi. Sobiq SSSR parokanda bo'lgach, dunyo yagona qutbli manzara kasb etdi. Shundan so'ng xalqaro munosabatlarda vujudga kelgan yangi siyosiy targ'ibot va qarashlar bir qutbli dunyo insoniyatning talab va ehtiyojlariga javob bera olmasligini ko'rsatdi. Jahon o'z tabiiy muvozanatini istay boshladi. Geosiyosiy plyuralizmga zarurat orta bordi. Ayniqsa, hozirgi geosiyosiy ta'sir, geostrategik maqsad va milliy manfaatlar uchun kurash kuchayib borayotgan bir sharoitda dunyo har qachongidan ko'ra ham ko'p qutbli tartibotga ehtiyoj seza boshladi. Biroq turli yo'llar juda katta siyosiy-iqtisodiy-moliyaviy ta'sir hokimiyatini qo'lga kiritgan Amerika zamonaviy globallashuv jarayonlarini o'z manfaati yo'lida gegemonlik siyosatiga aylantirishga urunmoqda. AQSHning yagona qutb sifatida vujudga kelish tarixiga nazar tashlar ekansiz – siyosiy o'yinlar, harbiy nayranglar, tajovuz va adolatsiz munosabatlarning kattagina to'plamiga duch kelasiz.

AQSH dunyoni urushlar yo'li bilan qayta taqsimlashni rad etib, jahonni o'z ta'siriga olishning o'ta zamonaviy yo'lini topdi va bu siyosat "dollar diplomatiyasi" deb ataldi. Bu ibora 1909-1913 yillarda AQSH prezidenti bo'lgan Govard Taft (1857-1930)ga tegishli. Bu siyosat asosan iqtisodi nochor bo'lgan Lotin Amerikasi davlatlarga nisbatan qo'llanila boshlandi. "Yordam berish" bahonasi bilan ularni o'ziga iqtisodiy-siyosiy qaram qilib olish maqsadi yotardi. Taft fikricha "dollar o'z

⁴⁸ «Yangi dunyo»: sarobmi yo haqiqiat. XXI asr. 2004y. 23 sentabr, payshanba

vazifasini bajarishi” lozim. Prezident bu gapi bilan, dunyoni urush bilan emas pul va iqtisod bilan qaram qilish lozimligini uqtirgan. “Dollar diplomatiyasi” xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti ustidan Amerikaning yirik banklari va kompaniyalari nazoratini oʻrnatishni ifoda etar va iqtisodiy ustunlik siyosiy ustunlikka olib kelishi kerak edi. Yoki bundan keyingi davrlarda “yoʻgʻon kaltak” siyosatida ham aynan AQSH manfaatlari koʻzda tutilgan edi. Shu oʻrinda 1912-1920 yillarda AQSh prezidenti lavozimida faoliyat yuritgan V. Vilson quyidagi fikri ham ayni Amerika geosiyosatining asl maqsadini oshkor etgan edi, u bunday deb yozgan edi: “Yangi davr arafasida turibmiz. Bu davrda biz amerikaliklar dunyoni boshqarishimiz kerak”.⁴⁹ Bunday siyosatning muvaffaqiyatini esa har qanday maʼnaviy-ahloqiy majburiyatlardan xoli, faqat oʻz manfaatini koʻzlovchi olchoqlikni taʼminlashi mumkinligini okean ortida juda tez anglab yetishdi.

Hozirda dunyoga xoʻjayinlik qilishga daʼvogarlik qilayotgan Amerika Qoʻshma Shtatlari, - deb yozgan edi, ikkinchi jahon urushidan soʻng oʻzining “Ruzvelt va global urush” kitobida nemis tarixchisi Zigfrid Fon Roksengburg, - urushda Germaniya va Rossiyani bir-biriga gij-gijlab, shu ikki davlatga nisbatan juda kam odamini yoʻqotdi. Ikkinchi jahon urushida qariyb 40 million piyoda askarlar, tankchilar, artilleriyachilar, uchuvchilar va dengizchilar halok boʻlishdi. Toʻrt yil global urush davomida Yaponiyaga qarshi shiddatli janglar va boshqa barcha frontlarda amerikaliklar bor-yoʻgʻi 300 mingga yaqin askarlaridan mahrum boʻlishdi. Hatto uzoq yillik tarixda oʻz qiyosiga ega boʻlmagan bunday vaziyat va qon toʻkmasdan dunyoga xoʻjayin boʻlib oldilar.⁵⁰

1991 yilda Sobiq ittifoq davlati qulab, Varshava sharnomasi habiy-siyosiy blok barham topgach, ikki qutbli dunyo tugadi. Shundan soʻng XXI asr AQSh asri boʻladi, degan bashoratlarda paydo boʻladi. Bir qarashda bunday yondashuvlar asoslidek tuyuldi, yaʼni bir vaqtlar V.Vilson qilgan bashorat toʻgʻri ekanligiga ishonuvchilar ham topilib qola boshlagan edi. Ammo bunday boʻlmadi. Chunki bir qutbli AQSh boshchiligidagi tartibot dunyo mamlakatlari koʻz oʻngida oʻz ahamiyatini yoʻqata

⁴⁹ Lafasov. M, Joʻrayev.U, Xoliqov.E Jahon tarixi. T., 2006, 52-bet

⁵⁰ Сафаев Ж. Янги кутблар – дунёда тинчлик ва табиий мувозанатни таъминлайди. Фидокор. 2005й. 20 октябр.

bordi. Zero, Sobiq ittifoq qulagach, AQSh uning ittifoqchilari nisbatan ularning ichki ishlariga majburan aralashish va o'zining yagona geosiyosiy kuch ekanligidan geopolitik maqsadlarini amalga oshirish vositasi sifatida foydalanishga harakat qiladi. Jumladan, Yaqin Sharq, Iroq va Afg'oniston muammolariga sovuqonlik bilan munosabatda bo'lishi hamda bu hududlar o'z geosiyosiy maqsadlarini amalga oshirishdagi yetakchi omil ekanligi kabi masala unga to'g'ri baholay olishiga xalaqit bergandi. Aksincha bu hududlar jinoyatchi va terrorchilar makoni degan g'oyaning AQSh tomonidan ilgari surilishi ahvolni battar chigallashtirib yubordi. Bunday munosabat natijasida, Yaqin Sharq muammosi bu yillarda yanada keskinlashdi. Afg'onistonda esa 1996 yilda tolibonlarning hokimyat tepasiga kelishiga va Iroq hududidagi qirg'inbarot urushga sababchi bo'ladi. Natijada AQShning bunday siyosati o'z boshiga ham balo bo'ldi. 2001-yil 11-sentabrda xalqaro terrorizm AQShda mudhish jinoyat sodir etdi. Terrorchilar o'zlari egallab olgan samolyotda Nyu-York shahrida joylashgan "Xalqaro savdo markazi" binosi vayron qildilar. Natijada minglab kishilar halok bo'ldi. Milliardlab dollarlik moddiy zarar yetkazildi.

Ikkinchi samoliyotda AQSh mudofaa vazirligi binosiga hujum qilindi. AQSh prezidenti qarorgohi – Oq uyga hujum qilishga yo'naltirilgan samolyot mo'ljalga yetib bora olmadi. Bu mudhish jinoyatni Al-Qoida xalqaro terrorchi tashkilot amalgam oshirgan edi. Bu tashkilot Afg'onistonda joylashgan bo'lib, AQSh 2001-yilning noyabr oyidan Afg'onistonda harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Afg'onistondagi tolibonlar hukumatini ag'darib tashlab, Hamid Karzayni prezident qilib sayladi va bu yerda o'z qurolli kuchlari nazoratini o'rnatdi. 2003-yil iyun oyida esa Iroqda Saddam Husayin diktaturasiga barham berdi. Bu bilan Yaqin Sharq neftining katta qismini qo'lga kiritdi.⁵¹ Ana shunday qilib, AQSh dunyo geosiyosiy vaziyatlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishni davom ettirdi. Bu kabi voqealar rivoji bir qutbli dunyo tartibotining yemrilishiga va ko'p qutbli dunyo mamlakatlarining rivojlanishiga olib keldi.

⁵¹Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. Политические исследования. 1994. № 1. 176-бет

Nima uchun AQSH Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalariga juda katta e'tibor qaratmoqda degan savol tug'ilishi mumkin. Chunki azaldan Afg'oniston davlati joylashgan mintqa harbiy va iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. AQSH hukumati o'tgan asrning 90-yillari boshida Afg'onistondan e'tiborni soqit qilish masalalari bilan bog'liq tadbirlardan so'ng, o'zi uchun jiddiy xulosalar chiqarib oldi. Biz undan keyin boshqa davlatlarning ekstremizm va terrorizm xomiylariga aylanishlariga aslo yo'l qo'ymasligimiz kerak. Buzg'unchi kuchlarning Markaziy Osiyoda ildiz qo'yishining oldini olgan holda, biz ushbu mintaqadagi barcha davlatlardagi vaziyatni barqarorlashtirish, xalq faravonligini oshirish, xalqaro hamjamiyatga to'liq integratsiyalanishi va global iqtisodiyotga qo'shilishi yo'lida yordam berishga tinmay harakat qilyapmiz. Mazkur mintqa mamlakatlari bilan nafaqat harbiy soha va terrorizmga qarshi kurashni kengaytirish, balki diplomatik aloqalarni rivojlantirib mamlakatlarda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni keng qamrovda olib borish, undan tashqari inson huquqlari masalalariga rioya qilish borasida BMT va YXHT singari nufuzli tashkilotlar oldidagi majburiyatlarga amal qilishlari yo'lida ular bilan izchil aloqalar o'rnatilgan. Ushbu mintqa mamlakatlaridagi havfsizlik, barqarorlik va taraqqiyot ko'p jihatdan demokratik va iqtisodiy isloxlarning jadal borishi, qonun ustuvorligini amalda tasdiqlash va mintqa muammolarini birgalikda hal etishga xamma vaqt tayyor ekanligimizni ta'kidlaganmiz. Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarida mustaqil OAV, siyosiy plyuralizmni rivojlantirish va fuqarolik jamiyatini barpo etish yuzasidan ko'maklashishni biz o'z oldimizga maqsad qilib qo'yg'anmiz. Bundan tashqari Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan energoresurslarga ega davlatlar hisoblanadi. Biz ushbu mintaqadagi energoresurslarni jahon bozorida eksport qilishlariga ko'mak berish niyatidamiz. Aynan yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, AQSH hukumati Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan uzoq muddatga mo'ljallangan keng qamrovli aloqalarni rivojlantirishni ma'lum qiladi.⁵²

⁵² Шукурзода М. АҚШ ва Марказий Осиё: ҳамкорлик стратегияси. 2002й. 14 декабр.

Ayrimlar AQSH mazkur mintaqada o'z harbiy bazalarini kuchaytirganidan beri bu yerda inson huquqlari masalalari yomonlashgan deb ta'kidlamodalar.

Markaziy Osiyoda inson huquqlari masalasi mavjud murakkabliklarga qaramay, bir qator demokratiya talablariga uyg'unlashmoqda. Lekin, bu mintaqadagi davlatlarning har birida o'ziga xos ko'rinishga ega. O'zbekistonda o'tgan yili inson huquqlarini himoya qiluvchi nohukumat tashkilot ro'yxatdan o'tkazildi. Bundan tashqari O'zbekiston Xalqaro Qizil Xoch qo'mitasi bilan hamkorlikni qayta o'rnatdi.

Amerikaliklar O'zbekistonning Markaziy Osiyoda, xususan, Yevroosiyoda tutgan o'rni va qanday ahamiyatga ega ekanligini yaxshi anglab olishdi. Buni biz Rossiyalik taniqli siyosatshunos olimi, Rossiya Federatsiyasining tashqi siyosati bo'yicha mutaxassis, siyosatshunoslik fanlari nomzodi Galina Maykovaning mamlakatimizning mintaqada tutgan o'ziga xos o'rniga batafsil to'xtalib aytgan ushbu fikrlaridan bilib olishimiz mumkin: "O'zbekiston Yevroosiyo o'rtasida ko'chmanchilik qilib yurgan Qozog'iston emas. U ichki ziddiyatlardan aziyat chekayotgan Afg'oniston ham emas (Bu ziddiyatlar Amerika tomonidan avj oldirilmoqda). O'zbekistonni, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston bilan ham taqqoslab bo'lmaydi. Albatta, bu davlatlarning har biri o'z o'rniga, obro'-e'tiboriga ega. Ularning har biri o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. SHunday bo'lsada, O'zbekiston nima bo'lganda ham har doim Markaziy Osiyoning, katta hisobda Yevroosiyo geopolitik madaniy sivilizatsiyasining yuragidir. Amerika Markaziy Osiyo mamlakatlari, Rossiya, Xitoy va bu hududga tutash boshqa davlatlar bilan munosabatlarini mustahkam yo'lga qo'yishni O'zbekistonsiz eplab bo'lmasligini juda yaxshi tushunadi. Bundan tashqari, Amerika O'zbekistonsiz mintaqada yaxlit havfsizlik tizimini yaratib bo'lmasligini yaxshi angelaydi. O'tgan vaqt shuni ko'rsatdiki, Toshkentni "jazolash" hech qanday samara bermaydi. Qolaversa, O'zbekiston ba'zi bir qo'shni davlatlarga o'xshab o'z nuqtai nazarini osonlikcha o'zgartirmaydi. O'zbekiston Andijon masalasi bilan bog'liq g'arbning tazyiqiga

qaramasdan, mintaqaviy va makromintaqaviy siyosatning markazida dadil turmoqda”.⁵³

Ma'lumki, ko'plab asarlari xususan, “Buyuk shaxmat doskasi” nomli asari bilan nom qozongan Bjenzinskiy O'zbekistonning Markaziy Osiyoda tutgan o'rniga juda katta baho bergan yirik siyosatshunoslardan biridir. Bundan 60 yil muqaddam, deb yozadi muallif, - britaniyalik mashxur tarixchi Arnold Toynbi “Tarixni o'rganish” asarida har qanday imperiyaning qulashiga davlat rahbarlarining halokatga olib boruvchi hatti-harakatlari sabab bo'lgan, deya xulosaga kelgandi, Jorj Bush faoliyatining tarixiy yakuni va Amerika kelajagiga nisbatan chiqarilgan hukm qanchalar achchiq bo'lmasin, dunyoni “Buyuk larzaga” solgan 2001 yil 11 sentabrdagi terrorchilik hujumlaridan keyin ana shunday bahoga loyiq.⁵⁴

So'nggi to'rt yil maboynida Bush komandasi jiddiy bo'lsada, ammo nazorat qilib bo'ladigan mintaqaviy xususiyatga ega tahdidni halokatli xalqaro mojaroga aylantirib, Amerikaning xalqaro maydondagi kafolatlangan yetakchiligini havfli tarzda izdan chiqardi, o'zining xaddan tashqari kuchli qudrati va boyligi tufayli Amerika yana ma'lum vaqt dimog'dor va tarixiy tajribalarga tayanmagan siyosatini yuritishi mumkin, albatta. Biroq ayni holat uning yakkalanib qolishiga mamlakat hududida qo'poruvchilar ko'lamining kuchayishiga xalqaro nufuziinnng barbod bo'lishiga olib kelishi mumkin, deydi Zbignev Bjezinskiy. Tayoq bilan “ari uyasi”ni to'zitib qo'yib, men o'z tanlagan yo'limdan qaytmayman deyish davlat rahbarinng o'ta noqobilligiga misol bo'la oladi. O'z maqolasi yakunida Z.Bjezinskiy Amerikaning bunday boshi berk ko'chadan chiqish yo'llarini ham ko'rsatib beradi. Siyosatchining ta'kidlashicha, buning uchun prezident mo'tadil va aqlli tashabbus – kongressdagi demokratik fraktsiya yetakchilarini havotirli bir vaziyatda “ikki partiyali” tashqi siyosat yo'nalishini ishlab chiqish jarayoniga jalb eta olish taklifi bilan chiqishi kerak.

⁵³ Бўронов Ю. «Сафарлар дипломатияси» ёки Вашингтоннинг Марказий Осиёга нигоҳи. XXI аср. 2005й. 20 октябр.

⁵⁴ Абдурахманов М. Америка фожеаси ёки З.Бженскийнинг «Америка ҳалокатга юз тутмоқда» мақоласидаги мулоҳазалардан қандай хулоса чиқариш мумкин. XXI аср. 2005й. 27 октябр.

Tarixdan ma'lumki, amerika tashqi siyosatida ikki xil qarash mavjud: internatsionalizm va izolyatsionizm.⁵⁵ Darhaqiqat, Bjezinskiy ta'kidlaganidek, imperiyaviy siyosat o'zidan boshqalarni mensimaslik odatlari og'ir oqibatlariga olib keladigan tarixiy haqiqatdir. SHumer va Akkad, Bobil, Misr, Yunoniston va Rim imperiyalari taqdiri yangi tarixdagi Napoleon va Gitler yurishlari, kommunistik blok va sobiq ittifoqning qulashi bunga yorqin misol bo'la oladi. Amerika demokratiyasining asoschilaridan biri Tomas Jefferson o'z davrida: "Hech bir mamlakat jahon afkor ommasini chinakam hurmat qilmasdan turib, o'z muammolarini yecha olmaydi" degan edi. Bugungi kun uchun ham ibratli bo'lgan bu xulosa ham O'zbekiston tashqi siyosatining tamoyillarining nechog'lik to'g'ri ekanligini ko'rsatadi.

Amerikaning ichki siyosiy tizimi va hududiy tuzilishiga to'xtalib o'tsak. Amerika Qo'shma SHTatlarida Oliy qonun chiqaruvchi organ Kongress – ikki palatadan iborat. Vakillar palatasi a'zolari shtatlar aholisi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish yo'li bilan ikki yillik muddatga saylanadi. Senat esa shtatlar vakillaridan iborat. Har bir shtat olti yillik muddatga ikkitadan senator saylaydi.⁵⁶

Amerika Qo'shma SHTatlari 50 shtat va Kolumbiya okrugidan tashkil topgan federativ davlat. Siyosiy tuzumga ko'ra prezidentlik boshqaruvidagi demokratik respublika. Poytaxti – Vashington. Er maydoni 9 363 123 kv.km. 274 milliondan ortiqroq aholiga ega. Ingliz tili davlat tili hisoblanadi. Asosiy siyosiy partiyalar – Respublikachilar va Demokratlar partiyasi. Parlament Senat va Vakillar palatasidan iborat. Hozir parlamentda ko'pchilikni Respublikachilar tashkil etadi. Oxirgi parlament saylovlari 2008 yil noyabrda, prezident saylovi 2008 yil noyabrda bo'lib o'tdi. Iqtisodiyoti – erkin bozor iqtisodi. Yalpi ichki mahsulot 9 256,2 mlrd. dollar; aholi jon boshiga 34 106 dollar; yillik o'sish 4,2 %.

«Ochiq dunyo» dasturiga AQSH Kongressi tomonidan 1999 yil mayda asos solingan. Maqsad, dastur ishtirokchilariga Qo'shma Shtatlar demokratiyasi va ochiq tadbirkorligini o'rganish, amalda sinab ko'rish imkoniyatini yaratish. Dastur

⁵⁵Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. Политические исследования. 1994, 82-бет

⁵⁶ Егамқулов Б. Қудратли давлат. Халқ сўзи. 2003й. 20 март.

millatidan qat'iy nazar mahalliy va regional darajadagi barcha yoshdagi ijtimoiy-siyosiy yetakchilarga mo'ljallangan. 2003 yildan buyon unda O'zbekiston ham ishtirok etib kelmoqda. Uning boshqa dasturlardan farqi shundaki, «Ochiq dunyo» AQSHda ilgari bo'lmagan va ingliz tilini bilmaganlar uchun xizmat qiladi.

Darhaqiqat, 2005 yilda Pentagon budjeti 444 milliard dollarga etdi va marhum prezident Ronald Reygan davridagi armiya sarf harajatlari bilan tenglashdi. Bu 2001 yilgi harbiy budjetdan 41 foiz ko'p demakdir.⁵⁷ 2001 yil 11 sentabrdagi terrordan so'ng Kongress Mudofaa vazirligiga so'ralganidan ko'proq mablag' ajratdi. Lekin ayni paytga kelib, «Militarist – kongressmenlar»da ham bunday siyosatning to'g'riligiga shubha tug'ildi va ular bir paytlar yillik budjeti 250 milliard dollardan oshmagan Pentagennig «Oltin asri» o'tmishiga aylanayotganini tushunib yetmoqdalar. Bugungi kunga kelib, Mudofaa vazirligi o'zlashtirishi qiyin bo'lgan bir nechta harbiy dasturni ishlab chiqishga buyurtma bergan. Hozirning o'zida turli bosqichlardagi dasturlarga 1,3 trillion dollar sarflangan bo'lib, ularning tugatilishi uchun yana 800 milliard dollar mablag' zarur.⁵⁸

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Barqarorlik va jo'g'rofiy-siyosiy muvozanat saqlanib qolgan sharoitdagina bu mintaqa jo'shqin va sobitqadam rivojlanadi, jahon hamjamiyati uchun munosib sherik bo'la oladi». ⁵⁹ Amerika tashqi siyosiy qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida AQSH Kongressi muhim rol o'ynaydi. AQSHning Markaziy Osiyodagi siyosatining mazmuni va tashkiliy sohalari Kongressdagi jiddiy va har tomonlama bahsli ob'ekti hisoblanadi.

1997 yildan buyon AQSH Kongressida Markaziy Osiyo muammolariga va Amerikaning bu muammolarga munosabatiga bag'ishlangan 20 dan ortiq eshitish bo'lib o'tdi. Kongressda «Buyuk ipak yo'li strategiyasi», «GUUAM davlatlariga yordam» to'g'risidagi qonun loyihalari faol muhokama qilindi.⁶⁰

⁵⁷ Пентагоннинг «Олтин асри» тугаяпти. XXIаср. 2005й. 15 декабр

⁵⁸ Пентагоннинг «Олтин асри» тугаяпти. XXIаср. 2005й. 15 декабр

⁵⁹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида хавфсизликка таҳдид; барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т. «Ўзбекистон» 1997й. 41 бет.

⁶⁰ Арипов Е.Т. Внешнеполитическое аспекты деятельности конгресса. США в контексте глобального развития. (на примере центральной Азии и Кавказа). Т. 2001г. 3 стр.

AQSH Kongressi Markaziy Osiyo bo'yicha muhim strategik loyixalar tashabbuskori bo'lmoqda. Jumladan, 1997 yil iyul oyida Senatning xalqaro munosabatlar qo'mitasida senator Sem Braunbek ma'muriyatning Markaziy Osiyodagi siyosatini tanqid qildi va mazkur mintaqaga nisbatan yagona siyosiy yo'lni ishlab chiqishni taklif qildi. U «AQSH Markaziy Osiyoda o'zining qudratini va yetakchi rolini faol namoyish qilishi va bu mamlakatlarga o'zlarining suvereniteti va mustaqilligini saqlab qolishda yordam berishi lozim»ligini ta'kidladi.

Qisqa qilib aytganda, bugungi kunda AQSH jahonda o'z gegemonligidagi yakka qutbli dunyo modelini yaratishga qaratilgan, oxir-oqibatda boshi berk ko'chaga kirib qolishi mumkin bo'lgan strategiyasini amalga oshirish barobarida boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlarda o'zgalarning milliy manfaatlarini inobatga olmasdan siyosat yuritayotgan bir vaqtda O'zbekiston rahbariyatining o'z mamlakati xududidan Amerikak harbiy kontingenti chiqib ketishini talab qilishga mavjud vaziyatda tutilgan eng to'g'ri yo'l va yagona to'g'ri qarordir.

SHu munosabat bilan muallif Qirg'iziston hukumati tutayotgan pozitsiya ko'plab savollar keltirib chiqarayotganiga e'tiborni qaratadi. Masalan, nima uchun Qirg'iziston hukumati dastlab SHHT mamlakatlari rahbarlari kengashida Markaziy Osiyo davlatlari xududidan AQSH harbiy bazalarining olib chiqib ketishi bilan bog'liq qarorga imzo chekib keyin ushbu fikridan qaytdi yoki nega O'zbekiston bilan ikki tomonlama kelishuvlar va Minsk konvensiyasiga qarshi borib, Andijon voqealari tufayli Qirg'iziston xududida noqonuniy ravishda o'tgan O'zbekiston fuqarolarining mahfiy ravishda boshqa davlatga olib chiqib ketilishiga yo'l qo'yib berdi.⁶¹ AQSH harbiy bazasining Qirg'izistonda qolishi va boshqa masalalarda unga nisbatan o'z moyilligini bildirish evaziga katta moddiy va moliyaviy xayriya yordamlari va'da qilinganligi inobatga olinsa, Q.Boqiyev hukumati faoliyatidagi bunday keskin burilishlar mohiyati o'z-o'zidan ayon bo'ladi deydi G.Maykova. Muallif o'zining yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga keladi:

⁶¹ Россия сиёсатшуносининг холис фикри – АҚШнинг Марказий Осиёдаги сиёсати моҳиятини тасфiri тушунишга ёрдам беради. XXI аср. 2005й. 25 август.

1. AQSHning umuman Yevroosiyo va Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan olib borayotgan siyosatida ma'lum bir inqiroziy holat yuzaga kelganligi sezilmoqda. Bu, eng avvalo, g'arb dunyosi hamda uning rahnamosi bo'lmish AQSH ilgari surayotgan strategik maqsadlarning asl mohiyati endilikda boshqalar uchun sir bo'lmay qolganligi bilan izohlanadi.
2. Andijon voqealaridan keyin "rangli inqilob"lar texnologiyasining barbod ekanligi amalda yangi sifat darajasidagi geosiyosatning boshlanayotganligi, ya'ni "demokratiya intervensiya" siyosatiga qarshi turish maqsadida bir qator davlatlarning yagona frontga birlashishiga intilayotganligidan dalolat beradi.
3. Bundan keyin Markaziy Osiyo mintaqaviy siyosatida Rossiya – O'zbekiston – Xitoy hamkorligi dominantasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

1996-1999 yillarda Markaziy Osiyodagi beshta davlatga «Ozodlikni» qo'llab-quvvatlash qonuni doirasida 730 mln dollardan ortiq mablag' ajratildi. Harbiy hamkorlik bo'yicha turli dasturlarni amalga oshirishda ham AQSH Kongressining roziligi zarur. Jahon xaritasida Markaziy Osiyoda yangi mustaqil davlatlarning vujudga kelishi bilan AQSHning mintaqada geosiyosiy manfaatlari paydo bo'ldi va bu boshqa yirik davlatlar manfaatlari bilan to'qnash keldi. Siyosatshunos Z.Bjezinskiyning ta'kidlashicha, AQSH Markaziy Osiyoda o'z ta'sirini saqlab qolish va kuchaytirish uchun barcha choralarni ko'rmoqda. Markaziy Osiyoga Rossiyaning intilishi AQSHni tashvishga sola boshlamoqda.

2.2. Dunyoda yangicha tartib uchun kurashning kuchayishi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin yirik davlatlar va ular bilan hamkorlikda bo'lgan davlatlarning geosiyosati haddan tashqari mafkuralashib, G'arb va Sharq dunyosi xalqlarida o'zaro dushmanlik va ishonchsizlik kayfiyatini kuchaytirib yubordi. Ayniqsa davlatlarni g'oyaviy yaqinliklar asosida birlashishiga olib keldi. Masalan, Yaponiya uzoq Sharqda joylashgan bo'lsa-da, "G'arb" davlatlari sirasiga kiritildi. Amerika qitasidagi Kuba davlati esa "Sharq" davlatlari guruhiga mansub deb takidlandi.

Siyosiy qarashi, turmush tarzi va iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga qarab jahon hamjamiyati uchta olamga bo'lindi:

- a) iqtisodiy jihatdan rivojlangan Yevropa, Shimoliy Amerika, shuningdek, Yaponiya va ayrim Osiyo mamlakatlari;
- b) SSSR, Sharqiy Yevropa mamlakatlari, Xitoy va Osiyodagi bazi mamlakatlar va Kuba;

v) iqtisodiy va siyosiy jihatdan ojizroq bo'lgan Lotin Amerikasi, Afrika, Osiyodagi bir qator davlatlar – bularni "uchunchi dunyo" mamlakatlari deb nomlash rasm bo'ldi.⁶² Natijada, xuddi mana shu uchunchi dunyoni bosib olish orqali u yerdagi tabiiy va inson resurslariga ega bo'lish niyatida AQSh va SSSR o'rtasida raqobat kuchayib ketishiga olib kelgan edi. Bu kurashda AQShning qo'li baland keldi va Sobiq ittifoq qulab, Varshava nomli harbiy-siyosiy blok barham topgach, ikki qutbli dunyo tugadi. Shundan so'ng XXI asr AQSh asri bo'ladi, degan bashoratlar paydo bo'ldi. Chunki amerikaliklarning moddiy, mafkuraviy, ruhiy va geosiyosiy imkoniyatlarining yuqoriligi bunday fikrlarni ilgari surishga olib keldi. Natijada amerikacha turmush tarsi afzalliklarini ko'z-ko'z qilishga yo'l qo'yib berildi. Ammo xilma-xil madaniyatlar olamidagi muammolarni biron-bir davlat boshqara olmasligi ayon bo'ldi. Shuning uchun ham XX asr Amerika asri bo'lgani va XXI asr ham shunday bo'lib qolishi to'g'risidagi g'oyalarning asosi puch edi. Chunki, birinchidan, XX asr also AQSh asri bo'lgan, deyish xatodir. Bu asr o'rtalarida SSSR degan

⁶² Karimov.I Noosfera, geosiyosat va mafkura. T., 2008. 82-bet.

imperiya AQShning ko'p masalalarda yon berishga majbur etgani tarixdan ma'lumdir. Asrning oxirgi choragidan boshlab, G'arbiy Yevropa davlatlari ham qaddini tiklab oldilar, Yaponiya, Xitoy kabi davlatlar jahon iqtisodi va siyosatida muhim o'rinni egallay boshlashdi. Bunday ko'rinishdagi harakat Xitoyning yuqori lavozimli amaldorlarining va davlat arboblarning harakatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Bunga misol qilib Tayvan muammosini keltirishimiz mumkin. Tayvan 1949-yilda Chan Kay Chi tomonidan g'arb kuchlariga hayrixoh guruhlariga boshpanaga aylantirilgandan beri Xitoy bilan doimiy kelishmovchilikda bo'lib kelmoqda. Tayvanning Xitoy tomonidan butunlay egallab olinmasligiga ko'pchilik tarixiy sabablar keltiriladi, lekin masalaga chuqurroq yondashsak uning asosan iqtisodiy ahamiyat kasb etishini darhol anglab yetamiz. Tayvanga Xitoy psevdo-mustaqil orol maqomini berish bilan shu hudud orqali chet mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni saqlab qolishga muvaffaq bo'ladi, huddi Gonkong va Makao shahar-davlatlari kabi.

Albatta Xitoyning mavjud pragmatik tashqi siyosatida uning yaqin tarixi ham muhim rol o'ynaydi. Azaldan bozor iqtisodiyotiga asoslangan, lekin ijtimoiy tizimlari kuchli bo'lgan Xitoy sivilizatsiyasini Kommunizm to'laligicha yemirib tashlay olmadi. Balki tarixiy iqtisodiy va ijtimoiy tizimni rasmiy tarzda yo'nalishlarga ajratib berdi. Madaniy inqilob va Mao Tse Dunning o'limidan so'ng, 1978-yillarga kelib Xitoy o'z ichki siyosatida kuchli burilish yasadi. Har bir provinsiyaga o'z o'zini boshqarish va iqtisodiy masalalarda chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun ular bilan to'g'ridan to'g'ri aloqa qilishga ruxsat berdi. Lekin mamlakatning siyosiy boshqaruvi va ijtimoiy tizimini hukumat o'z qo'lga olib, uni qa'tiyat bilan boshqarib keldi. Natijada Xitoy tarixda birinchi marta Bozor Iqtisodiyotini o'zida mujassam etgan Kommunistik hukumat tomonidan boshqariladigan birinchi Gibril mamlakatga aylandi. Aynan shu islohotlar amalga oshirilgandan beri Xitoy rivojlanishdan chekinganicha yo'q.

Jumladan Germaniya ham o'z siyosiy yo'lida tub burilish qildi. Konard Adenauer ikkinchi jahon urushi davrida Germaniyaning Yevropa va Jahon qudratli mamlakatlari bilan agressiv munosabat olib borishini befoyda ekanligini tushunib

yetdi. Kanslerlik lavozimiga kelishi bilanoq Adenauer Germaniyani sobiq dushmanlari bilan yarashtirishga kirishib ketdi. Bu Germaniya tashqi siyosatining o'ziga hos tus olishini birinchi bosqichi edi. 1951-yildayoq Germaniya Yevropa Kengashiga, 1955-yilda NATO tashkilotiga a'zo bo'lishini ta'minlaydi. Va nihoyat deyarli 100-yillik dushmani bo'lmish Fransiya bilan do'stlik shartnomalari 1963 yilga kelib tuziladi. Bir tomonda esa 2-jahon urushidan so'ng sharqiy Germaniya Sotsialistik bloki mamlakatlari doirasiga kiritilgan edi. Agar g'arbiy Germaniya G'arb mamlakatlari bilan aloqalarni yuqori cho'qqisiga yetkazgan bo'lsa sharqiy Germaniya sharqiy Sotsialistik mamlakatlar bilan eng qalin do'stlik munosabatlarini o'rnatadi. Buning oqibatida ikkiga bo'lingan Germaniyaning ikki tomonida bir biridan to'laqonli ajralmagan, lekin turli hil yo'nalishdagi jamiyatlar yuzaga keladi. Bu esa uning kelajakdagi tashqi siyosatida juda qo'l keldi, agar Xitoy o'zining Kommunist-Kapitalistik tizimi bilan iqtisodiy gibridd davlat bo'lgan bo'lsa, Germaniya o'zining sharq va g'arb mamlakatlari bilan o'rnatgan birday mustahkam aloqalari o'laroq siyosiy gibridd mamlakatga aylandi.

Ikkinchi bosqich 1989-yilda Berlin devorini qulashi va Germaniyaning birlashtirilishi bilan boshlandi. Endilikda g'arb mamlakatlari Sovet Ittifoqini qulashidan foydalangan holda sobiq Sovet mamlakatlariga to'g'ridan to'g'ri ko'z olaytirishni boshlaganda, Germaniya Sovet ittifoqining merosxo'ri bo'lmish Rossiya bilan ko'zga ko'rinarli iqtisodiy aloqalarni o'rnatishni boshladi. Bu esa XX asrning keyingi yillarida AQShning dunyodagi hodisalarni yakka-yolg'iz o'z nazoratiga olish imkoniyati cheklanib qoldi. To'g'ri, AQSh dunyodagi iqtisodiy va harbiy, siyosiy jihatdan eng qudratli davlat. Lekin bu degani amerikacha turmush tarzini maqtab, uni qabul qilish kerak degani emas. Chunki amerika erkinlik demokratiyasi, moddiy faravonlik g'oyalari ham aslida o'zgarayotgan hayotiga ta'sir etish hisobiga foyda orttirish iborat puch g'oya edi. Sobiq imperiyaning qulashi amerikacha modelning kamchiliklarini yuzaga qalqib chiqib qoldi. Chunki amerikalik siyosatchilar yarim asr davomida antikomunizmga qarshi kurash ostida o'zining asl maqsadlarini yashirib, niqoblab keldilar. Aynan shuning uchun g'oyaviy-siyosiy va mafkuraviy sohada paydo bo'lgan noaniqlik va maqsadsizlik bo'shlig'ini to'ldirish uchun yangi dushman

qidirish lozim bo`lib qoldi. Dastavval Yaponiya yomon otliqqa chiqarila boshlandi. Keyinroq esa qayta tiklanayotgan Rossiya, shuningdek, Xitoydan xavf-xatar borligi aytili. Shimoliy Koreya, Eron va Iroq xalqaro xavfsizlikka putur yetkazayotgani haqida dunyoga ovoza qilindi.

Bunday qarashlar asta-sekin rivojlanib borib, “Sovuq urush” o`rnini “Issiq urush” egallay boshladi. Ma`lumki, Afg`onistondan sobiq ittifoq qo`shinlari olib chiqib ketilgach, u yerda islom aqidaparastligi g`oyalaridan oziq olib shakillangan Tolibonlar deb atalgan harakat paydo bo`ldi. AQSh boshliq ittifoqchilar Tolibonlar deb atalgan harakatiga asosan barham berib, Afg`onistonda tinchliksevar davlat tartibotlari qaror topishi uchun yo`l ochdi. Bu bir tomondan, AQSh nufuzini oshirgan bo`lsa, ikkinchi tomondan Islom dunyosida unga qarshi harakatlarni kuchaytirib yubordi. Bu yillarda O`zbekiston ham AQSh tomonda turib, uni qo`llab-quvvatladi. Chunki, Afg`onistondagi voqealar O`zbekiston janubiy chegaralari uchun jiddiy xavf tug`dirayotgan edi.

Biroq AQSh siyosatchilari yangi dushman obrazi yaratish ishini yana davom ettirish orqali ichki barqarorlikka erishish yo`llarini davom ettirdilar. Navbatdagi nishon bu – Iroq davlati edi. Chunki o`sha yillarda mamlakat prezidenti Saddam Husain Yaqin Sharqda Amerika manfaatlariga zarar yetkazuvchi yo`ldan borayotgan edi. Xuddi mana shu xavfni oldini olish maqsadida AQSh siyosatchilari tomonidan Iroq ommaviy qirg`in qurollari ishlab chiqarishga kirishdi degan g`oyalar tarqatildi. Natijada Saddam Husain qiyofasida dushman obrazi yaratilib, mamlakat bombordimon qiladilar. Amerika boshliq ittifoqchilar Iroqni okkupatsiya qilish orqali o`zlari istagan jamiyatni quradilar.

Yuqoridagi voqealar rivojida musulmon olamida AQShning mavqei mutahkamlanadi, ammo shu bilan birga uning obro`si ham tushib borishiga sababchi bo`ladi. Bu boradagi fikrlarni S. Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to`q-nashuvi” nomli ilmiy, geosiyosiy mulohazalarga boy bo`lgan asaridan ham bilib olishimiz mumkin. 1993-yildan beri Amerikaning Garvard Universiteti professori Samuel Xantington o`zining “Sivilizatsiyalar to`qnashuv”i haqidagi ilmiy ishlarini himoya

qilib keladi.⁶³ Uning fikricha, biz mafkuralarga asoslangan ikkiqutblik dunyodan Sivilizatsiyalarga asoslangan ko'p qutblik dunyoga o'tganmiz va bundan keyingi dunyodagi bo'lib o'tadigan to'qnashuvlar ana shu sivilizatsiyalarning bir-biri bilan to'qnashishi va raqobati asosida kelib chiqadi. Ko'pchilik izlanuvchi va olimlar bu fikrni xatoligi bilan bir paytda insoniyat uchun juda havfli ekanligini ta'kidlashlariga qaramay hozirgacha bu ilmiy qarash dunyo ommasi tomonidan qiziqish bilan kuzatib kelinmoqda. Chunki dunyo mamlakatlari orasidagi iqtisodiy va siyosiy tengsizlik ularning ommasida radikal qarashlarni shakllantirib, har bir millatda natsionalizmni kuchayishiga olib keldi. Yevropa va g'arbning rivojlangan davlatlari jamiyatlarida radikal o'ng partiyalarning hokimiyatga chiqishini kuzatgan bo'lsak rivojlanayotgan va kambag'al mamlakatlar jamiyatlarida diniy yoki milliy o'zlikni radikal tarzda himoyalash va boshqalarninkidan ustun qo'yishni kuzatamiz. Agar XX asr ideologiyalar asri bo'lgan bo'lsa, XXI asr milliylik va har bir xalqni o'z o'zligiga (identichnost) ulkan e'tibor qaratish bilan boshlandi. XX asrda bir tuzum ostida hech qanday to'qnashuvsiz yashayotgan davlatlar XXI asrga kelib umumiy tegishlilikni emas balki har qaysisi o'zining alohida o'zligini talab qila boshladi. Ayniqsa bu holat Musulmon mamlakatlarida radikal-islomizmni kuchaytirishga sabab bo'ldi.

Islom dunyosi boshqa sivilizatsiyalarga qaraganda XX – XXI asrlarda eng o'zini xo'rlangan his qilgan jamiyat bo'ldi desak xato bo'lmaydi, oxirgi Islom mamlakatlarning XX asr boshida G'arb mamlakatlari va Rossiya Imperiyasi tomonidan bosib olinishi, keyichalik esa parchalanib yuborilishi musulmonlarda o'ta kuchli alamzadalikni keltirib chiqardi. Bir paytlar dunyo madaniyati va ilm-fanida boshlovchilik qilgan Islom - ya'ni shu tizimning saqlovchisi bo'lmish Xalifalik butunlay yer yuzidan yo'q qilindi. Turkiyaning o'zini dunyoviy mamlakat deb e'lon qilishi va islomiy tizimni qattiq qoralashi, Arablar orasida natsionalizmni kuchayishi, Yaqin sharqda Isroilga asos solinishi, butun musulmon olamining iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda orqada qolishi va nihoyat Islom dunyosini o'zida aks ettiruvchi qudratli mamlakatning yo'qligi Radikal-Islomizmni dunyoga kelishini ta'minlagan bo'lsa, AQSHning Afg'onistondagi Sovet ittifoqi qo'shinlarini yakson qilish uchun

⁶³ Internet ma'lumoti: geopolitika.uz

"Muqaddas Jihod" metodini qo'llab Musulmonlardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishi Islomdagi radikalizmni portlashiga olib keldi. Agar Musulmonlar Sovet Ittifoqiga qarshi kurashish uchun butun Islom olamidan yig'ilib jang qilgan bo'lsalar maqsad Sovet Ittifoqiga qarshi jang qilish emas, balki butun Musulmon bo'lmaganlarga ya'ni - Kofirlarga qarshi kurashish bo'lgan edi. Ularning ideologik kuchini e'tiborsizlikka olgan AQSH esa bugungi kunda o'zi yaratgan dushmanini bahosini to'lashda davom etmoqda. Lekin Musulmon olami ham ko'rinmas tarzda ijtimoiy bo'laklarga bo'linib ketgan. Afg'onistonda Muqaddas Jihodda qatnashayotgan musulmonlar orasidan Quvaytlik yoki Qatarliklarni topish qiyin ish bo'lsa kerak. Ular asosan kambag'al musulmon jamiyatlaridan ko'ngilli bo'lib kelgan bo'lib, Islom ular uchun nafaqat diniy ideologiya balki, ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurashdagi o'z sabablariga ega ideologiyadir. Ko'pchiligimiz chetdan qaraganda bu urushga diniy tus berishimiz tayin, lekin ohxrgi sotsiologik tadqiqotlarga ko'ra, Islom dini dunyoda itqitib tashlangan jamiyatlar va guruhlar uchun boshpana vazifasini o'tamoqda. G'arb dunyosi shaharlarining eng kambag'allashgan hududlarida va qamoqxonalarida Islomning tobora yoyilib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Demak Islom ana shu ijtimoiy tengsizlikdan aziyat chekkan kishilar guruhini shu tengsizlikka qarshi kurashish yo'lidagi asosiy quroliga aylangan. Hozirgi G'arb va Radikal-Islomizm o'rtasidagi to'qnashuv esa boy sinf va kambag'al sinf to'qnashuviga o'xshab ketadi. Dunyo mamlakatlari orasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik va jamiyatlardagi ijtimoiy hayot bilan yangi texnologiyalar rivojlanishini bir maromda olib borilmaganliklari bu "qo'zg'olonning" asosiy sababidir. Bu iqtisodiy-ijtimoiy jarlik qoplanmas ekan radikalizm kuchayishda davom etaveradi. Aynan mana shu mavzuga sivilizatsiyalar muammosi deya tarif bergan Samuel Xantingtonning Sivilizatsiyalar To'qnashuvi nazariyasi qanchalik darajada haqiqatga yaqin. Bu albatta hozirgacha bahsli munozara bo'lib qolmoqda.

Rossiyaning MDH davlatlari manfaatlariga mos ravishda tashqi siyosat olib borishiga ta'sir qiluvchi ikki xil omil mavjud. Biri sobiq sho'rolar tizimidan qolgan va Yelsin davrida yanada murakkablashgan ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi ichki muammolar bo'lsa, ikkinchisi G'arbning Rossiyani parchalab tashlashni ko'zda

tutgan intilishlari bilan bog'liq. Bu holat ikki xil ziddiy harakatlarning kelib chiqishi o'ta dolzarb muammolarga olib kelishi ham tarixdan ma'lum bo'lgan bo'lingan dunyoni yanada murakkab va ziddiyatli qismlarga ajralib ketish jarayonini tezlashuviga olib kelishi tabiiy bo'lib qoldi. Bir tomondan G'arb geosiyosiy kuchlari Rossiyaning mayda qismlarga ajratish orqali azaldan qadimiy shior bo'lib kelgan "bo'lib tashla va hukmronlik qil" tamoyilini amalga oshirish va geosiyosiy makonni nazorat qilish hamda bu makondan o'z manfaatlari yo'lida foydalanish kabi geopolitik maqsadni ko'zlagani aniq. Ikkinchi tomondan esa Rossiya o'z siyosiy ittifoqini saqlab qolish, uni yanada mustahkamlash, kuchaytirish va albatta geosiyosiy makondagi o'rni va rolini yo'qotib qo'ymaslik maqsadini ko'zlagani ham geosiyosiy jarayon ishtirokchilariga ayon. Bu kabi ikki xil maqsad, albatta geosiyosiy makondagi muvozanatni o'zgarishiga va beqarorlikka olib kelishi haqidagi geosiyosiy nazariya amaliyotda o'z tasdiqini topganiga tarixning o'zi guvohdir.

Davlatimiz rahbari I.Karimovning dunyoga mashhur "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" kitobida "Bu yorug' olamda biz kimmiz va ne bir sir-sinoatmiz, qayoqqa qarab ketyapmiz. Insoniyat yangi XXI asrga qadam qo'yganda bizning o'rnimiz qayerda va qanday bo'ladi?" - degan savollari bevosita yurtdoshlarimizga qarata aytilayotgan bo'lsada bu murakkab savollar bugungi kunga kelib butun bashariyat ahlini o'ylantirmoqda va qiynamoqda.

Global muammolar bilan birga geosiyosiy muvozanat va manzaraning o'zgarib borishi mamlakat milliy havfsizligini ta'minlash, davlat suverenitetini mustahkamlash, iqtisodiy va harbiy salohiyatni kuchaytirish, jamiyatda siyosiy barqarorlikni muhim ushlab turish kabi strategik vazifalarda izchil va qat'iy siyosatni talab qilmoqda. O'zbekiston tashqi siyosatda tanlagan yo'l o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lishi bilan bir qatorda eng avvalo xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalariga sodiqlik xalqaro va ikki tomonlama imzolangan hujjatlarda o'zaro manfaatlarni hisobga olgan holda milliy manfaatlarimizning ustunligini ta'minlash asosiy o'rin tutadi.

Milliy manfaatlarni belgilashda yana bir nozik masala borki, u davlatning harbiy-iqtisodiy va siyosiy qudratidan kelib chiqadi. Tarixda ham, bugun ham ba'zi

qudratli davlatlar dunyoning istalgan bir mintaqasini "bizning milliy manfaatlarimiz ta'siri doirasida" deb e'lon qilishgan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo tarixan dunyoning ko'pgina yirik davlatlari ko'z tikkan mintaqa hisoblanib boyliklari geosiyosiy tajovuzlarga nishon bo'lgan. 90-yillarning birinchi yarmida dunyodagi va mintaqadagi siyosiy va geosiyosiy manzara hozirgidan farqli o'laroq tamoman boshqacha ko'rinishda edi. Afg'oniston va Tojikistondagi qurolli mojarolar, ayni sharoitda mamlakatimiz mudofa qudratini oshirish va milliy havfsizlikni hamda xalqimiz tinch-osuda hayotini ko'z qorachig'iday asrash - asosiy milliy manfaat sifatida maydonga chiqqan edi. Tajribadan ma'lumki har qanday mamlakatning harbiy-mudofa qudrati uning iqtisodiy, siyosiy va ilmiy intellektual imkoniyatlari va darajasidan hosil bo'ladi. Demak, milliy manfaatlarni himoya qilish vositalariga bir-biriga chambarchas bog'lanib ketganligining guvoxi bo'lamiz. Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan O'zbekistonning dunyoga geosiyosati kontekstida tutgan o'rnini haqida gapirganimizda, eng avvalo mamlakatimizning mintaqadagi tinchlik, barqarorlik va havfsizlikning garovi sifatida sa'y-harakatlari va izchil siyosati ko'z oldimizda gavdalanadi.

Markaziy Osiyodagi hodisalar butun dunyo e'tiborini mazkur hududga qaratganini alohida ta'kidlash joiz. Avvalo, Qirg'izistondagi «Demokratiya tantanasi» deya baholangan to'polonlar oqibatida sodir etilgan xukumat almashinuvi aslida xalq uchun hech nima bermadi. Mamlakatda Janub va SHimol qarama-qarshiligi Akayev davridagidan ham keskin bo'lib turibdi. Andijondagi voqealar esa o'zi Islom radikalizmidan aziyat chekayotgan g'arbdagi kuchlarni o'z maqsad muddaolarini amalga oshirishda terrorchilar bilan ham til biriktira olishi mumkinligini ko'rsatdi. Mintaqa uchun juda katta saboq bo'lgan bu voqealar umuminsoniy qadriyat hisoblangan demokratiya va inson huquqlari ulkan siyosiy maqsadlarga niqob bo'lishini yana bir karra isbotladi. Yanada achinarlisi shundaki, begunoh odamlarning qoni to'kilishiga sababchilar o'zlarini chetga olib, mamlakatda mintaqada barqarorlikni saqlab qolgan hukumatga qarshi «xalqaro hamjamiyat» turli nayranglar ishlatishda davom etmoqda.⁶⁴

⁶⁴ Ералийев Ш. Кимга тўй, кимга аза. XXI аср 2005 йил 29 декабр

Darhaqiqat, deyarli yarim asr davomida antikomunizm AQSh ning nafaqat tashqi strategiyasi, balki ichki siyosiy kurashlarida ham yetakchi g'oya bo'ldi. "Sovuq urush" tugagach, Amerika jamoatchiligi e'tiborini tortib kelgan maqsadlar qolmagach, uning o'rnida bo'shliq va noaniqlik holati paydo bo'ldi. Zero, antikomunizm erk va demokratiya to'g'risidagi amerikacha qadriyatlarni qaror toptirish uchun qo'l kelar edi. Ikkinchi jahon urushiga qadar Yevropa jahon siyosatining eng muhim markazi hisoblanib kelinardi. Biroq urushdan bu hudud nihoyatda kuchsizlanib chiqdi. Keyin esa dastlabki o'n yillik AQSh va SSSR o'rtasidagi raqobatchilik maydoniga aylandi. Ammo keyingi yillarda Yevropa davlatlari o'zini tobora o'zini rostlab va kuchayib bormoqda. Buni biz bugungi kundagi Yevropa Ittifoqi atrofida davlatlarning birlikda harakat qilayotganida ham ko'rish mumkin. Jumladan, Fransiya Tashqi ishlar vaziri F. Dyuma Yevropa bemorligi va uning quyoshi so'nayotgani haqidagi g'oyalarga qarshi shunday degan edi: "AQShning "qo'pol va noaniq" modeliga nisbatan Yevropa modeli yuzaga keladigan muammolarni hal etishda o'z ustuvorligiga egadir. Va bunday ruhiy tushkunlikka asos yo'q" deb takidlaydi.⁶⁵ Darhaqiqat, Yevropaliklar o'zlariga xos tafakkur va turmush tarzini saqlab qolgan holda, hozirgi olamda o'zining muhim o'rniga ega bo'lib oldi. Yevropa xalqlari tarixiy taqdiri, qadriyatlar tizimi, moddiy meros va boshqalardagi umumiylik ularni birlashib harakat qilishlarini osonlashtirgan edi. Shuning oqibatida Yevropa Ittifoqi yuzaga kelib, unga kirayotgan davlatlar soni yildan-yilga oshib borib, hududiy jihatdan kengayib borishiga olib kelmoqda. Mondializmda eng mashhur tadqiqotlardan biri – bu Djons Xopkins Universiteti professori Frensis Fukuyamaning "Tarix intihosi" nazariyasidir⁶⁶. Ko'pchilik olimlar, davlat arboblari, geosiyosatchi mutaxassislar fikricha, G'arb atlantizmining g'alabasi va sobiq sho'ro davlatining qulashi mondialistik loyihalarning barham topishi yohud mantiqan o'zgarishiga olib kelishi kerak edi. 1990 yillarning boshida mondializmning yangi ko'rinishi sifatida F.Fukuyamaning "Tarix intihosi" maqolasi asosida ishlab chiqilgan doktrina paydo bo'ldi. Jiddiy shov-shuvlarga sabab bo'lgan

⁶⁵ Karimov.I Noosfera, geosiyosat va mafkura. T., 2008 . 93-bet.

⁶⁶ Фукуяма.Ф. Конец истории и последний человек. Перевод с английского М.Б.Левина. Публикуеца по изданию.-М.:ООО "Издательство АСТ", 2004.

ushbu maqolada ilgari surilgan g'oya siyosatchilar va boshqa ko'plab tanikli mutaxassislar tomonidan neomondializmning g'oyaviy bazasi sifatida talqin qilina boshlandi.

F.Fukuyamaning nazariyasiga yaqin fikrlar yevropalik olimlar asarlarida ham uchratish mumkin. CHunonchi, uzoq vaqt davomida Fransiya prezidenti Fransua Mitteranning maslahatchisi hamda bir oz vaqt Yevropa Tiklanish va taraqqiyot banki direktori lavozimida ishlagan J.Attali "Gorizont chizig'i" kitobida shunga o'xshash nazariyani ilgari surgan.

J.Attalining fikricha, hozirgi vaqtda taraqqiyotning uchinchi davri - qadriyatlarning universal ekvivalenti bo'lgan "pul davri" boshlangan. Uning nazarida, jahonda yagona liberal-demokratik mafkura, bozor tizimi va informatsion texnologiyalarning rivojlanishi tufayli dunyoda yangi manzara vujudga keladi, butun tarixiy taraqqiyot davomida hukmronlik qilgan geosiyosiy voqeliklar ahamiyati susayadi. Bu hol G'arb va SHarq o'rtasidagi ziddiyatni ifoda etgan geosiyosiy dualizmning bartaraf etilishiga sabab bo'ladi.

SHu bilan birga, yaxlit umumdunyoviy tizim "geoiqtisodiyot" tamoyillariga asoslangan yangi geosiyosiy voqelikka aylanadi. Ta'kidlash joizki, "Geoiqtisodiyot" mondialistik geosiyosatning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, u geosiyosiy yondashuvning mazmun-mohiyatini ifoda etuvchi Jo'g'rofiy, madaniy, mafkuraviy, etnik, diniy va boshqa xususiyatlarni emas, asosan iqtisodiy omilning hududga munosabatini ustuvor omil sifatida tan oladi. "Geoiqtisodiyot" uchun alohida shaxsning yashash tarzi, takomili, madaniy qadriyatlari va an'analarini e'tiborga olmaydi. U voqelikni yirik ishlab chiqarish, axborot markazlari, foydali qazilmalar va jahon birjalari markazlari bilan bog'liq holda talqin etadi. J.Attalining geoiqtisodiy yondashuvi "yagona dunyo"da quyidagi yangi iqtisodiy markazlar bo'lishi mumkinligini asoslaydi:

- Janubiy va SHimoliy Amerikani birlashtirgan yagona moliyaviy-sanoat hududi;
- Iqtisodiy integratsiyalashuv natijasida paydo bo'lgan Yevropa hududi;
- Yaponiya, Tayvan, Singapur kabi bir qancha raqobatchi markazlarni o'z ichiga olgan "yangicha taraqqiyot" zonasi - Tinch okeani mintaqasi hududi.

J.Attali bu uch mondialistik hudud bir-biri bilan iqtisodiy va mafkuraviy jihatdan uzviy bog'liq bo'lgani bois, ular o'rtasida jiddiy farq yoki qarama-qarshilik vujudga kelmaydi, deb ta'kidlaydi. Bu hududlar jo'g'rofiy joylashuv jihatidagina farqlanib, atrofidagi rivojlanmagan mintaqalarni uzviy bir tizimga tarzida birlashtiradi. SHu tariqa Yer yuzida mavjud bo'lgan geosiyosiy qarama-qarshilik barham topadi. G'arbga qarshi tura oladigan qutbning mavjud emasligi Yevroosiyoda yangicha yondashuvlarni joriy etish jarayonini tezlashtiradi. J.Attalining ta'kidlashicha, bu geoiqtisodiyot davrining boshlanishidan dalolat beradi.

Urushdan keyingi o'n yillikda ham Yevropa davlatlari AQSh geosiyosatining oddiy yugurdagi bo'lishdan o'zlarini saqlab keldilar. Keyingi 20-30 yilliklarda ular iqtisodiy va ijtimoiy-texnik salohiyatlarini oshirdilar va birlashuvchilik jarayonini chuqurlashtirdilar. Natijada Yevropa xalqaro maydonda o'z mustaqil o'rni va so'ziga ega bo'lib qoldi. Buni AQSh Angliya bilan birga Iroqqa qarshi jazo urushini ochganligida yaqqol ko'rish mumkin bo'ldi. Fransiya va Germaniya kabi yirik davlatlar AQShning bu siyosatiga qo'shilmadilar. Kelajakda Yevropa iqtisodiy, texnologik, xavfsizlik va boshqa masalalarda xalqaro maydonda o'z manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan mustaqil siyosat olib borish imkoniyatiga ega bo'lib qoldi. Endilikda Yevropaning yangitdan tug'ilishi Yevropacha o'ziga xoslik, Yevropacha yangi dinamizm, Yevropa Qo'shma Shtatlarini vujudga keltirish haqida turli g'oyalar paydo bo'lmoqda. Bu yo'lga dastlabki qadamlar qo'yilmoqda, istiqbolda ushbu odimlar izchilligini taminlashga shart-sharoit yetarli degan fikrga shubha qilmasa ham bo'ladi.

2.3. Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy jarayonlar va unda

O'zbekistonning tutgan o'рни.

O'tmishda Turonzamin – Movaraunnahr – Turkiston – O'rta Osiyo va Qozog'iston, hozirda esa Markaziy Osiyo deb nom olgan bu ulkan hududda beshta mustaqil davlat mavjud bo'lib, ular O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlaridir. Ularning hududi 4,4 mln kv. km aholisi 55 mln dan ortiqdir.⁶⁷ Bu davlatlarda yuzdan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilmoqda. Ularning dini, tili, dili, suvi, havosi bir va eri tutash, madaniyati, urf-odatlar, an'analari bir-biriga yaqin. Ular nafaqat qo'shni balki qon qardosh bo'lib ketgan.

Markaziy Osiyo kuchli iqtisodiy potentsialga ega bo'lgan mintaq. Katta miqdorda ishchi kuchi, suv-energetika, transport-kommunikatsiyasi va yer resurslariga, tabiiy boylikka ega bo'lgan, SHarq bilan G'arbni bog'lovchi "Buyuk Ipak yo'li" ustida joylashgan va geostrategik jihatdan katta qulaylikka ega bo'lgan bu mintaq dunyodagi rivojlangan davlatlarning diqqatini o'ziga tortmoqda. Katta boylikka ega bo'lgan bu mintaqada diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm havfi kuchayib bormoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari orasida aholisining soni, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va intellektual salohiyati jihatidan, hamda mintaq havfsizligini ta'minlash, diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash jihatidan O'zbekiston yetakchi o'rinni egallaydi.⁶⁸ Yevrosiyaning dunyo geosiyosat sahnidagi o'рни va imkoniyatlari muammolarini talqin etganda, eng avvalo, uning jug'rofiy va tarixiy xususiyatlarini hisobga olmoq kerak. Markaziy Osiyo mintaqasi jug'rofiy va tarixiy xususiyatlari ma'lum bir ma'noda shartli ravishda ikki geosiyosiy o'lchamga ega:

Birinchisi - O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston, Eron, Pokiston, Afg'oniston, Xitoyning shimoliy hududlari va Mo'g'ilistonni o'z ichiga oladigan makroregion;⁶⁹

⁶⁷ Абдуллаев О.Б, Нуруллаева Н. Ўзбекистон – Марказий Осиёда тинчлик таянчи. Илм сарчашмалари. 2002й. 2-сон. 26-27 бетлар.

⁶⁸ Марказий Осиё: кеча, бугун, эртага. Ишонч. 2001й. 29 декабр

⁶⁹ Шмелев Н, Курдов В, Россия и страны Центральной Азии в контексте экономического сотрудничества в СНГ. Российский Экономический журнал. 1996. № 10.-66-73 с.

Ikkinchisi - tor ma'noda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikistonni o'z ichiga oladigan subregiondan iborat bo'lgan hudud kabi ikki xil o'lchamga ega.

Hozirgi zamonda globallashuv jarayoni Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-madaniy, axborot-mafkuraviy, siyosiy va iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini qamrab olmoqda. Markaziy Osiyoning madaniy-tamadduniy xususiyati uning geografik joylashuvi bilan qo'shilib, Yevroosiyo maydonida uning alohida geosiyosiy maqomga ega qiladi. Chunki bu mintaqada yadro quroliga ega 4 ta davlat – Rossiya, Xitoy, Hindiston, Pokiston bor hamda johonning kuchli markazlari manfaatlari qorishib ketganligini ko'rsatadi. Giyoxvand moddalar va qurol-yarog'larni noqonuniy yo'llar bilan olib o'tish va sotish nafaqat Markaziy Osiyo balki butun dunyo havfsizligiga jiddiy taxdid solmoqda.

Afg'onistonda birodarkushlik urushlari 23 yildan ortiq davom etdi. Bu mamlakat xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm markaziga aylangan edi. Bundan tashqari insoniyat uchun katta havf bo'lgan giyohvand moddalar yetishtirilardi. Dunyoda yetishtirilgan giyohvand moddaning 70 foizi Afg'onistonda yetishtiriladi. Bu zaxarli moddani O'rta Osiyo orqali dunyoga tarqatishga harakat qilinilgan. O'zbekiston bunga qarshi keskin kurash olib borayapti. Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni qaror toptirish havfsizlikni ta'minlash O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. SHuning uchun ham Prezidentimiz I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-50 sessiyalari va "Ming yillik" sammitida so'zlagan nutqida ilgari surilgan "Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash", "Mintaqani yadro qurollaridan xoli zonaga aylantirish", "Fuqarolar urushi olovida yonayotgan qo'shni Afg'onistonga qurol-yarog' yetkazib berishni to'xtatish", "Mintaqalar havfsizligini barqaror etish orqali dunyo tinchligini ta'minlash", "Xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi hamkorlikda kurashish" kabi muhim takliflari xalqaro jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlandi.⁷⁰ Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Havfsizlik uzluksiz holatdir, xad hududsizdir".

⁷⁰ «Терроризмга қарши курашда бирдам бўлайлик». Олий Мажлиснинг Ўзбекистон халқига Мурожаати. Хоразм ҳақиқати. 2001й. 8 декабр

O'zbekistonda havfsizlikni ta'minlash uchun albatta mintaqa havfsiz bo'lishi, mintaqada havfsizlik bo'lishi uchun, dunyo havfsiz bo'lishi kerak. Ya'ni Prezidentimiz havfsizlik masalasiga bir mamlakat doirasida emas balki jahon aspektida yondashmoqda. Ko'p yillar davomida cho'zilib ketgan Afg'on muammosining hal bo'layotganligi dunyodagi etakchi davlatlar va xalqaro tashkilotlarning sa'y-harakatlari natijasi deb qarash lozim. Bu harakatda O'zbekiston ham faol ishtirok qildi. O'zbekiston Afg'on muammosini hal qilish uchun xalqaro maydonda va mintaqada o'ziga bog'liq bo'lgan barcha chora-tadbirlarni amalga oshirdi va oshirmoqda.

1997 yilda O'zbekistonning tashabbusi bilan, Afg'oniston muammosini hal qilish bo'yicha 6+2 guruhi tuzilgan edi. Bu Afg'oniston bilan chegaradosh 6 ta davlat (Eron, Pokiston, Xitoy, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston) hamda Rossiya va AQSH.⁷¹ Bu davlatlarning 3 tasi BMT havfsizlik kengashining doimiy a'zosi (Xitoy, Rossiya, AQSH). Bu davlatlar vakillari bir necha marta uchrashib mazkur masala yuzasidan muzokaralar o'tkazdilar. Nuqtai-nazarlari turlicha bo'lishidan qat'iy nazar bu davlatlar Afg'onistonda tinchlik o'rnatishni yoqlab chiqdilar. 1999 yil 19 iyulda Toshkentda 6+2 guruxining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda mamlakatimiz rahbari "Tinchlik va barqarorlik – mintaqamiz taraqqiyotining bosh omili" mavzusida nutq so'zladi. Bu nutqning asosiy yo'nalishi Afg'on mojarosini faqat tinch yo'l bilan hal etish natijada Osiyo qit'asining markazida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratildi. Uchrashuv yakuni bo'yicha "Afg'onistondagi mojaroni tinch yo'l bilan bartaraf etish tamoyillari" haqidagi Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi. Mazkur deklaratsiya BMT ning rasmiy hujjatlari sifatida qabul qilindi.⁷² O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan yadro quroli sinovlariga va ularni ishlab chiqarishga qarshi ekanligini ma'lum qildi. SHu maqsadda Markaziy Osiyoni yadrosiz xududga aylantirish tashabbusi ilgari surildi.

Prezidentimiz taklifi bilan 1997 yil 15-16 sentabrda Toshkentda "Markaziy Osiyo yadro qurolidan xoli hudud" mavzusida xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Unda 20 ta

⁷¹Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. Политические исследования. 1994. № 1. 157-бет

⁷² Каримов И.А. Биз учун халқимиз, ватанимиз манфаатидан улуғ мақсад йўқ. Т. «Ўзбекистон» 2002й. 20-22 бетлар.

xalqaro tashkilot va jahonning 50 dan ortiq, jumladan AQSH, Germaniya, Frantsiya, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Xindiston, Pokiston, Eron va boshqa davlatlarning diplomatiya hamda hukumat vakillari ishtirok etishdi. Ayniqsa AQSH dek ulkan siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, harbiy-texnikaviy, intellektual salohiyatga ega bo'lgan mamlakat bilan munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish O'zbekiston uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik miqyoslarining har tomonlama kengayayotganligi, butun mintaqaning kuchli ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishiga, shu bilan birga uning havfsizligi va barqarorligiga mustahkam poydevor yaratmoqda. Yurtboshimiz tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlararo kengashi tuzildi. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, harbiy sohalarda hamkorlik kengaymoqda. SHu bois O'zbekiston o'zining mudofa qobiliyatini mustahkamlashga katta e'tibor bermoqda. Rossiya, Turkiya, Ukraina, Qirg'iziston kabi davlatlar bilan harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risida bitimlar tuzilgan.

O'zbekistonning Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Vetnam, Malayziya, Hindiston, Indoneziya kabi SHarqiy va Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalari ham taboro mustahkamlanib bormoqda. Jumladan, Yaponiya bilan diplomatik munosabatlar 1992 yilning yanvaridayoq o'rnatilgan edi. 1994 yilning mayida Prezident I.Karimovning bu mamlakatga rasmiy tashrif buyurishi esa ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Ikkala mamlakat ayni paytda BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida ham hamkorlik qilmoqda. Zero, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarda Yaponiya O'zbekistonni hamisha qo'llab-quvvatlaydi. Ayni paytda esa barqaror taraqqiyot yo'lidan borayotgan O'zbekiston ham Yaponiyaning Osiyo mintaqasidagi manfaatlarini ta'minlashdagi asosiy hamkori bo'lib qolmoqda. Xalqaro maydonda obro'li mamlakatlardan biri sifatida qaraladigan Rossiya bilan munosabatlarning keyingi paytda yangi bosqichga ko'tarilgani esa alohida e'tiborga molik. O'z o'rnida Rossiya ham O'zbekistonga Markaziy Osiyoda strategik hamkor sifatida qaramoqda.

1997 yilda birinchi marta o'z uchrashuvlarini o'tkazgan Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon va Maldava mamlakatlari tashkilotiga 1999 yilda O'zbekiston ham qo'shildi hamda transport-kommunikatsiya magistrallari, dengiz portlariga olib chiquvchi yo'llar borasida hamkorlikni nazarda tutuvchi ushbu tashkilot GUUAM deb atala boshlandi. Ushbu tashkilotning 2001 yil iyun oyida o'tkazilgan sammitida qabul qilingan GUUAM hartiyasi esa yangi tuzilmani xalqaro munosabatlarning to'la qonli sub'ektiga aylantirdi. 1996 yilda tashkil topgan "SHanxay beshligi" tashkilotining asosiy vazifasi unga a'zo mamlakatlar - Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonning o'zaro chegarasida Qurolli kuchlarni qisqartirishdan iborat edi. Bunga juda tez fursatda erishildi va keyinchalik iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy masalalardagi hamkorlik ustuvorlik kasb eta bordi. SHunday qilib, 2000 yilning yozida Dushanbeda o'tkazilgan sammitda tashkilot noma "SHanxay forumi" deb o'zgartirildi. Aynan shu sammitda Prezident I.Karimov boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi. 2001 yilning 14-15 iyundagi SHanxay sammitida esa "SHanxay hamkorlik tashkiloti"ga rasman asos solindi va O'zbekiston unga muassislardan biri va teng huquqli a'zo sifatida qo'shildi. 2004-yilda Toshkentda MATT – Mintaqaviy antiterror tuzilmasi tashkil etildi. 2010-yil 11-iyunda Toshkentda SHHT nong navbatdagi 10-majlisi bo'lib, unda Turkmaniston, Pokiston va Mo'g'uliston Prezidentlari hamda Eron va Hindiston tashqi ishlar vazirlari ishtirok etdilar.

O'zbekiston har doim ham mintaqaning markazi sanalib kelingan. Hozir esa uning Markaziy Osiyoning yuragi ekanligi juda ko'plab hayotiy muammo va masalalarning tezkor ijobiy echimi va mintaqaning kelajak istiqboli nuqtai-nazaridan yanada kattaroq ahamiyat kasb etayotir. Aynan shuning uchun ham, O'zbekiston terrorizm va narkotiklarning noqonuniy savdosiga qarshi kurashda markaziy o'rinda turishi lozim va shunday bo'lmoqda. Bu borada muvaffaqiyatlarga erishish uchun O'zbekiston birinchi galda o'z milliy manfaatlarini himoya qilishi tabiiy xol. Biroq, bu Markaziy Osiyoning kelajak taqdiri, mazkur mintaqani terrorizm, ekstremizm va narkotiklar savdosidan xoli bo'lishiga ma'sulliginiyam unutmaslik kerak. Bunday vazifa mintaqaning barcha mamlakatlari xalqlari va xukumatlari tomonidan qo'llab-

quvvatlanib, ularning mintaqaning porloq kelajagini ta'min etuvchi umumiy ishga hayrixoxlik bilan qarashini va o'z hissasini qo'shishini taqozo etadi. Ko'zlangan natijalarga erishish uchun O'zbekiston o'z qo'shinlari, Amerika, Yevropa va Osiyodagi hamkor davlatlar bilan aloqalarni yanada kuchaytirish zarur. Boshqacha aytganda, terrorizm, fanatizm va narkotiklar savdosiga qarshi kurash Markaziy Osiyoning istiqbolli kelajagini barpo etish maqsadi bilan uyg'unlashtirilishi lozim.

Ma'lumki, «Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati»(MOIH) tashkiloti 1994-yil iyulda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston ishtirokida tashkil etilgan edi. Keyinchalik 2002-yil Almati shahrida Islom Karimov taklifi bilan "Markaziy Osiyo hamkorlik" (MOH) tashkiloti deb o'zgartirildi. 2005 yil 6-7 oktabr kunlari Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan sammitida MOHT bilan YOIH-Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatini birlashtirishga kelishib olingan edi. YOIH tashkilotiga a'zo davlatlar – Rossiya, Belorusiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida 1995-yilda tashkil etilgan edi. Mazkur ikki tashkilotning maqsad va vazifalari ko'p jihatdan o'xshash va bir-biriga yaqin. Tuzilmalarning birlashishi to'g'risidagi kelishuv esa mamlakatimizning Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati safidan joy olishiga olib keldi.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyoda vaziyat shu qadar shiddat bilan o'zgarmoqdaki, bunday sharoitda bamaslahat ish yuritilmasa, mintaqadagi barqarorlik havf ostida qolishi hech gap emas. Bu erda katta geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlar to'qnash kelayotir. Demak, MOHT bilan Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatining birlashishi orqali Yevroosiyodagi 6 mamlakat bexavotir hayotni ta'minlash uchun bahamjixat harakat qiladi. Davlatlararo munosabatlarda iqtisodiy manfaatdorlik har bir mamlakatning o'zaro ishonchni mustahkamlashga undaydi. Bu esa o'zaro hamkor davlatlarning bir-biri uchun ko'proq qayg'urishiga, binobarin, havfsizlik sohasidagi aloqalarning har tomonlama rivojlanishiga olib keladi. O'zbekistonning ushbu hamjamiyatga a'zo bo'lishi Yevroosiyo mintaqasida yirik loyihalarni tuzish va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Transport kommunikatsiyalari, energetika, xalqaro savdo – bular muhokama uchun mavzu bo'ladigan sohalarning bir qismi xolos. Aytaylik, mamlakatimizda etishtiriladigan paxta, chorva, qorako'l, poliz mahsulotlari yo mevalar uchun Rossiya yoki

Belorusning o'zi katta bozor. Misol uchun ana shunday noyob tovarlar keyinchalik Rossiya va Belorus orqali Yevropaga ham chiqishi osonlashishini inobatga olsak, Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatining imkoniyatlari yanada oydinlashadi.⁷³

XXI asr oxirlariga kelib globallashuv dunyoning barcha xalqlarini o'z "domiga" tortdi. Mamlakatlararo, xalqaro aloqalarning jipslashuvi va kuchayishi bu jarayonning muhim belgilaridan biridir. SHu nuqtai nazardan, davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning yanada tez sur'atlar bilan rivojlanishi tabiiydek tuyuladi. Biroq, mustaqil O'zbekiston va AQSH davlatlari orasidagi rivoji bir qator o'ziga xosliklarni namoyon etadi.

1991 yildan 2001 yil 11 sentabrgacha bo'lgan davrda ikki tomonlama munosabatlarning huquqiy va tashkiliy negizlari yaratildi. AQSH birinchilardan bo'lib O'zbekiston mustaqilligini tan oldi. 1992 yil 19 fevralda tomonlar orasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. 1992 yil 16 mart kuni AQSHning O'zbekistonda elchixonasi ochildi. Bu ayni paytda mamlakatimizda ish boshlagan birinchi xorijiy davlat elchixonasi edi. SHundan so'ng yurtimizga AQSH ma'muriyati va ishbilarmon doiralarining ketma-ket rasmiy tashriflari boshlandi. Bu yosh Respublikamizga nisbatan Amerika jamoatchiligining qiziqishi ortib borayotganligidan dalolat edi.⁷⁴

Amerikaliklar O'zbekistonning Markaziy Osiyoda, xususan, Yevroosiyoda tutgan o'rni va qanday ahamiyatga ega ekanligini yaxshi anglab olishdi. Buni biz Rossiyalik taniqli siyosatshunos olimi, Rossiya Federatsiyasining tashqi siyosati bo'yicha mutaxassis, siyosatshunoslik fanlari nomzodi Galina Maykovaning mamlakatimizning mintaqada tutgan o'ziga xos o'rniga batafsil to'xtalib aytgan ushbu fiklaridan bilib olishimiz mumkin: *"O'zbekiston Yevroosiyo o'rtasida ko'chmanchilik qilib yurgan Qozog'iston emas. U ichki ziddiyatlardan aziyat chekayotgan Afg'oniston ham emas. O'zbekistonni, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston bilan ham taqqoslab bo'lmaydi. Albatta, bu davlatlarning har biri o'z o'rniga, obro'-e'tiboriga ega. Ularning har biri o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.*

⁷³ Boboyev. A. Mushtarak maqsadlar yo'lidagi muhim qadam. XXI asr. 2006y. 26 yanvar.

⁷⁴ Азизхонов А.Т, Мусаева О.Р. Ўзбекистонда демократик жамият куриш назарияси ва амалиёти. Т. «ДИТАФ» нашриёти 2001й. 306-бет.

*SHunday bo'lsada, O'zbekiston nima bo'lganda ham har doim Markaziy Osiyoning, katta hisobda Yevroosiyo geopolitik madaniy sivilizatsiyasining yuragidir. Amerika Markaziy Osiyo mamlakatlari, Rossiya, Xitoy va bu hududga tutash boshqa davlatlar bilan munosabatlarini mustahkam yo'lga qo'yishni O'zbekistonsiz eplab bo'lmasligini juda yaxshi tushunadi. Bundan tashqari, Amerika O'zbekistonsiz mintaqada yaxlit havfsizlik tizimini yaratib bo'lmasligini yaxshi anglaydi. O'tgan vaqt shuni ko'rsatdiki, Toshkentni "jazolash" hech qanday samara bermaydi. Qolaversa, O'zbekiston ba'zi bir qo'shni davlatlarga o'xshab o'z nuqtai nazarini osonlikcha o'zgartirmaydi. O'zbekiston Andijon masalasi bilan bog'liq g'arbning tazyiqiga qaramasdan, mintaqaviy va makromintaqaviy siyosatning markazida dadil turmoqda".*⁷⁵

AQSh - O'zbekiston o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlari "Yashin tezligi"da rivojlanib bordi. Qiyos o'rnida aytsak, 1991-2001 yillarni o'z ichiga olgan birinchi bosqichda tomonlar orasida davlat ahamiyati darajasida 28 ta tashrif qayd etilgan bo'lsa, 2001 yil sentabrdan e'tiboran o'tgan qisqa vaqt ichida esa 20 taga yaqin ana shunday tashriflar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Prezident J.Bush taklifiga asosan 2002 yil 11-14 mart kunlari bo'lib o'tgan AQSHga rasmiy tashrifi shu tarzda davom etib kelayotgan munosabatlar rivojiga tom ma'noda burilish yasadi. Strategik sheriklik to'g'risida bitim imzolandi. Ikki davlat o'rtasida iqtisodiy, siyosiy, harbiy-texnikaviy, geopolitik, geostrategik, fan va ta'lim, ilmiy-texnikaviy, madaniy sohalarida hamkorlik kengaya boshladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, birinchidan, O'zbekiston mustaqillik yillarida dunyoda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyotini, demokratiyaning milliy, madaniy xususiyatlarini, milliy modellar mavjudligi, demokratiyaning universal modeli yo'qligi to'g'risidagi muhim kontseptual g'oyalar, yondoshuvlari hamda qat'iy pozitsiyasi bilan ham uni yanada boyitdi. Bu bilan o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lidan borish orqali unga yangi-yangi ma'no-mazmun baxsh etilmoqda. Buning e'tirof etilganligi shubhasiz, muhim. Ikkinchidan, demokratiya

⁷⁵ Бўронов Ю. «Сафарлар дипломатияси» ёки Вашингтоннинг Марказий Осиёга нигоҳи. XXIаср. 2005й. 20 октябр.

niqobi ostida dunyo yana “mafkuraviy kurash” maydoniga aylantirilmasligi kerak. Bunday urinishlar bugun hayotimizda, dunyoda bo‘layotgan demokratik o‘zgarishlarga to‘g‘ri kelmaydi.⁷⁶

Shu munosabat bilan quyida Rossiyalik taniqli siyosatshunos olimi, Rossiya Federatsiyasining tashqi siyosati bo‘yicha mutaxassis, siyosatshunoslik fanlari nomzodi G. Maykova tomonidan tayyorlangan hamda shu yilning 16 avgust kuni Rossiyaning yetakchi elektron nashrlaridan bo‘lmish “Kreml.org” veb-saytida e‘lon qilingan Andijon voqealaridan keyin Markaziy Osiyodagi geosiyosiy jarayonlarda yuz bergan o‘zgarishlar, ularning sabablari va keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan oqibatlariga bag‘ishlangan tadqiqotidan ayrim qismlarini e‘tiboringizga havola etmoqdamiz. Muallif ta’kidlashicha, AQSH tomonidan Markaziy Osiyoga bu qadar katta e‘tibor qaratilayotganligining asosiy sababi mintaqaning Rossiya va Xitoy kabi yirik davlatlar bilan yaqin qo‘shniligi, qolaversa, uning butun Yevroosiyo hamda global siyosatga ta’sir qilish uchun o‘ziga xos kalit vazifasini bajarish bilan belgilanadi.

Muallifning fikricha, AQSH o‘z maqsadlarini amalga oshirishda taktik vosita sifatida faol qo‘llab-quvvatlab kelayotgan “rangli inqilob”lar bir qarashda SHarqiy Yevropa davlatlarida, Ukraina va Gruziyada uning tashkilotchilariga muvaffaqiyat keltirganidek ko‘rinsa-da, Qirg‘izistonda ular uchun kutilgan natijani bermadi, Andijonda esa umuman chilparchin bo‘lib ketdi.⁷⁷

“E‘tiborli tomoni shundaki – deb yozadi G. Maykova, - BMT va YXHT, g‘arb mamlakatlarining Xiomot Rayms Votch, Interneyshnl Emnisti, xalqaro krizis guruhi kabi ko‘plab nodavlat tashkilotlari, shuningdek, AQSH Davlat Departamenti va boshqa tashkilotlarning vakillari tinimsiz ravishda Qirg‘iziston janubida kezib, ushbu mamlakat hukumatidan “qochoq”larning O‘zbekistonga qaytishiga yo‘l qo‘ymaslikni talab qilishdi, aks holda, Qirg‘iziston Respublikasiga xalqaro shartnomalarni birgalikda ayblar qo‘yilib, tegishli choralar ko‘rilishi mumkinligini qayta-qayta

⁷⁶ Ергашев И. Демократия – унинг, якка-ю – ягона «универсал модели» бўлмайди. Фидокор. 2006й. 10 январ

⁷⁷ Россия сиёсатшуносининг фикри – АҚШнинг Марказий Осиёдаги сиёсати моҳиятини тўғри тушунишга ёрдам беради. XXI аср. 2005й. 25 август.

uqtirib turishdi”. “Qochoq”lar Qirg`izistondan olib chiqib ketilganidan keyin, Qirg`izistonning bosh prokurori A.Beknazarov BMTning qochoqlar bo`yicha bosh komissari boshqarmasi tomonidan o`z mamlakatiga kuchli bosim bo`lganligi, ko`p harakatlar aynan shunday bosim ostida amalga oshirilganligini jurnalistlar oldida Andijonda xalqaro tekshirish o`tkazish talabini ilgari suruvchi kompaniyani boshlab yubordilar. Vaholangki, Angliyalik taniqli siyosatshunos SHirin Akinerning voqea sodir bo`lgan joyning o`ziga borib bevosita o`tkazgan kompleks taxlillari ro`y bergan xunrezliklar O`zbekistonda mavjud konstitutsion tuzumni ag`darishga qaratilgan qurolli urinishdan boshqa narsa emasligi va eng asosiysi – bu narsalardan turli xalqaro tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan g`arb davlatlarining tegishli idoralari vakillari yaxshi xabardor bo`lganligini ko`rsatadi. G. Maykova shu munosabat bilan SH. Akinerning xulosa-larini keltirib o`tadi. Unga ko`ra, agar O`zbekiston xalqaro tashkilotlarga Andijonda tekshiruvlar o`tkazishga ruxsat bersa, ular, voqealar manzarasi qanday ko`rinishidan qat`iy nazar, o`z xulosalarida:

Birinchidan, O`zbekistonda demokratik erkinliklar va inson huquqlarining buzilayotganligini isbotlashga urinishi;

Ikkinchidan, o`z rezolyutsiyalarida O`zbekiston xukumati turli “gunoh”larda aybdor qilib chiqishi;

Uchinchidan, rasmiy Toshkent oldiga O`zbekistonning davlat mustaqilligini cheklashga olib keluvchi ultimativ talablarni qo`yishi aniq edi.

Xususan AQSH amalda Afg`onistonda to`liq tinchlik qaror topishidan manfaatdor emas. Bugungi kunda Afg`oniston bilan Markaziy Osiyo davlatlari o`rtasida iqtisodiy, transport-kommunikatsion va boshqa sohalarida to`laqonli hamda o`zaro manfaatli aloqalarning qaror topishiga turli bahonalar ro`kach qilinib, to`siqlar qo`yib kelinayotganligi, Afg`onistondagi etnik va etnosiyosiy sohalaridagi ichki muammolardan, xususan, “etnik o`zbeklar” masalasidan o`z taktik maqsadlarida foydalanishga urinishi, bunda O`zbekiston davlatining milliy manfaatlarini hisobga olmaslik, turli ekstremistik guruhlar masalan, “Al qoida”, “O`zbekiston Islom harakati”, «Tolibon» va boshqalar bilan o`ynashishi, ulardan Markaziy Osiyo mintaqasida doimiy barqarorlikni vujudga keltirishda foydalanishga urinish aynan

shundan dalolat beradi. Ikkinchidan, AQSH tomonidan Markaziy Osiyo davlatlarida o'z maqsadlariga javob beruvchi yo'nalishda geosiyosiy o'zgarishlarni amalga oshirish rejasi hayotga tatbiq qilinayotganligi, shu maqsadda mintaqamamlakatlariga, jumladan, O'zbekistonga turli ko'rinishdagi "demokratik" fondlar, nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa turdagi shubhali tuzilmalar kiritilganligi, ular imkoniyatlaridan keyinchalik siyosiy to'ntarishlarni amalga oshirishda foydalanish rejaları mavjudligi sir bo'lmay qoldi.

Uchinchidan, AQSH maxsus xizmatlari tomonidan MDH davlatlarida birin-ketin amalga oshirilayotgan "rangli inqilob"lar girdobiga vaqti kelib O'zbekiston ham tortilishi mumkin edi. Andijonda ro'y bergan voqealar esa buning aniq isboti bo'ldi. Markaziy Osiyo mintaqasi turli davlatlarning strategik manfaatlarit o'qnashadigan maydonga aylandi. AQSH, Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo havfsizligiga katta ta'sir o'tkazadigan va mintaqada o'zlarining siyosatini geopolitik maqsadlaridan kelib chiqib, avvalambor iqtisodiy manfaatlardan, hamda global jarayonlarni hisobga olgan holda amalga oshiradilar.

Eron, Turkiya, Yevropaning yetakchi davlatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlar o'zlarining harakatlarida Markaziy Osiyodagi qayd qilingan uch yirik davlatlarning strategik manfaatlarini va ularning kuch va imkoniyatlarini so'zsiz hisobga oladilar. Markaziy Osiyo Rossiyaning G'arb bilan strategik sherikchiligi kuchaymoqda, ayniqsa Afg'onistonda terrorizmga qarshi kurash boshlaganidan keyin jumladan boshqa fundamental sabablar tufayli ular o'rtasida nafaqat mafkuraviy, balki iqtisodiy kurash kuchaya boshladi. Markaziy Osiyoda resurslar va bozor uchun keskin kurash bo'lmoqda.⁷⁸

2 – bob bo'yicha xulosa. O'zbekistonning AQSH bilan strategik sherik bo'lishi, mintaqada yetakchi xalqaro tashkilotlar faolligining oshishiga Afg'onistondagi vaziyatni yengishga jalb qilishga o'z ta'sirini ko'rsatdi. AQSH dunyoda yetakchilikka erishib, barcha mintaqalarga o'zining ta'sirini o'tkazishga harakat qilmoqda. AQSHning Markaziy Osiyodagi geostrategiyasi dunyoga hukmronlik

⁷⁸ Саидолимов С. Формирование системы региональной безопасности в центральной Азии. Т.2002г. 16 стр.

qilish siyosatining bir qismi bo'lib, mintaqaning iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy ahvoriga ta'sir o'tkazishga qaratilgan.

Mubolag'asiz aytish mumkinki, AQSHning XX asr oxirida va XXI asr boshlaridagi tashqi siyosati ko'plab davlatlar va xalqaro ekspertlarning tashvishli mulohazalariga sabab b'lmoqda. Bu siyosat, dunyoda gegemonlik qilish, nazoratchilik rolini bajarish, demokratiya "ulashish" niqobi ostidagi boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashishi va hatto, BMT qarorlarini mensimaslik kabi ko'rinishlarda namoyon bo'layotganligini taniqli siyosatshunos olimlar ham e'tirof etmoqdalar. Sabablari nimada? Eng avvalo, bu zo'rlik va zo'ravonlikka, yolg'on va bo'htonlarga, fitna va xiyonatga, munofiqlik va manfaatparastlikka qo'l berishdir. Darhaqiqat AQSH o'tmish zamondan beri o'zgalar hisobiga kuchayib, gullab-yashnab keldi. Qadimdan qolgan naql ya'ni "O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas" deganlaridek AQSh bugungi demokratiya zamonida ham imkoniyati chegaralangan mamlakatlar va xalqlarga nisbatan zo'ravonlik ko'zi bilan qarash xatti-harakatlarini davom ettirmoqda. Shu o'rinda Yurtboshimizning quyidagi so'zlarini esga solish kerak: "Barcha mamlakatlar uchun ularga xos xususiyat va alomatlarni hisobga olgan holda birdek mos keladigan yakkayu-yagona universal demokratiya modeli yo'q va bo'lishi mumkin ham emas. Demokratiyani eksport qilish va uni chetdan turib zo'ravonlik bilan joriy qilishning o'zi aynan demokratiya tabiatiga zid narsa".⁷⁹

Tadqiqotchi S.S.Safoyev, «Markaziy Osiyoning muammosi shundan iboratki, bu yerda barcha asosiy havf-xatarlar majmui yuzaga keladi»⁸⁰. Ular o'zaro bir-birini to'ldiradi va qo'llab-quvvatlaydi. Ko'p siyosatchilar va tadqiqotchilar nazarida ushbu tahdidlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- xalqaro terrorizm taxdidi;
- diniy ekstremizm;
- suv, yer va tabiiy resurslar taqchilligi;
- axolining o'sayotgan qashshoqligi va ishsizligi;
- xalqaro narkobiznes;
- ommaviy qirg'in qurollari tarqalishi;
- ekologik va boshqa muammolar.

⁷⁹ И.А.Каримов. Инсон унинг ҳуқуқ ва еркинликлари ҳамда манфаатлари – енг олий қадрият. "Халқ сўзи". 2005й. 8 декабр.

⁸⁰ Сафайев.С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. - Т.: ЖИДУ, 2005., -160-б.

Markaziy Osiyo mamlakatlari strategiyasida quyidagi yo`nalish mavjud:

- a) mustaqillikni iqtisodiy, ijtimoiy, ma`naviy jihatdan butun choralar bilan mustahkamlash;
- b) mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni taminlash;
- d) bozor munosabatlarini va demokratik islohotlarni izchillik bilan amalga oshirish;
- e) mintaqaviy hamkorlikka birinchi darajali ahamiyat berish kabilardan iborat.

Jahonda AQSh iqtisodi panjalariga dahl qiladigan yangi iqtisodiy gigantlar, masalan, Yevropa iqtisodiy ittifoqi, Germaniya, Yaponiya, Xitoy va nihoyat Rossiya kabi mamlakatlar ham o`z ta`sir doiralari va o`z ovozlari ega bo`lib bormoqda. Osiyo-Tinch okean havzasi tobora katta kuch to`plamoqda. Bunday sharoitda o`rta va kichik davlatlarni o`z tomoniga og`dirib olish uchun raqobat kuchayishi tabiiydir. SHunday ekan, zamonaviy dunyoning eng muhim xususiyati – uning ko`p qutbliligi va ko`pqatlamliligida namoyon bo`ladi. Ikkinchidan, hozirgi davrda sayyoramizda yuz berayotgan nizo va mojaroviy holatlarga barham berilmagan. Agar umumbashariy mojaroning tahlikasi pasaygan bo`lsa, geosiyosatning omillari sonining ko`payganini hisobga olib, pastki darajadagi mojarolar haqida hali bunday deb bo`lmaydi. Uchinchidan, xalqaro munosabatlar sohasida kutilmagan burilishlar umumiy geosiyosiy jarayonlarning tezlashuviga olib keladi. To`rtinchidan, nafaqat ikki qutb, balki turli kuch va markazlar o`rtasida yaqinlashish va uzoqlashish asnosida turlicha (jumladan ko`p yo`nalishli) siyosiy uyushma va birlashmalar tuzish imkoniyati paydo bo`lmoqda. Bu esa “xartlend” dunyoning qolgan qismiga qarshiligi to`g`risidagi ilgari tasavvurlarning cheklanganidan dalolat beradi.

Shunday qilib, bundan buyon yirik davlatlar kichik va o`rta davlatlar bilan hisoblashib ish yuritishni geosiyosiy jarayonlarning o`ziga xos rivojlanishi hayotiy majburiyatga aylantirib qo`ydi-ki, bu gigant davlatlarning kichik davlatlarga quloq tutishni taqozo qilmoqda. Ya`ni, endilikda bir yoki ikki qutubli dunyo emas, balki ko`p qutbli dunyo uchun maqbul geosiyosat hamjamiytaga muvofiq kelishi va ta`sir o`tkazishi mumkin.

III BOB. XXI asr boshlarida geosiyosiy jarayonlarning mohiyati va maqsadi.

3.1. Hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi va mintaqaviy xususiyatlari

XXI asr xalqaro munosabatlariga nazar soladigan bo'lsak, millatlararo munosabatlarda his-tuyg'ular geopolitikasi juda muhim o'rin egallaganiga guvoh bo'lamiz. Bu holat insoniyatning bugungi kunga kelib tobora ijtimoiylashib borayotganidan dalolat beradi. Ayrim hollarda insonning yashashi uchun biologik zarur bo'lgan sharoitlar mavjud bo'lsa-da, xalqlarning noroziliklari yakun topmayotganining guvohi bo'lamiz. Bunga bir nechta sabablar mavjud. Shularning asosiy ustunini jamiyatlarning haddan tashqari ijtimoiylashtirib yuborilishi sababdir. Iqtisodiy ahvolning tangligiga qaramasdan va globallashtirish jarayonining yopirilib kelishi kuchayishi davom etsa-da, xalqlarda o'z urf-odatlariga sodiq qolish, o'zligini hech narsaga almashtirmasligi holati juda yaqqol kuzatilmoqda. O'zlik masalasining kunning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanishi g'arb va sharqda kuzatilmoqda. Agar musulmon dunyosida g'arb dunyosiga nisbatan iqtisodiy-siyosiy ortda qolish sababli alamzadalik yuzaga kelgan bo'lsa, g'arb dunyosida hozirgi holatdagi qulay sharoitlarga ega bo'lgan hayotni qo'ldan boy berib qo'yish qo'rquv hissi mavjud. Ikki holatda ham bu ikki sivilizatsiya orasida bir biriga nisbatan nafrat hissi keyingi 15 yillikda o'z cho'qqisiga yetdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Lekin o'zlik muammosi nafaqat bu ikki sivilizatsiyada balki dunyoning boshqa hududlarida ham mavjuddir. Ya'ni kishilarda hududlarga nisbatan o'z o'zligini namoyon qilish piramidasimon tus oldi, bir davlatning fuqarosi o'sha mamlakatning viloyatida yoki o'z qishlog'ida birinchi navbatda o'zini mahalliy aholi ekanligini faxr bilan izhor etadi, o'sha mamlakatning fuqarosi ekanligi ikkinchi darajali bo'lib qoladi. Misol uchun Suriyalik arab bilan Livanlik arab o'z o'zliklarini ikki xil ko'rinishda namoyon qiladilar, Livanlik arablar orasida esa dini va yashaydigan hududiga nisbatan bo'linishlar mavjud.⁸¹ O'z navbatida bunday o'zlik muammosi davlat apparatlarini ham cheklab o'tayotgani yo'q. Bir tomondan iqtisodiy manfaatlar, boshqa tomondan siyosiy o'yinlar siquvga olgan paytda o'zlikni namoyon qilish bir mamlakatning

⁸¹ Internet ma'lumoti: www.google.uz

ahvolini yanada tanglashtirib qo'yishi, bu esa ushbu hukumatning noto'g'ri qaror qabul qilishiga sabab bo'lishi mumkin. Aynan shunday his tuyg'ularni mamlakatlar siyosatiga aralashishi yoki xalqlarning his tuyg'ularidan instrument sifatida foydalanish jahon siyosatida ayanchli oqibatlariga olib keldi. Birgina AQSh va boshqa G'arb davlatlarning Iroqqa intervensiya qilishi bunga yaqqol misoldir. Geopolitik ko'z bilan qarasak davlatlarning tashqi siyosati har qanday his-tuyg'u va prinsiplardan holi bo'lishi lozim. Davlatning yagona yo'nalishi bu o'z manfaatlarini himoya qilishdir. Lekin II Jahon Urushining falokatli oqibatlari va undan keyingi jahondagi ideologiyalarning to'qnashuvi tufayli geopolitik metodlar tubdan o'zgardi. Aniq ko'zlangan maqsadga ochiqlik bilan yondashish davlatlarni insoniylik prinsiplaridan va adolat tushunchalaridan uzoqlashtirib qo'yar edi. Bunday holatlarni oldini olish uchun qudratli davlatlar turli hil "niqoblovchi ideologiyalar"ni qo'llay boshladilar. Asosan ikki qutbga ega bo'lgan ideologik dunyoda AQSh boshchiligidagi G'arb mamlakatlari asosiy e'tiborini Inson Huquqlari va Demokratik prinsiplarini ishlatgan holatda o'z siyosiy-iqtisodiy maqsadlarga erishishni ko'zladilar, o'z navbatida Sovet Ittifoqi boshchiligidagi Sotsialistik mamlakatlar asosiy e'tiborini Kapitalizmga, ijtimoiy tengsizlik va boyliklarni notekis taqsimlanishiga qarshi kurashuvchi, kommunistik ideologiyalarga qaratdilar. 1991-yilda Sovet Ittifoqining qulashi, AQSH va G'arb mamlakatlarini Xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamladi. Bunday g'alaba o'z navbatida Inson Huquqlari va Demokratiya tushunchalarini instrument sifatida ishlatilishini oqladi desak, xato qilmagan bo'lamiz. Lekin oradan ko'p o'tmay G'arb mamlakatlari dunyodagi gegemonlik uchun ulardagi qudrat yetarli emasligiga amin bo'ldilar. Bu esa ularning o'z ideologik qarashlarini yoyishiga zo'r berishlariga olib keldi. Natijada XXI asrga kelib demokratik qarashlar mamlakatlarga, hattoki, urushlar orqali majburlab kiritila boshladi. Shu darajaga borib yetdiki, Demokratiya va Inson Huquqlari tushunchalariga yangi qurilayotgan jamiyatlarda ishonchsizlik va ehtiyotkorlik bilan yondashila boshlandi. O'z navbatida bu g'arb davlatlarining siyosiy va iqtisodiy ta'sirini cheklanishiga olib keldi. Hozircha g'arb davlatlari bu metodlaridan voz kechganlaricha yo'q, ular shu davrgacha qurgan qudratlari bilan

jahondagi mavqeini ushlab turishga harakat qilishmoqda, lekin 2000-yillar boshi bilan solishtiradigan bo'lsak, g'arb dunyodagi muhim strategik hududlarda o'z ta'sirini qisman yoki butunlay yo'qotdi. Xo'sh, agar G'arb dunyosi o'zining haqparastligi va o'z prinsiplarini boshqalardan ustun qo'yish orqali boshqa mamlakatlarni o'zidan uzoqlashtirgan bo'lsa, ular ushlab turgan iqtisodiy faollikni kimlar davom ettirmoqda? Bu savolga umumiy qilib javob berish qiyin, chunki dunyodagi deyarli barcha davlatlar o'z tashqi siyosatlariga his-tuyg'ularni aralashtirib bo'ldilar, hoh u g'arb ideologiyasiga yon bosish bo'lsin, xoh unga qarshi kurashish bo'lsin. Faqatgina barmoq bilan sanoqli davlatlarga bunday o'zlikni namoyon qiluvchi ideologiyalardan tashqarida turgan holatda o'z iqtisodiy mavqeini va xavfsizligini ta'minlashda davom etmoqdalar. Bunday davlatlar sirasiga birinchi navbatda Xitoy va Germaniya yaqqol misoldir. Xitoy – minglab yillik tarixga ega va o'z navbatida xalqaro ahamiyatga ega mamlakatdir. O'zining iqtisodiy va siyosiy qudratining yuqoriligiga qaramasdan Xitoy xalqaro muammolarga o'ta sovuqqonlik va pragmatizm bilan yondashadi. Eng qizig'i, biror bir xalqaro doiradagi muammoni hal qilishda u G'arb davlatlariga yon bosmaydi va o'z pozitsiyasini ochiqlik bilan bildiradi, shunga qaramasdan bunday qarshilik uning g'arb mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalariga putur yetkazmaydi. Xo'sh, qanday qilib Xitoy bunday muvozanatni saqlab turibdi?

Birinchi e'tiborimizni Xitoy falsafasiga qaratsak : Bu falsafaning asosi – o'ziga qarshi bo'lgan kuch bilan to'g'ridan to'g'ri to'qnash kelmaslikdir. Balki o'sha kuchni o'z og'ushiga qabul qilib asta sekinlik bilan uni so'ndirish va undan so'ngina uni boshqarishdir. Bugungi kunda Xitoy iqtisodiy qudrati bo'yicha dunyoda 2-o'rinni, savdo-sotiq operatsiyalari bo'yicha 1-o'rinni, chet el investitsiyalarini jalb qilish bo'yicha 2-o'rinlarni egallab kelmoqda.⁸² Iqtisodiy qudratning bunday shiddat bilan o'sishi bir vaqtning o'zida Xitoyning jahon hamjamiyatida tutgan o'rnini tobora muhim ahamiyatga ega bo'lishini ta'minladi. Lekin o'zining iqtisodiy va siyosiy kuchiga qaramasdan Xitoy jahonda yuz berayotgan muhim masalalarni yechishda o'zining masalaga yopiqlik va neytrallik bilan yondashishi bilan ajralib turadi. Sovet

⁸² Internet ma'lumoti: www.mtrk.uz

ittifoqining qulashi va ko'pchilik Sotsialistik mamlakatlardagi iqtisodiy tanglik Xitoy uchun muhim dars bo'lgan desak adashmaymiz. Shuning uchun Xitoy har qanday xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, siyosiy integratsiyani kuchaytiruvchi ittifoqlar Xitoyning nazaridan chetda qolmadi. O'z navbatida tashqi siyosatida Xitoy mamlakatning iqtisodiy rivojlantirish uchun bo'lgan harakatlarini, siyosiy ta'sirini kuchaytirish va ideologik qarashlarini yoyishdan muhimroq yo'nalish deb belgilab oldi. Shu asnoda Xitoy tashqi va ichki siyosatining yo'nalishidan qa'tiy nazar o'zi bilan iqtisodiy hamkorlik qilishga tayyor bo'lgan mamlakatlar bilan iqtisodiy shartnomalarni tuzishga kirishib ketdi. Ayni paytda AQSh boshchiligidagi G'arb mamlakatlari Sovet Ittifoqining qulashi fursatidan foydalanib o'zlarining ideologik urushlariga zo'r bergan holda ko'pchilik yangi paydo bo'lgan va Sovet ittifoqi himoyasida bo'lgan mamlakatlarda havf soluvchi mamlakatlar sifatida taasurot qoldira boshladilar. Bu esa rivojlanayotgan mamlakatlarda ularga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytirdi. Shunday davrda Xitoy eng optimal sotib oluvchi rolini o'ynadi. Chunki Xitoy bilan iqtisodiy kelishuvlarning asosini faqat va faqat ikki tomonning iqtisodiy manfaatlari tashkil etardi va bu o'sha mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga hech qanday to'g'ridan to'g'ri ta'sir va bosimlarsiz amalga oshirildi.

Xitoy nafaqat iqtisodiy tomondan balki siyosiy tomondan ham g'olibdir. *Birinchidan* Xitoyning turli mamlakatlarga kiritayotgan investitsiyalari va iqtisodiy hamkorligining siyosiy mevalari kafolatlangandir. Ya'ni Xitoy to'g'ridan to'g'ri mamlakatga ta'sir o'tkaza olmasada bora-bora investitsiyalarning ko'lamini oshishi bilan u mamlakatlar Xitoyning ta'siriga tushib bormoqdalar. *Ikkinchidan* Xitoy to'la qonli ravishda Xalqaro maydonda o'zini tinchliksevar mamlakat deb atashga haqqi bor. So'nggi 50 yil davomida Xitoy hech qaysi mamlakatning ichki ishlariga aralashmagan, harbiy interventsia haqida esa gap bo'lishi mumkin emas. *Uchinchidan* Xitoy dunyodagi qudratli mamlakatlar sirasiga hech qaysi mamlakat bilan to'qnashmasdan yetib kela oldi. O'zining u yoki bu masaladagi fikrlarini bildirish bilan cheklangan Xitoy, o'zida boshqa mamlakatlarga nisbatan nafrat va dushmanlik kayfiyatini rivojlantirmaydi. Xitoy o'zining G'arbdan uzoq Osiyocha tarixi va sivilizatsiyasi bilan hozirgi ko'p qutbli dunyoda o'zining pragmatik

mamlakatligi bilan tanildi. Lekin bu kabi ratsional mamlakatlar G'arb mamlakatlari orasida ham topiladi. G'arbning bugungi kundagi o'ziga xos yopriluvchi siyosati to'liqlari ichida ko'zga tashlanmaydigan, lekin o'zining muhim o'rni bilan ajralib turadigan mamlakat mavjuddir – bu Germaniya.

Germaniyaning dunyo siyosatidagi roli bir tomondan ko'zga yaqqol tashlanmaydi, lekin uning ta'sir doirasi o'zining harbiy kuchining qudrati katta bo'lgan mamlakatlarnikidan katta bo'lsa borki lekin kam emas. Misol uchun Nemis harbiy bazalarining dunyo bo'ylab tarqalishi Fransuz harbiylarinikiga qaraganda ancha ko'lamliroq. Lekin dunyo ommasining tasavvurida Fransiya dunyoda muhim harbiy-strategik rolga ega, aslida esa Germaniya bu borada o'z qo'shnisini ancha ortda qoldirib bo'ldi. Shu bilan birga Germaniyaning boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalari va buning natijasida kelib chiqadigan siyosiy ta'siri birmuncha ko'zga tashlanarlidir.

Ho'sh qanday qilib Germaniya bugungi kundagi vaziyatni yuzaga keltira oldi? degan savol tug'iladi. Avvalambor bu savolga javob berish uchun uzoq tarixga nazar solish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hammamizga ma'lumki, Germaniya birlashtirilishi boshqa Yevropaning qudratli mamlakatlariga qaraganda kechroq amalga oshirilganligi uning yangi dunyo tartiblariga moslasha olmay qolishiga olib keldi. Mustamlakalardan quruq qolgan holda, qudratli Yevropa mamlakatlari orasida siqilib qolgan Germaniya o'z o'rnini jahon miqyosida topish uchun ikki marta jahon urushini yuzaga kelishiga sababchi bo'ldi. Bu urushlar Germaniya tarixida salbiy iz qoldirdi. Bir tomondan esa bunday muvaffaqiyatsizlik Germaniyaga urush yo'li bilan jahonda o'z o'rnini egallay olmasligini ko'rsatib berdi. Ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng g'arbiy Germaniya tashkil qilindi va uning birinchi kansleri Konard Adenauerning olib borgan tashqi siyosati Germaniyaning bugungi kundagi tashqi siyosati uslubini poydevori bo'ldi. Bu Germaniya tashqi siyosatining o'ziga hos tus olishini birinchi bosqichi edi. Ikkinchi bosqich 1989-yilda Berlin devorini qulashi va Germaniyaning birlashtirilishi bilan boshlandi.⁸³ 1995-yildan boshlab

⁸³Nuriddinov Z. R. G'arb mamlakatlarining eng yangi tarixi. T., "O'qituvchi", 1978, 202-bet.

Nemis jamiyati qayta birlashtirilib kuchli davlat strukturasi tuzildi. 2000 yillar Germaniya uchun o'zining jahondagi o'rnini mustahkamlash yillari bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yevropa Ittifoqi valyutasining yo'lga qo'yilishi, iqtisodiy integratsiyaning Yevropa bo'ylab yo'lga qo'yilishi uning o'ziga bo'lgan ishonchini kuchaytirdi. 2003-yilgi voqealarda Germaniya jahon ommasi oldida o'zining siyosiy o'rnini qayta o'rnatganini tasdiqlab berdi. Bu AQShning Iroqqa harbiy intervensiyasi yuzasidan bo'lib o'tgan masalada Germaniyaning 2-jahon urushidan beri birinchi marta AQShga qarshi chiqishi edi. O'z navbatida uning bu qa'tiy qarshiligi Fransiya ham katta ta'sir ko'rsatdi. Jahon miqyosida AQShning intervensionist siyosatiga qarshi chiqishga botina olmayotgan Fransiya Germaniyaning dadilligidan kuch olib u ham o'z navbatida Iroqqa qarshi harbiy intervensiyasiga qa'tiy qarshilik bildirdi. Bu hodisa Germaniya-Fransiya munosabatlarida va Yevropa Ittifoqining mustahkamlanishida juda muhim rol o'ynaydi.

Uchinchi va hozirda davom etayotgan bosqich bu Yevropa ittifoqining ichki raqobatida Germaniyaning boshqa a'zolarga qaraganda ancha oldinlab ketishidir, ayniqsa Fransiya nisbatan. Fransiya o'zining yirik harbiy salohiyati bilan Yevropada xavfsizlikni ta'minlovchi asosiy mamlakat bo'lsa, Germaniya ittifoqning iqtisodiy motoridir. Fransiya o'zining harbiy kuchlari va jahonda tutgan siyosiy o'rniga tayangan holda bir necha bor noo'rin qarorlar qabul qildi, ayniqsa dunyo siyosiy krizislari borasida. Bularga Liviyaga intervensiya, Afg'on urushidagi yo'qotishlar, Maliga intervensiya, Suriya fuqarolar urushiga munosabati, Ukraina-Rossiya masalasi va nihoyat so'nggi kunlarda Markaziy Afrika va Janubiy Sudanda yuz berayotgan voqelarga aralashishlarini misol qilib keltirsak bo'ladi. O'zining iqtisodiy zaiflashishiga qaramasdan Fransiya ma'suliyati katta bo'lgan siyosiy krizislarni yechishga urindi lekin asosan barcha aralashuvlar muvaffaqiyatsizlik bilan yakun topgani bois Jahondagi muhim iqtisodiy-strategik sheriklarni yo'qotdi. Shulardan eng muhimlari Rossiya, Xitoy va Fors ko'rfazi davlatlaridir. Ayni paytda esa Germaniya Fransiya va AQShning siyosiy kelishmovchiliklari tufayli yo'qotgan iqtisodiy sheriklarini birin ketin o'ziga jalb qilib bormoqda. Xususan Rossiya, Yaqin

sharq va Afrika davlatlari bilan iqtisodiy ayriboshlash so`nggi 10 yil ichida boshqa g`arb mamlakatlariga qaraganda sezilarli darajada oshdi. Fransiyaning harbiy qudratiga qaramasdan so`nggi yillardagi ko`pgina Yevropa masalalari bo`yicha qabul qilingan ko`pgina qarorlar asosan Germaniyaning kuchli ta`siri ostida qabul qilinmoqda. Ayniqsa 2008-yilda boshlangan moliyaviy krizisdan Yevropani qutqarishda Germaniya eng muhim rolni o`ynadi desak adashmagan bo`lamiz. Dunyoning qiyofasi qanday tusga kirdi? Insoniyat o`z taraqqiyotining qaysi marrasiga ko`tarildi? XXI asrga kelib Yevroosiyoda tinchlik va kuchlar muvozanatini ta`minlash uchun qanday imkoniyatlar paydo bo`ldi? - degan savollar barchani qiziqtirishi tabiiy. Bu kabi masalalarni yoritishda bugungi kunda Markaziy Osiyoda ro`y berayotgan geosiyosiy jarayonlarni ham tahlil etish kifoya. Zero, Markaziy Osiyo yirik kuchlar o`rtasidagi geosiyosiy raqobatning asosiy nuqtalaridan biri ekanligi ayon bo`lmoqda⁸⁴.

Markaziy Osiyodagi muvozanatga bevosita ta`sir etishdan manfaatdor bo`lgan Rossiya 2005 yilga kelib o`z budjetida birinchi marta 30 milliard dollarlik yirik daromadga erishdi. Ayni paytda, Rossiya oldida bir tarafdin ichki ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish, ikkinchi tarafdin, ilgari siyosiy mavqeini tiklashdek ulkan va murakkab vazifa turibdi. Rossiyaning Yevroosiyodagi asosiy geosiyosiy “kuch” ekani uning yuqoridagi vazifalarni muvaffaqiyat bilan amalga oshirishiga bog`liq. Chunki geografik mintaqada ulkan quruqlik va qirg`oq hududlarga ega bo`lgan bu davlat muhim geostrategik ahamiyatga ega hisoblanadi. Ya`ni bu mintaqada joylashgan ko`pchilik davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma`rifiy jihatdan Rossiya bilan bog`langan. Shuning uchun ham Rossiyaning ichki ishi bo`lib ko`ringan ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi masalalar uning Yevroosiyoda geosiyosiy muvozanatning buzilishiga yoki aksincha saqlanib qolishi va hatto kuchayishiga ham ta`sir etadi.

Rossiya o`z muammolarini hal etish uchun zarur bo`lgan vaqtni qo`ldan boy bermaslik uchun avvalo MDH hududida tinchlik saqlanib turishidan manfaatdordir.

⁸⁴ Жалилов А. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти. Маърузалар матни.-Т.:Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, 2002,73- бет.

Ayni paytda, Rossiya G'arb ta'siriga tushib qolayotgan MDH davlatlarini o'z ta'sir doirasida saqlab turishga ham harakat qiladi. Ammo Rossiya o'z muammolariga qorishib yotgan bir paytda Boltiqbo'yi davlatlari butunlay Yevropa va NATO tarafiga o'tib ketdi, Ukraina va Gruziya ham shu yo'ldan bormoqda. Bu yo'l natijasi 2014 yilning bahorida Ukrainada mudhish voqealarning sodir bo'lishiga olib keldi. Markaziy Osiyoda esa O'zbekistondan tashqari barcha davlatlar muayyan tashqi ta'sirga dosh berishi yoki xalos bo'lishi qiyin kechmoqda.⁸⁵

SHunday qilib, Yevroosiyo bo'yidagi asosiy qismini egallagan Rossiyaga ham tashqaridan, ham ichkaridan salbiy ta'sir etuvchi jiddiy tahdidlar va muammolar mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ta'biri bilan aytganda, "tabiiy boyliklarining qanchalik ko'pligini tasavvur ham eta olmaydigan"⁸⁶ bu davlatga ko'z tikkanlar talaygina. Xususan, AQSHning geosiyosiy o'yinlarining asl maqsadi katta hududni egallagan siyosiy birlikni tarqatish orqali bu makondagi hayot uchun kerakli bo'lgan barcha zaxiralarni yagona boshqaruvchisiga ega bo'lishdir. Jumladan, sobiq davlat kotibi Madlen Olbrayt "...bu qadar katta hududning bitta davlatga tegishli ekanligi adolatdan emas"ligini ta'kidlab, davlatining geosiyosiy maqsadlarini oshkor etgan edi.

Demak, Rossiya jo'g'rofiy xususiyatlari, maydonining kattaligi, tabiiy zaxiralarning ko'pligiga qaramasdan qator ichki muammolarning hal etilmagan. Jumladan, Yevroosiyo hududida ichki muvozanatga putur yetkazuvchi eng salbiy va o'g'riqli nuqtasi bu – hududlardagi aholi jon boshiga keladigan daromadlarning turlichaligi, hududlar o'rtasidagi rivojlanish tafovutlarning kattaligi va boshqa demografik muammolar hisoblanadi. Shu bois Yevroosiyo bo'yidagi strategik muvozanatini Rossiyaning bir o'zi saqlab qolishi mumkin emas. Buning uchun MDHdagi barcha davlatlarning birligi, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishi talab etiladi. Boshqacha aytganda, bu kabi murakkab masalaning hal etilishi MDH davlatlari, jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi ichki barqarorlik va ular olib boradigan tashqi siyosatiga ham bog'liqdir. Keyin bu hududda strategik muvozanatni saqlash

⁸⁵ Internet ma'lumoti: www.google.uz.

⁸⁶ И.Каримовнинг МДХ давлат раҳбарларининг Санкт-Петербург учрашувига кетиш олдидан ОАВга Тошкент аэропортида берган интервьюсидан.

ham muhim masala sanalib, ushbu muvozanatga ta'sir etadigan davlatlar qatoriga *Ukraina va Belorussiyani* kiritish mumkin. Yuqoridagi kabi ichki muammolar hamda bu muammolarning tashqaridan bo'rttirilishi oqibatida bir necha yillardan buyon inqirozini boshidan kechirayotgan Ukrainada prezident, hukumat va muxolifat o'rtasidagi ziddiyat shu qadar avj olganki, bu mamlakatda sog'lom siyosiy vaziyatni yaratish o'ta murakkab hodisa bo'lib qolmoqda. Chunki dunyo siyosiy kartasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Ukraina davlati joylashgan hudud geosiyosiy jihatdan muhim geostrategik ahamiyatga egadir. Ya'ni Ukraina davlati Yevroosiyo hududiga kiruvchi darvoza vazifasini bajarib, Rossiya poytaxti Moskva shahriga juda yaqin geostrategik zona hamdir. Uzoq o'tmishdan ma'lumki, bosqinchi kuchlar biror davlatni yengmoqchi bo'lishsa, avvalo davlat poytaxti atrofini egallab bu yerni o'z nazortiga olishgan. Shuningdek Ukrainadagi vaziyatning nozik jihati uning G'arb va Rossiya o'rtasidagi geosiyosiy o'yin qurboniga aylanganligiga borib taqaladi. Aynan G'arbdan kelgan kuchlar G'arbiy va SHarqiy Ukraina fenomeniga urg'u berdilar. Albatta, qadimdan inglizlar amal qilib kelgan "nifoq solib, hukmronlik qil" tamoyil G'arb uchun dasturamal bo'ldi. O'z navbatida milliy manfaatlari chegarasining torayib borishiga qarab tura olmagan Rossiya ham tez orada Ukrainaga nisbatan chora ko'rdi va sotiladigan gaz narxini oshirishini e'lon qildi.

Tashqi kuchlar Yevroosiyo mintaqasida o'z ta'sir doirasini kengaytirish maqsadida bir qator mintaq hududidagi davlatlar bilan turli sharnoma va kelishuvlarni yo'lga qo'yishmoqda. Xususan, AQSH tomonidan Ukraina, CHexiya va Polshada Raketaga Qarshi Mudofaa (RQM) tizimini o'rnatish to'g'risidagi 2007 yilning boshidagi e'loni Rossiyaning manfaatlariga navbatdagi zarba bo'lganligini ta'kidlash mumkin. Ma'lumki, Ukrainaning NATO va YIHga qabul qilinishi ehtimoli bir necha yillardan beri ta'kidlanib kelinmoqda. Bu esa jiddiy o'zgarish – ya'ni mamlakat siyosiy, iqtisodiy, qolaversa madaniy yoki yanada kengroq, tamadduniy strategiyasining sharqiy yo'nalishdan G'arb tomon burilayotganini ko'rsatmoqda. Bu o'rinda G'arb olami Ukrainadagi unchalik jiddiy katolik omilini ham ishga solishga harakat qilmoqda. Oqibatda Ukraina va Rossiya tarixida bir necha bor ro'y bergan "ajralish" jarayoni 2014 yilning bahor va yoz oylarida yana bir bor ro'y berdi. Bu

voqea ayniqsa fuqarolar tinchligi va hamfikrligiga rahna solayotgani hech kimga sir emas. Bunday ichki kurashlar davlatlarning inqirozi va tanazzuliga olib kelishi mumkinligini hisobga olgan holda avvalo ichki barqarorlikni ta'minlash zarurdir.

Shu o'rinda *Belorussiya* ham Ukraina singari ikki o't orasiga tushib qolgan. Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyati qarorgohi joylashgan Belorussiya bu tashkilotning rivojlanishi uchun qanchalik harakat qilmasin jo'g'rofiy va geosiyosiy omillar bunga yo'l bermayapti. Chunki Belorussiya Rossiya bilan tarixan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy nuqtai nazardan bog'langandir. Shuning uchun Rossiya va YIH o'rtasida joylashgan Belorussiya ham uzluksiz ikki yoqlama geosiyosiy ta'sir ostida. Bu esa o'z navbatida Rossiya bilan ittifoq tuzish rejasini ham noma'lum muddatga cho'zilishiga sabab bo'lmoqda. Vaziyatning hozirgidagidek davom etishi Belorussiya o'z siyosiy yo'nalishini aniq belgilab olishini bundan keyin ham murakkablashtiraveradi. Bir so'z bilan aytganda, jo'g'rofiy jihatdan Yevropa hududida joylashganligiga qaramasdan Belorussiyaning Yevropa Ittifoqi yoki NATOga kirishi uchun birinchi navbatda u Rossiya bilan kelishuvga erishishi kerak bo'ladi. Aks holda har ikki tarafdagi kuchlar uning tashqi siyosatiga teskari ta'sir ko'rsataveradi. Bu xususida mutaxassislar tomonidan ikki xil qarash mavjud:

Birinchi guruh tarafdorlari fikricha, Belorussiyaning YIHga a'zo bo'lishi eng maqbul yo'l va uning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi, taraqqiyoti kafolati deb hisoblashadi; Ikkinchi guruh mutaxassislari Belorussiyaning tinchligi uchun ham u Rossiya bilan munosabatlarni yaxshilashi eng yaxshi chora deb biladilar. Ya'ni Yevroosiyodagi geosiyosiy voqelikning qay yo'sinda yakun topishi albatta Belorussiya hukumatining qaroriga bog'liqdir.

Kavkaz mintaqasi ham Yevroosiyodagi yangi tartibda faol ishtirok etayotgan mintaqaga hisoblanadi. Chunki keyingi vaqtlarda bu mintaqaning muhim geosiyosiy ahamiyatini oshiruvchi Gruziya, Armaniston va Ozarbayjon kabi davlatlarda sodir bo'lgan o'zgarishlar bunga sabab bo'lmoqda. Jumladan, Rossiyaning azaliy hamkori bo'lgan Gruziyaning mustaqillik yillarida iqtisodiy imkoniyatlarining cheklanib qolishi uni Rossiyaning raqibiga aylantirdi. G'arb bu mintaqada o'ziga sherik sifatida Gruziyani tanlagani bejiz emas. Chunki Gruziya hududida Rossiya bilan mojarli

bo'lgan SHimoliy Osetiya va Abxaziya deb atalgan og'riqli nuqtalar mavjuddir.⁸⁷ Bu kabi hududlarning bo'lishi G'arb siyosati uchun ayni muddao hisoblanadi. Bu kabi muammoli hududlarning ishga solinishi, avvalo Rossiyani tashvishga solish, kezi kelganda esa Gruziyaning o'ziga ham qarshi ishlatilishi mumkin. Shuningdek, bu erda Gruziyaning o'zi bir kun kelib G'arbga qarshi bo'lib qolgan taqdirda millatlararo negizda fuqarolar urushini boshlash ehtimoli nazarda tutilgan. Bunday paytda esa Rossiya ham o'z chegara hududida bo'layotgan jarayonlarga befarq turmaydi, albatta. Bu esa ikki o'rtadagi mojarolarga sabab bo'lishi mumkin. Zero, Gruziya G'arb bilan yaqin hamkorlikka kirishmasdan ilgari Yevroosiyo strategik muvozanatida katta ahamiyatga ega emas edi. Ammo bunday sherikchilik bu davlatning Kavkaz mintaqasidagi strategik ahamiyatini keskin oshirib yubordi. Boshqacha aytganda, biror bir strategik ashyoga ega bo'lmagan kichkina bir davlat to'satdan, qariyb bir asr hamkorlik qilib kelgan Rossiya qo'shinlarini o'z hududidan haydab chiqarishiga va uning strategik raqibiga aylanishiga olib keldi. Shuningdek, bu hududda Rossiyaning manfaatlariga navbatdagi jiddiy zarba bo'ladigan Baku – Tbilisi – Qars neft quvuri loyihasi amalga oshirilmoqda. 2007 yilning fevral oyida e'lon qilingan bu hamkorlik *Ozarbayjon neftini* Gruziya orqali Turkiyaning Qars viloyatiga va undan keyin Yevropaga olib chiqishni nazarda tutuvchi yirik strategik loyihadir.⁸⁸ G'arbning asl maqsadi ham azaldan shunday edi, ya'ni Rossiya manfaatlarini chetlab o'tgan holda Yevroosiyoning boy zaxiralaridan foydalanish edi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, Baku - Tbilisi - Qars quvurining amalga oshishi aynan ana shu maqsadni hayotga tadbiq etilishini anglatadi. O'z navbatida tarixdan ma'lumki, Rossiya ham Kavkaz o'lkasi hududlaridan o'zining iqtisodiy manfaatlari doirasida hamkorlik va daromadli kelishuvlarni amalga oshirib kelgan.

Evroosiyoda o'z mavqeini muntazam oshirib kelayotgan Markaziy Osiyo mintaqasining ham geosiyosiy ahamiyati o'ziga xos. Mintaqadagi hududi eng katta davlat bu – Rossiyaga qo'shni davlat *Qozog'iston* hisoblanadi. Qozog'iston MDH,

⁸⁷ А.Жалилов, Г.Туленова “Геосиёсат” фанидан услубий қўлланма. Т., 2008, 62-бет.

⁸⁸ Internet ma'lumoti: www.google.uz

SHHT va Yevroosiyo Hamkorlik Tashkilotining faol a'zosi hisoblanadi. Bu tashkilotlarga a'zolik Qozog'iston tashqi siyosatining to'liq Yevroosiyo hududiga yo'naltirilganini namoyon etadi. Biroq keyingi vaqtlarda Qozog'istonning o'zi a'zo bo'lgan mintaqaviy tashkilotlar nizomlariga va shu hududdagi davlatlar manfaatlariga zid hatti-harakatlar qilayotgani ayon bo'lmoqda. Ya'ni ayrim geosiyosiy nazariyotchilari ko'p bora uqtirishganidek, davlat yerining kattaligi, hududining chegara uzunligi qanchalik uzun va katta bo'lsa, bu hududga nisbatan qiziqish va tahdid shunchalik kuchli bo'ladi, deb hisoblashgan. Aynan Qozog'iston hududining kattaligi, tabiiy boy zaxiralarining mavjudligi hamda Rossiya va Markaziy Osiyo oralig'ida joylashgan muhim strategik makonda joylashganligi G'arb davlatlari uchun ayni muddao bo'lib, bu makonni o'z manfaatlari doirasiga qo'shishlari tabiiy geosiyosiy jarayondir.

2005 yil dekabrda Vladivostokda Rossiya, Hindiston va Xitoy tashqi ishlar vazirlari – Sergey Lavrov, Natvar Singx va Li CHjaosining tarixiy uchrashuvi bo'lib o'tdi. Rossiya tashqi siyosat mahkamasining sobiq rahbari Evgeniy Primakovning *Moskva – Pekin – Dehli* “strategik uchburchagi”ni tashkil etish to'g'risidagi g'oyasi nihoyat amalga oshadigan bo'lib turibdi. Ushbu al'yans nazariyotchisi rejalashtirganidek, “uchburchak”ning asosiy vazifalaridan biri AQSHning dunyodagi yakka hukmronligiga qarshi turishdan iborat. Ayrim kuzatuvchilar tuzilajak yangi ittifoqning maqsadi gegemon davlatlarning turli demokratik niqoblar ostida o'z manfaatlarini ko'zlovchi “rangli inqilob”lar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat ekanligiga ishora qilmoqdalar.⁸⁹

Jumladan, rivojlangan AQSH davlatining yirik kompaniyalari Qozog'iston g'arbidagi SHimoliy Kaspiy shelfida joylashgan eng yirik konlar hisoblangan Tengiz va Qorachig'anoq konlaridan bir necha yillardan beri neft qazib xorijga eksport qilmoqda.⁹⁰ Bunday hamkorlik esa o'z navbatida Qozog'istonni iqtisodiy jihatdan AQSHga qaram bo'lib qolishiga va uning manfaatlari doirasida ish qilishga, ayni paytda MDH manfaatlariga putur yetkazishiga olib keldi. Bu esa Qozog'istonning

⁸⁹ Учлик «Рангли ўйин»ларга қарши. XXI аср. 2005й. 20 декабр.

⁹⁰ А.Жалилов, Г.Туленова “Геосиёсат” фанидан услубий қўлланма. Т., 2008, 67-бет.

G'arbdagi iqtisodiy sheriklar manfaatlariga oid ayrim majburiyatlarni o'z zimmasiga olganligini namoyon etadi. SHuni ta'kidlash kerakki, Qozog'istonning neftga boyligi bundan keyin ham unga turli tahdidlar mavjudligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, *Qirg'iziston* SHHT a'zosi sifatida, o'z hududida chet el ya'ni, bu tashkilotga a'zo bo'lmagan davlatlarning harbiy qismlarini saqlamaslik majburiyatini zimmasiga olgan. SHuni ta'kidlash kerakki, SHHT talabi bilan "Manas" aeroportidan AQSH harbiy bazasining chiqarilishi Qirg'izistonda ijtimoiy-siyosiy vaziyatning yanada chigallashuviga olib kelishi mumkin. Hozirgi vaqtda tashqi kuchlar tomonidan mamlakatni janub va shimolga bo'lib yuborish, janubiy viloyatlar –O'sh, Jalolobod va Batken hududida faoliyat olib borayotgan radikal kuchlarning qo'llab-quvvatlanishi butun Farg'ona vodiysidagi barqarorlikka putur yetkazishi mumkin.

Qirg'iziston hukumatining janubiy viloyatlardagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni to'liq nazorat qila olmayotganligi, turli nodavlat notijorat tashkilotlari niqobi ostida tashqi kuchlarning erkin faoliyat yuritayotgani, shuningdek, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasidagi chegaralarning zaifligi bu mamlakatni katta geosiyosiy o'yin qurboniga aylantirmoqda⁹¹. Natijada Qirg'iziston SHHT va Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyati oldidagi majburiyatlarini bajarishiga xalaqit bermoqda. Yevroosiyoda strategik muvozanatni saqlash, uni tashqi kuchlar ta'siridan himoyalash maqsadida tashkil etilgan shu kabi tashkilotlar Qirg'izistondan bu borada izchil siyosat va oqilona siyosat yuritishni talab etadilar.

Markaziy Osiyodagi strategik muvozanatda *Tojikistonning* ham o'ziga xos o'rni mavjud. Chunki Tojikiston hududi geosiyosiy jihatdan bufer zona ya'ni, G'arb va Sharq kuchlari manfaatlari to'qnashgan Afg'oniston bilan chegaradosh davlat hisoblanadi. Afg'oniston va Pokistonning shimoliy hududlarida joylashgan terroristik guruhlarining Tojikiston orqali Qirg'izistonga bema'lol o'tishi va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlariga hujum qilishi bu mamlakatdagi vaziyat ham geosiyosiy ta'sir doirasida ekanini yaqqol namoyon etadi. AQSH Tashqi ishlar vaziri o'rinbosari R.Baucher 2006 yilda ikki marta Tojikistonga kelib mamlakat Tojikiston rahbariyati

⁹¹ Мухаммеджанов Б. Потеря властями Киргизии контроля над правоохранительными органами приведет страну к распаду. -Кремль., 2006, 8 ноябр.

bilan Markaziy Osiyodagi geosiyosiy vaziyat xususida suhbatlashdi.⁹² Tojikistonning turli sohadagi mutaxassislari qator dasturlar orqali AQSHga malaka oshirishga yuborildi. G'arbiy davlatlar turli xalqaro dasturlar doirasida Qirg'iziston va Tojikistonga million dollar miqdorida moddiy-texnikaviy yordam ko'rsatmoqda. Tojikistonning bunday siyosati MDH, Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyati va SHHT oldidagi majburiyatlarini bajarishga ma'lum ma'noda to'sqinlik qilishi mumkin. Tojikiston davlati yuqorida keltirilgan tashkilotlarga a'zo bo'la turib, ularning siyosatini qo'llab-quvvatlash o'rniga, G'arb davlatlari ta'siriga tushib qolmoqda.

Turkmaniston olib borayotgan tashqi siyosati shuni ko'rsatadiki, bu mamlakat o'zining betaraflik pozitsiyasi tufayli Markaziy Osiyoda kechayotgan geosiyosiy jarayonlardan chetda kuzatuvchi davlat bo'lib turmoqda. Shuningdek, mamlakat ichkarisida olib borilayotgan siyosat esa turkmanlarning o'z qobig'iga o'ralishiga va tashqi dunyo bilan aloqalarining kamayishiga olib kelmoqda. Turkmaniston nafaqat O'zbekiston, balki MDH bilan ham ana shunday beqaror siyosat olib bormoqda. Bunday siyosat Turkmaniston uchun juda salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Turkmaniston betaraf bo'lishiga qaramasdan, Markaziy Osiyodagi geosiyosiy jarayonlardan chetda qolishi mumkin emas. Chunki G'arb davlatlari ham uning bunday siyosatiga norozilik kayfiyatini bildirib, o'z ta'sir doirasini kychaytirishga harakat qilib kelmoqda. Xullas, Turkman davlatchiligining kelajagi mintaqadagi geosiyosiy vaziyatni uning rahbariyati tomonidan teran anglanishiga bog'liq bo'lib qoldi. Bunday vaziyatda Turkmaniston siyosiy sahnasida muayyan jonlanish ro'y berishi tabiiydir. Bir so'z bilan aytganda yangi tuzum shakllantirilmaguncha Turkmaniston mintaqadagi eng beqaror mamlakatga aylanib qolishi mumkin. SHuni ta'kidlash kerakki, tuzilgandan buyon bu tashkilot Yevroosiyaning turli mintaqalaridagi geosiyosiy bosim tufayli jiddiy muvaffaqiyatga erishganicha yo'q. Boshqacha aytganda, a'zo davlatlarning ba'zilar hanuzgacha g'arbiy kuchlar ta'sirida mustaqil siyosat yurita olmayapti. Bu esa tashkilot oldida turgan amaliy ishlarning oqsashiga olib kelmoqda. MDHning takomillashuviga ehtiyoj sezilayotgan bir paytda ma'lum darajada uning o'rnini bosishi mumkin bo'lgan Yevroosiyo

⁹² www.google.uz

Iqtisodiy Hamjamiyatining kuchayishi o`rniga zaiflashuvi mintaqadagi strategik muvozanatga salbiy ta'sir ko`rsatadi. Bu tashkilotga O`zbekiston a'zo bo`lguniga qadar u qaysidir ma'noda tugal bir shaklga ega bo`lmagan edi. Boshqacha aytganda, Markaziy Osiyoda asosiy geosiyosiy mavqega ega bo`lgan O`zbekiston Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyatiga a'zo bo`lmagan paytda, ushbu tashkilot jiddiy istiqbolga ega ekanligiga barcha shubha bilan qarar edi. Endi esa bu tashkilot har tarafdan kuchli pozitsiyaga ega bo`lgan Rossiya va O`zbekiston singari a'zolarga ega bo`lganligi tufayli bojxona ittifoqi, yagona iqtisodiy makonni shakllantirish uchun aniq imkon tug`ildi.

Hozirgi davrda Markaziy Osiyodan o`z iqtisodiy manfaatlarini qidirayotgan tashqi kuchlar turli usullar bilan bu yerdagi davlatlar suverenitetiga tahdid solayotganligi hech kimga sir emas. Ular bu bilan nafaqat yoqilg`i zaxiralariga egalik qilish, balki Evroosiyaning markazi bo`lgan "Yer yuragi"ni zabt etishni ham maqsad qilgan. Bu NATOning SHarqqa siljishi, AQSHning 2007 yilning boshida e`lon qilingan CHexiya, Polsha va Ukrainada Raketaga Qarshi Mudofaa (RQM) tizimini o`rnatishga qaratilgan siyosatida ham ochiq namoyon bo`lmoqda.

SHunday qilib, mamlakatimiz atrofida kechayotgan geosiyosiy hudud va kuch hodisasi o`ziga xos ahamiyatga ega. Yetakchi kuchlarning Markaziy Osiyodagi geosiyosatiga qarshi tura oladigan tuzilmalarning kuchayishi, mintaqadagi davlatlarning izchil va qat'iy tashqi siyosati, Yevroosiyo yo`nalgan aniq pozitsiyasiga ko`proq bog`liq ekani namoyon bo`lmoqda. Aks holda bu hududda geosiyosiy vaziyat tubdan o`zgarishi va yangi strategik tartibot vujudga kelishi mumkin. Har qanday holatda ham Yevroosiyo'dagi strategik muvozanatning tashqi kuchlar nazoratida qolishi mahalliy xalqlar uchun jiddiy sinov bo`ladi. Bunday murakkab holatni oldini olish uchun mintaqadagi vaziyatning barqarorlashuviga xizmat qiladigan SHHT singari tuzilmalar faoliyatining takomillashtirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratish zarur.

3.2. Xalqaro tashkilotlarning dunyodagi tinchlik va barqarorlikni saqlash yo`lidagi faoliyati.

Tarix shundan guvohlik beradiki, yer yuzida keyingi 5 yarim ming yilning atigi 300 yiligina tinch va osoyishta o`tgan. Qolgan vaqtlarda 15 mingdan ko`p har xil urushlar bo`lib o`tgan. Bu urushlar birgina Yevropada XVII asrda 3 mln, XVIII asrda 5 mln.dan ko`proq, XIX asrda 6 mln, XX asrda esa 70 mln.dan ortiq kishining hayotiga zomin bo`lgan.⁹³ Bundan ko`rinib turibdiki, davlatlar o`rtasidagi munosabatlarni “kuchga tayangan holda” hal etish insoniyat boshiga og`ir musibatlarni keltirib chiqarishi aniq. Shundan kelib chiqqan holda bugungi kunda tinchlik va barqarorlikni saqlashda xalqaro munosabatlarni yo`lga qo`yishda xalqaro tashkilotlarning ahamiyati yanada oshadi.

XXI asr bo`sag`asida jahon hamjamiyatida muhim o`zgarishlar sodir bo`lmoqda. Xalqaro munosabatlarning xarakteri va mazmunida, tuzilishida katta o`zgarishlar kuzatilmoqda. Dunyoning turli mintaqalarida vujudga kelayotgan xavf-xatar, nizo va ziddiyatlar hamda qarama-qarshiliklar tobora kuchayib borayotganini, ular tinch yo`l bilan hal etilmasdan, aksincha, keskinlashayotganini afsus bilan tan olishga majburmiz. Bu esa xalqaro munosabatlar tamoyillari qayta ko`rib chiqishni, uni yangicha idrok etishni taqozo etmoqda. Hozirgi zamon xalqaro aloqalarida xalqaro tashkilotlar davlatlar hamkorligining shakillaridan biri sifatida muhim rol o`ynaydi. Xalqaro tashkilotlar tizimining murakkablashib borishi va vakolatlarning kengaytirilishi tabiiy tus olmoqda. XXI asr boshida faoliyat ko`rsatayotgan xalqaro tashkilotlarning soni 4 mingdan ortiq bo`lib, 300 tasi hukumatlararo tashkilotlardir.⁹⁴ Ular o`rtasidagi aloqalar va olib borilayotgan hamkorlik ko`lami xalqaro tashkilotlar tizimini mustahkamlashni taqozo etadi.

“Xalqaro tashkilotlar” atamasi odatda davlatlararo (hukumatlararo) va nohukumat tashkilotlarga nisbatan qo`llaniladi. Davlatlararo tashkilot uchun quyidagi belgilar xarakterlidir:

⁹³ О. А. Проскурин. Баланс интересов государств – основы прогресса цивилизации. 1991. 465-бет

⁹⁴ А. Х. Саидов. Халқаро ҳуқуқ. Т., 2001, 169-бет.

- davlatlarning a'zoliqi;
 - xalqaro ta'sis shartnomasining mavjudligi;
 - doimiy organlarning mavjud bo'lishi;
 - davlatlaro suverenitetining hurmat qilinishi kabilardan iborat.⁹⁵
- Nohukumat xalqaro tashkilotlarning asosiy farqli belgilari ularning davlatlararo shartnoma asosida tashkil etilmaganliklari, jismoniy va yuridik shaxslarni birlashtirganliklaridan iborat. Xuddi mana shu tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va ishonchni mustahkamlash dunyoda tinchlikni saqlashning mustahkam poydevori hisoblanadi. Chunki, hozirgi davrda dunyoning turli burchaklarida turli xil ixtiloflar mavjud. Bunday ixtiloflarni yaqin yillarda sodir bo'lgan Rossiya hududidagi Checheniston va Ukraina voqealarida, Tojikiston, Afg'oniston, Falastin va Isroil munosabatlarida va boshqa ayrim davlatlarda bo'layotgan o'zaro kelishmovchiliklar, ixtiloflarda ko'rish mumkin. Ularning ko'lami xilma-xil bo'lib mintaqalararo, davlatlararo, mamlakatning o'z ichida sodir bo'lmoqda. Aynan shuning uchun ham yuqorida keltirilgan xalqaro va mintaqalararo tashkilotlar o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etilib, ular o'rtasidagi aloqalar umumjahon manfaatlariga mos ravishda tashkil etilishi lozim. Markaziy Osiyo jumladan, O'zbekiston davlati hududiga xavf soluvchi umumbashriy muammolar haqida Prezident I. A. Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida fikr yuritib, butun dunyo xavfsizligi va uning taqdriga daxl qiluvchi quyidagi tahdidlarni: mintaqaviy mojarolar, diniy ruhdagi ekstremizm va fundamentalism, buyuk davlatchilik shovinizmi va millatchilik, etnik, millatlararo mahalliylik va urug'-aymoqchilik asosidagi ziddiyatlari, korrupsiya va jinoyatchilikni, ekologik muammolarni ko'rsatadi.⁹⁶ Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun ham O'zbekiston bugungi kunda juda ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni va mintaqaviy hamkorlikni yo'lga qo'yib olgan. Jumladan, bugungi kunda O'zbekiston 120 ta davlat bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madniy aloqalar o'rnatildi. Toshkentda 44

⁹⁵ А. Х. Саидов. Халқаро ҳуқуқ. Т., 2001, 169-бет.

⁹⁶ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.1997, 14-бет.

mamlakatning elchixonasi ochildi. O'zbekistonda 88 xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 hukumatlararo va 13 nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.⁹⁷ Shuningdek, 9 ta faxriy konsul, 10 ta xalqaro tashkilot vakolatxonalari, 5 ta xalqaro moliyaviy tashkilot vakolatxonalari, 3 ta savdo vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda. O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining 46 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari chet davlatlarda va xalqaro tashkilotlar huzurida, shu jumladan, Nyu-York shahrida BMT huzuridagi doimiy vakolatxonasi hamda Jeneva shahrida BMTning Yevropa bo'limi va boshqa xalqaro tashkilotlari huzurida faoliyat yuritmoqda.

- O'zbekiston Respublikasi 1993 yilning 22 yanvarida Jahon meteorologiya tashkilotiga (JMT) a'zo bo'ldi. O'zgidromet Bosh direktori esa Hukumat qaroriga binoan JMTda O'zbekiston Respublikasining doimiy vakili sifatida faoliyat yuritadi. O'zgidromet JMTning barcha dasturlarini amalga oshirishda faol ishtirok etib kelmoqda. 1967 yildan beri O'zgidromet Jahon ob-havo xizmati tizimidagi Regional meteorologik markazlardan birining vazifasini bajarib, o'ziga birlashtirilgan mintaqada meteorologik axborotlarni yig'ish va tarqatish bo'yicha zimmasidagi vazifalarni to'laraligicha amalga oshiradi. 2005 yilda Bryusselda o'tgan 3–ministrlar sammitida GEOSS yaratish 10 yillik rejasi (2005–2015 yy.) qabul qilindi. Ushbu reja GEO faoliyatining asosini tashkil etib, quyidagi vazifani bajaradi: keyingi o'n yillik davomida xalqaro hamjamiyat, hukumatlararo, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar Yer ustidan kuzatuvlar tizimining Global tizimi – GEOSS ni yaratish uchun qo'yan asosiy qadamlarini umumlashtiradi. O'zbekiston Respublikasi 100 dan ziyod xalqaro tashkilot a'zosidir.⁹⁸ Ular orasida ayniqsa BMT, ShHT, MDH, KXSHT nufuzli tashkilotlardir. Yevropa Ittifoqi va NATO bilan yaqin hamkorlik aloqalari rivojlanmoqda. Teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik tamoyili asosida turli davlatlar bilan keng ko'lamli aloqalar o'rnatilishi O'zbekistonga jahon xo'jalik aloqalari tizimiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuv, xalqaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalarni faol o'rnatish uchun imkoniyat yaratadi. Bugungi

⁹⁷ Q. Usmonov. O'zbekiston tarixi. II-qismi. T., 2011, 248-bet.

⁹⁸ Internet ma'lumoti: www.google.uz

kunda bizning yaqin va olis yon-atrofimizda vujudga kelayotgan vaziyatga baho berar ekanmiz, xalqaro xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlarning ko'lamini kengayib borayotganini, ya'ni, paydo bo'layotgan qarama-qarshiliklarni hal etishda kuch ishlatishga zo'r berish ustunlik qilayotgani, xomashyo resurslari va kommunikatsiyalar ustidan nazorat qilish bo'yicha geosiyosiy raqobatning oshgani, yadro texnologiyalari va ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishi, xalqaro terrorizm va ekstremizmning keng tarqalayotgan ekspansiyasining faollashuvi, millatlar va konfessiyalararo mojarolarning kuchayayotganini e'tirof etish lozim.

Biz suveren O'zbekistonning Qurolli Kuchlarini tashkil etish jarayonida harbiy qurilish sohasida meros bo'lib qolgan tajribadan to'g'ridan-to'g'ri nusxa ko'chirishdan voz kechib, aniq va real geostrategik va geosiyosiy sharoitni, zamonaviy urushlar va qurolli mojarolarning qanday xususiyatlarga ega ekanini har tomonlama hisobga oldik, Markaziy Osiyo mintaqasida yuz berishi mumkin bo'lgan harbiy harakatlar teatrining o'ziga xos jihatlari tahlilidan kelib chiqib ish tutdik va shuningdek, o'zimizning azaliy milliy fazilat va an'alarimizga tayandik. AYSAF deb nom olgan tinchlikparvar kuchlarning Afg'onistondan olib chiqib ketilishi Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha mamlakatlar uchun jiddiy sinovga aylanmoqda. Iroqdagi achchiq tajriba yaqqol ko'rsatganidek, Afg'onistonda yuzaga keladigan har qanday bo'shliqni bu mintaqaning katta hududiga o'zining vayronkor ta'sirini yoyishga qodir bo'lgan turli buzg'unchi va terrorchi guruhlar, fanatik kuchlar qisqa fursatda egallab olishi mumkin.⁹⁹ Ma'lumki, Afg'oniston muammosi bo'yicha 2010-yil 22-sentabrda BMT sammiti Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisida 2008-yilda taklif etilgan 6+3 guruhi ya'ni AQSh-Rossiya-NATO hamkorligida tashkil etilgan edi.¹⁰⁰ Joriy yilda NATO boshchiligidagi xalqaro qo'shinning Afg'oniston hududidan chiqib ketishi yakunlanadi. NATO tomonidan e'lon qilingan bayonotga ko'ra, umumiy miqdorda

⁹⁹Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. 23.01. 2015y

218 000 transport va konteynerlar 2012-yil martidan 2014-yil 31-dekabrigacha bo'lgan vaqt ichida Afg'onistondan olib chiqilishi kerak. Hozirga kelib 80 000 transport va konteyner olib chiqib ketildi. 2014-yil chiqib ketishning eng so'nggi va asosiy bosqichi bo'lib, ayni vaqtda qolgan yuklar uchta yo'nalishda olib chiqildi. Quyida uch asosiy yo'lni ko'rishingiz mumkin: Havo yo'li: Yuklar havo orqali Fors Ko'rfazi va O'rta Yer dengizidagi portlarga yetkaziladi. U yerdan suv yo'li orqali kerakli manzilga olib ketiladi; Quruklik yo'li (janub): Chiqib ketish uchun eng qulay yo'l. Bu yo'l Pokiston hududi orqali o'tib, Karachidagi dengiz portiga borib tugaydi. Biroq 2011-yil Pokiston va AQSh o'rtasida kelib chiqqan ixtilof tufayli buy yo'ldan foydalanish imkoniyatlari anchayin kamaygan; Avtomobil va temiryo'l yo'li (shimol): Shimoliy Ta'mino armog'i nomi olgan bu yo'ldan yuklar O'zbekiston, Qozog'iston orqali Gruzziyaga yoki Rossiya orqali Latviyaga yetkaziladi.¹⁰¹

Jumladan Ukraina voqealari ham bugun butun jamoatchilikni tashvishlantirayotgani ham hech kimga sir emas. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning maslahatchisi Sergey Glazyev AQShni 1994-yilda Rossiya-AQSh o'rtasida Ukraina yuzasidan imzolangan Budapesht Memorandumini buzishda ayblab chiqdi. Glazyevning da'vo qilishicha, AQSh ukrainalik namoyishchilarni har tomonlama dastaklab, mamlakatda davlat to'ntarishi uyushtirishga harakat qilmoqda. Rasmiy malimotlarga ko'ra, Rossiya yon qo'shnisini chuqur geosiyosiy qiyinchilikdan omon saqlab qolish maqsadida harbiy intervensiya uyushtirishi mumkin.

Vladimir Putinning sobiq maslahatchisi, siyosatshunos Andrey Illarionov Rossiyaning Ukraina masalasini hal qilish yo'lidagi to'rt ehtimoliy qadamni keltirib o'tadi:

- Rossiyaga sodiq biror shaxs hokimiyatga keltirilib, uning yordamida butun Ukraina nazorati qo'lga kiritiladi. Biroq ukrainlarning siyosiy faolligi, ular orasida yevropaparastlar ulushi ko'pligi va G'arbning qarshiligi tufayli bu qadamning amalga oshish ehtimoli deyarli yo'q;

¹⁰¹ Internet ma'lumoti: www.mtrk.uz

- Federatsiya yoki konfederatsiya tamoyillari orqali Ukrainaning sharqiy va janubiy hududlarida nazorat o`rnatiladi. Ma'lumki, bu hududlarda aholi amaldagi hukumatga nisbatan xayrihoh va ruslarning aholi sonidagi nisbati 30 foizdan yuqori;
- Mobodo federatsiya shakllantirish urinishi amalga oshmasa, u holda, Rossiya faqatgina alohida shaharlar, masalan, Odessa, Donetsk, Lugansk va Qrim yarimorolida nazorat o`rnatishga harakat qiladi;
- Agar Sharqiy Ukraina bo`ysunmasa, faqatgina ruslarning ulushi 50 foizdan yuqori bo`lgan Qrim va Sevastopol ta'sir ostiga olinadi, xolos.

Illarionovning fikricha, Ukraina inqirozga yuz tutgan davlat bo`lib, Rossiya bir vaqtlar o`z tarkibida bo`lgan qardosh hududlar ustidan nazoratni tiklash imkoniyatini boy bermasligi zarur. O`sha yili Buxarestda bo`lib o`tgan NATO Sammitida prezident Vladimir Putin Ukraina tarixiy anglashilmovchilik tufayli Rossiya hududida yaratilgan davlat ekanligini ta'kidlagan edi. Putin rahbarligida ostida o`z qudratini qayta tiklayotgan Rossiya post-sovet hududlaridagi ta'sirini har tomonlama oshirishga harakat qilmoqda. Demak, Sergey Glazyev aytganidek, harbiy intervensiya ehtimoli ham anchayin katta.

O`zbekistonning Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish lozimligi to`g`risidagi tashabbusini BMTning havfsizlik kengashi qo`llab-quvvatladi. 1997 yil 9 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 52 sessiyasi "Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona yaratish" haqida rezolyutsiya qabul qildi. Bu O`zbekiston tashqi siyosatining ulkan g`alabasi bo`ldi.

O`zbekiston Prezidentining tashabbusi va faol harakati natijasida Markaziy Osiyo mamlakatlari o`rtasida xalqaro terrorizmga, diniy ekstremizmga, uyushgan jinoyatchilikka qarshi birgalikda kurashish to`g`risida ikki va ko`p tomonlama hamkorlik yo`lga qo`yilgan. Prezidentimiz BMT ning "Ming yillik sammiti"dagi nutqida YUNESKO Bosh direktorining mamlakatimizga safari davomida muzokarlarda, yurtboshimizning MDH mamlakatlari va rivojlangan davlatlar rahbarlari bilan uchrashuv paytidagi muzokarlarda Markaziy Osiyoda tinchlik,

barqarorlik va havfsizlikni ta'minlash, Afg'oniston muammosini tinch yo'l bilan hal etish, xalqaro terrorizm va ekstremizmga, giyohvandlik kantrabandasiga va uyushgan jinoyatchilikka qarshi hamkorlikda kurashish to'g'risida fikrlar bildirildi.

2000 yilning 19-20 oktabrda Toshkentda "Markaziy Osiyoda havfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, narkotik moddalar, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashga hamkorlikda yondashuv" nomli xalqaro anjuman bo'lib o'tdi.¹⁰²

Anjuman BMT ning narkotik moddalar nazorati boshqarmasi va Yevropa havfsizlik va hamkorlik tashkiloti tomonidan o'tkazildi. Unda 67 mamlakat, 44 xalqaro tashkilot vakillari qatnashdi. Anjuman ishtirokchilari Markaziy Osiyoda narkotiklarning noqonuniy savdosi, uyushgan jinoyatchilik va terrorchilikka qarshi kurash bo'yicha hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini belgilab oldilar. Anjuman xujjatida Markaziy Osiyo davlatlari hamkorlikni milliy, hududiy va xalqaro miqyoslarda mustahkamlash va muvofiqlashtirish lozimligi qayd etildi.

Bundan ko'zlangan maqsad – narkotiklarning noqonuniy savdosi, uyushgan jinoyatchilik, terrorchilik illatlari va ularning o'zaro chirmashib ketishining oldini olish, nazorat qilish va tag-tomiri bilan yo'q qilishdan iborat. Bunda inson huquqlari, qonun ustuvorligiga to'la rioya qilinadi.¹⁰³ Tinchlik va hamkorlikka bag'ishlangan ko'plab uchrashuv va anjumanlarning Toshkent shahrida o'tkazilayotganligi, Respublikamiz poytaxtining dunyodagi siyosiy markazlardan biriga aylanib borayotganligidan dalolatdir. Jahonning eng taraqqiy topgan mamlakatlari bilan yaqindan aloqa o'rnatish, yetakchi xalqaro iqtisodiy, moliyaviy hamda insonparvarlik tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish davlatimizning jahon hamjamiyatiga keng miqyosda integratsiyalashuvi mintaqada havfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.Karimov tomonidan olib borilayotgan tashqi siyosiy faoliyat, halqaro doiradagi munosabatlar Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik tashkilotining (YXHT) maqsad hamda qarashlariga ham mos keladi. SHu

¹⁰² Интернет маълумоти: геополитика.uz

¹⁰³ Ўзбекистон ташаббуси – тинчлик. Ўзбекистон овози. 2001й. 27 декабр.

bois, 1992 yildayoq, O'zbekiston ushbu tashkilotga qabul qilindi. SHu yilning fevralida bo'lib o'tgan a'zolik to'g'risidagi hujjatni imzolash marosimida Prezidentimiz alohida ta'kidlab o'tganidek, Yevropa bilan teng huquqiy aloqalar o'rnatilishi mamlakatimiz va uning mustaqilligi uchun muhim hayotiy ahamiyat kasb etadi. 1994 yilning dekabrda esa Prezident I.Karimov YXHT ning Budapeshtda bo'lib o'tgan forumida ishtirok etib, Yevroosiyo mintaqasida havfsizlikni mustahkamlashga doir yangi takliflar bilan chiqdi. Ya'ni, turli siyosiy tuzumlarga ega mamlakatlarning gullab-yashnashi uchun yagona yo'l tinchlik va barqarorlikni saqlash, xalqaro hamkorlikni kengaytirishdangina iborat ekanligiga e'tibor qaratdi.

O'zbekiston "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturida ishtirok etar ekan, asosan o'z mustaqilligini mustahkamlash, zamonaviy harbiy-texnik imkoniyatlarini qo'lga kiritish, harbiy kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirishni maqsad qilib qo'yadi. Umuman Evropa va butun g'arb – bu yuqori texnologiya va investitsiyalar manbai, zamonaviy demokratiya va inson huquqlari ramzidir. O'z oldiga havfsizligi ta'minlangan, taraqqiy etgan davlat qurishni maqsad qilib qo'ygan yosh O'zbekiston uchun bunday sheriklar bilan teng munosabatlarga kirishish, tabiiyki, beqiyos ahamiyat kasb etadi. ¹⁰⁴ Hozirgi dunyoda kechayotgan yangi geosiyosiy jarayonlar xali to'la shallanib, tugal bir ko'rinishga ega bo'lmagan voqealikdir. Yangi voqealik o'zining mustahkam huquqiy va siyosiy mezonlarini topish, ishlab chiqish va qabul qilish ostonasida turibdi. BMT Bosh Assambleyasi va xavfsizlik kengashi xalqaro munosabatlar, muammolar, mojaroli vaziyatlar va taxdidlar bo'yicha bir qator qarorlar va rezolyutsiyalar qabul qilayotgan bo'lsada, ushbu hujjatlarning amaliy ijrosidan hech kimning ko'ngli to'layotgani yo'q. Yana bir muammo shundaki, xalqaro hamjamiyat a'zolarida ba'zi masalalar yuzasidan xolis hamjixatlik yo'qligi, bir muammoga ikki xil qarash mavjudligi ishlarning olg'a siljishiga xalaqit bermoqda.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov o'zining har bir chiqishida, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvlarida xalqni ogohlikka, xushyorlikka,

¹⁰⁴ Кубайев О. Мақсад – минтақавий хавфсизлик. Жамият ва бошқарув. 2002й. 1-сон. 71 бет.

tinchlik va barqarorlikni asrashga da'vat qiladi. Bugungi kunda Yaqin Sharqda o'zlarini go'yoki, butun dunyoning bo'lajak xo'jayini deb his qilayotgan *Iroq va SHom islom davlati (ISHID)* nomi bilan faoliyat olib borayotgan salafiy-jihodiy yo'nalishidagi terroristik qurolli guruh jaholatparast jangarilari tomonidan amalga oshirayotgan xunrezliklar insoniylik sha'niga, musulmonlar sha'niga, qolaversa butun insoniyat sha'niga chaplangan bir jirkanch dog' misoli namoyon bo'lmoqda.

ISHID kuch-quvvatni qayerdan olmoqda? Uning moliyaviy manbai – Al Qoidaning jinoyatkorona yo'l bilan, giyohvand moddalar savdosi, qurol yarog' savdosi, odam savdosi orqali topilgan jirkanch mablag'larini meros qilib olish va Iroq va Suriya aholisini talon-taroj qilish, Iroq bankiga qaroqchilik usuli bilan bostirib kirib 500 milliard dinor naqd pulni o'marish, Iroq va SHom hududidagi neft va gaz kompaniyalarini zo'ravonlik bilan bosib olib, qo'shni mamlakatlarga arzon-garovga sotish evaziga iflos yo'llar bilan topilgan mablag'dir. Bu mablag'larda beva-bechoralarning, yetim-yesirlarning, jafokash Yaqin SHarq aholisining haq-huquqlari mujassamlashgan. Bu jinoyatlari uchun har bir ISHID jangarisi insoniyat qarshisida javob berajak.

ISHIDning hozirgi yetakchisi Abu Bakr Bag'dodiy. U 2006 yildan buyon qo'poruvchi jangari Abu Umar Bag'dodiy yetakchilik qilib kelgan jinoyatchilar guruhiga, 2010 yil 19 aprelda, Abu Umar o'ldirilgandan keyin, rahbarlik qila boshlagan. Guruh 2013 yil oxiridan 2014 yil boshlarigacha Iroqning Faluja shahrining katta qismini egallab oladi. 2014 yil 17 iyulda Himsdagi "ash-SHoir" gaz konini egalladi. 2014 yil 29 iyunda Islomiy xalifalik tuzilgani va Abu Bakr Bag'dodiyga musulmonlar xalifasi sifatida bay'at qilinganini e'lon qildi va Abu Muhammad Adnoniy ISHID nomidan Iroq va SHom so'zlari chiqarilib, endi bu davlat "Islom davlati" deb nomlanishini ma'lum qildi.¹⁰⁵

Abu Bakr Bag'dodiy guruhi juda ko'plab qo'poruvchilik faoliyatini amalga oshirib, Iroq markaziy bankini talash, Adliya vazirligidagi qonxo'rliklar, Abu G'urayb va Hut qamoqxonalariga bostirib kirib yovuz jinoyatchilarni ozod qilish, Eron elchixonasini portlatish, aeroport va boshqa strategik ob'ektlarni zo'ravonlik

¹⁰⁵ Internet ma'lumoti: www.google.uz.

bilan egallash kabi yovuzliklarni sodir etishdi. Abu Bakr Bag`dodiyning ikki nafar asosiy yordamchisi bor. Bular: Abu Ali Anboriy; u harakatning Suriyadagi harbiy harakatlarini boshqaradi. U Saddam Husayn armiyasining sobiq generalidir. Ikkinchisi, Abu Muslim Turkmoniy; u Iroq armiyasida yetakchi razvedka mutaxassisi bo`lgan.

Germaniyadagi Maynz universitetining Arab dunyosi tadqiqot markazi mudiri Gunter Mayerning ma'lumotlariga qaraganda ISHIDni arab ko`rfazidagi bir qator boy davlatlar - Saudiya, Qatar, Quvayt va Birlashgan Arab Amirliklari moliyalashtirmoqda.<sup>106</sup> ISHIDchilar o`zlarini sunniylarmiz deb e`lon qilib, na faqat boshqa din qavmlariga, balki boshqa diniy yo`nalishdagi musulmonlarga, xususan, shialiklarga ham qarshi shafqatsiz yovuz kurash olib bormoqda. ISHID jangarilari ayollarni va bolalarni qatl qilmoqda, jurnalistlar va elchilarni garovga olib, boshini tanasidan judo qilmoqda. Ular o`zlarini xijratdamiz deb hisoblab, jangarilarini islomiy amallarni ado etishdan ham ozod qilgan. Ularning safiga qo`shilgan jangarilarning pasport, harbiy bilek singari shaxsiy hujjatlarini yoqib yuborishadi, go`yoki islom davlati fuqarolariga hech qanday hujjatning keragi yo`q emish.

ISHIDchilarning g`ayri insoniy va g`ayri islomiy xatti-harakatlaridan g`azabl原因 umumjahon musulmon ulamolari, 2014 yil 29 sentabrda Abu Bakr Bag`dodiyga, uning jinoyatkorona xatti-harakatlari islom dini aqidalariga mutlaqo to`g`ri kelmasligini ta`kidlab, ochiq xat bilan murojaat qilishdi. Ammo bu xatga "soxta xalifa" javob berishni lozim topmadi, chunki xatda o`rtaga tashlangan savollarga u (avvalo nohaqligidan, so`ngra ma`rifiy salohiyati yetarli emasligidan) javob bera olmas ham edi. ISHIDchilar islom dini nomidan ish yuritib islom dinining obro`ini oyoq osti qilmoqda, u mazlumlarga yordam beraman deb, mazlumlarni qatl qilmoqda.

ISHIDchilar singari tajovvuzkor kuchlarning haddidan oshishiga, ba`zan, ularga qarshi kurashishi lozim bo`lgan sog`lom kuchlarning loqaydligi va chegaradan chiquvchi bag`rikengligi ham sabab bo`lishi mumkin. Demak, bag`rikenglikning ham

¹⁰⁶ Internet ma'lumoti: www.google.uz.

chegarasi bo'lar ekan. Loqaydlik va beg'amlik esa, yovuz kuchlarning haddidan oshishiga imkoniyat yaratadi.

Yaqin SHarq fojiasi – butun insoniyatning kelajagiga qarshi qaratilgan fojeadir. Ayrim davlatlar o'zlarining tor egoistik manfaatlarini qondirish uchun, Yaqin SHarq hududida barqarorlikni izdan chiqarishdi. Qolaversa, dunyodagi bir qator gegemon davlatlar Yaqin SHarqda o'zlarining milliy manfaatlari bor deb hisoblab, bu hududga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatishini beto'xtov davom ettirishdi. Turli-tuman ta'sirlar ostida yashagan bu hudud, kimning ta'siriga qanday javob qilishni bilmay, asabiy shok holatiga tushib qoldi va oxir oqibatda bedavo dardga – saratonga yo'liqdi. ISHID esa bu dardning sababchi virusi bo'lmoqda.

Birgina xalqaro terrorizmga qarshi kurashni olib qaraydigan bo'lsak, Iroqdagi voqealar rivoji yer yuzidagi umumiy barqarorlik va havfsizlik faqat iqtisodiy, siyosiy va harbiy qudratgagina bog'liq emasligini ko'rsatmoqda. SHunday qudrat mavjud bo'lsa-yu, lekin terrorizmga qarshi kurashda yetarli darajada qat'iyat va siyosiy iroda bo'lmasa, barcha harakatlar befoyda ketishini g'arbning ayrim davlatlari pozitsiyasida yaqqol ko'rish mumkin. Bir tomondan xalqaro terrorizmga qarshi kurashga juda katta xarbiy va moliyaviy manbalarni safarbar qilish, ikkinchi tomondan esa terrorchilarning mafkuraviy markazlarini o'z qanotiga olib, ularning bamaylixotir ishlashiga imkon berish va bunday yovuz kuchlardan vaqti-soati bilan geosiyosiy manfaatlar yo'lida foydalanishni ko'zlab qo'yish bugungi murakkab dunyoning chidab bo'lmas va adolatsiz manzarasidir.¹⁰⁷

2004 yil 17-iyun kuni Toshkentda ShHT sammitda O'zbekiston raxbari ana shu zaruratni ta'kidlar ekan, terror va nakobiznes uchun «tranzit davlat» tushunchasining o'zi yo'ligi qayd etdi. Ya'ni, taxdid muayyan bir mamlakatga qarshi qaratilmagan bo'lsa, unga nisbatan bu farq bo'lish noto'g'ri. Yer yuzida terrorchilar o'zini xotirjam sezadigan joy qolmagandagina terrorchilikga qarshi xalqaro kurash kutilgan samarani berish mumkin. ShHT sammitida ko'rilgan ikkinchi asosiy masala savdo-iqtisodiy xamkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq. Zero, ishtirokchilar ta'kidlaganidek, ShHT a'zo mamlakatlarni xavfsizlik orqali hamkorlik sari boshlaydigan tashkilotdir.

¹⁰⁷ Сафаев Ж. Глобал дунё – геосиёсий манзара ва миллий манфаат. Фидокор. 2004й. 7 сентябр.

Iqtisodiy hamkorlikda transport infratuzilmasini rivojlantirish, tabiiy, mineral xomashyo zaxiralarini o'zlashtirish, suv-energetika zaxiralaridan unumli foydalanish, ekologiyaga oid masalar, xususan, ichimlik suvi muammolarni xal qilish kabi dolzarb muammolar bor. Islom Karimov Markaziy Osiyoda umumiy bozor yaratish to'g'risidagi taklifini ShHT sammitida yana bir bor e'lon qildi. Zero, «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkilotini tuzgan mintaqamiz mamlakatlarining bu maqsadga erishishida Rossiya va Xitoydek qudratli davlatlar bilan ShHT doirasida xamkorlikni chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ShHT mamlakatlari qit'alararo transport yo'laklarining muhim bo'g'inidir. SHuni inobatga olsak, yangi transtport tarmoqlarini barpo etish orqali ShHT mamlakatlari dunyoning boshqa davlatlari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishda qo'shimcha imkoniyatga ega bo'ladi. Ma'lumotlarga qaraganda, hozir Xitoy yo'nalishi, Afg'oniston orqali Fors ko'rfazi bondargoxlariga chiqadigan yo'nalishlari bo'yicha loyihalar o'rganilmoqda.

Fan-texnika va yuqori texnologiya, energetika soxalarida ham integratsiya jarayonlarini kuchaytirish orqali, mintaqaviy hamkorlikni keng ko'lamli xalqaro xamkorlik darajasiga ko'tarish mumkin.

Sammit qatnashchilari savdo iqtisodiy aloqalarni rag'batlantirishga kelishib oldilar. Yig'ilishda Rossiya Prezidenti Vladimir Putin ShHTning Afg'oniston bo'yicha muloqot guruhini tuzish taklifini ilgari surdi. XXR raisi Xu Tszintao Xitoy hukumati ShHT doirasidagi iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga 900 mln AQSH dollari miqdorida kredit ajratishini ma'lum qildi. Sammit qatnashchilari ShHT davlat rahbarlari kengashi majlisi yakunlari bo'yicha Toshkent deklaratsiyasi, ShHTning vakolatlari va immunitetlari to'g'risidagi konvensiya, Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda xamkorlik to'g'risidagi bitim, tashkilot va uning organlari faoliyatiga doir qator xujjatlarni imzoladilar.

Dunyoning shu davrgacha bo'lgan iqtisodiy-siyosiy evolutsiyasi davomida insoniyat jahonda yuz berishi mumkin bo'lgan geopolitik voqealar ko'pqirrali muammolarga asoslanishini va ularga faqat har tomonlama yondashuvchi tahlillar orqaligina oydinlik kiritish mumkinligini tushunib yetmoqda. Bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan voqealarni xolisona baholar ekanmiz, keskinlik va xavf-

xatarlarning tobora o'sib, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, o'z ta'sir doirasini kengaytirishga qaratilgan kurashning, radikalizm, terrorizm va ekstremizm kabi tahdidlarning kuchayib borayotgani barchamizni tashvish va xavotirga solmasdan qo'ymaydi, albatta. SHular qatorida 2012 yili qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunda belgilab berilgan, bizning xavfsizligimiz bilan bog'liq bo'lgan prinsiplar va pozitsiyalarimiz bugungi kunda jahon jamoatchiligiga yaxshi ayondir. Avvalambor, uzoq va yaqin qo'shnilarimiz bilan til topishib, ular bilan o'zaro hamkor va hamjihat bo'lib yashash va eng muhimi, *hech qanday harbiy bloklarga qo'shilmaslik*, muqaddas yurtimiz tuprog'ida chet mamlakatlarning harbiy bazalarini joylashtirishga va harbiylarimizning chegaralarimiz tashqarisiga o'tishiga yo'l qo'ymasligimiz shular jumlasidandir. Bugun yuzaga kelayotgan xalqaro vaziyatda ayni shu yo'l, shu siyosat biz uchun maqbuldir.¹⁰⁸ Xulosa qilib aytganda, geosiyosat tarixida o'ziga xos o'rin tutgan bunday tadqiqotlar muhim ilmiy - nazariy ahamiyat kasb etadi. Zero, ushbu izlanishlar xalqaro munosabatlar amaliyotini atroflicha o'rganish hamda nazariy umumlashtirish negizida yangi ilmiy yechimlar va xulosalar qilishga xizmat qilgan.

3 – bob bo'yicha xulosa. XXI asr xalqaro munosabatlarda kuchlar nisbati o'zgarib borayotgan bir sharoit boshlandi. Globallashuv zamonida butun dunyo aholisini tashvishga solgan chegara bilmaydigan muammolar qamrab oldi. Tarixdan ma'lumki, insoniyat sivilizatsiyasida muhim omillardan hisoblangan ma'naviyat, madaniyat, din va ma'rifat tushunchalarining hozirda noto'g'ri talqin etilishi yoki ulardan ayrim kishilarning qurol sifatida foydalanishi bu omillarni eng zaif nuqtaga aylanib qolgani bejiz emas. Chunki bu omillarga dahl qilinishi insonning ong-u shuurini egallash, uni izdan chiqarishga bu orqali esa o'z geopolitik maqsadlarini amalga oshirish maydoniga egalik qilishdan iborat.

Ko'pgina mamlakatlar kelishuvlardan va savdo bozorlarini kuchaytirishdan samara borligini anglab yetishgandan keyin, xududiy iqtisodiy xamkorlik ishlari

¹⁰⁸ Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqi. 12- yanvar 2015y.

ikkinchi jahon urishidan keyin kuchayib bordi. Iqtisodiy hamkorlikni asosiy turlari bo'lib, erkin savdo zonasi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor, to'liq iqtisodiy integratsiya. Chegarasiz yondashuvda iqtisodiy integratsiya mamlakatlarni kamistmagan xolda bir-biriga bilan savdo qilishlari imkonini beradi. Hamkorlikning yanada murakkab variantlari ishlab chikarish omillarining milliy chegaralardan to'siqsiz o'tishini ta'minlab beradi, shu bilan birga ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy xayotning sokinligini ham ta'milaydi. Iqtisodiy itegratsiya resurslar taksimlanishida samaradorlikni oshirishga, ishlab chiqarishni rivojlantirishga ta'sir qilib, xalqning turmush tarzini yaxshilashga olib keladi. Bunga misol Yevropa ittifoqi. Yevropa Ittifoqining asosiy maqsadlari bo'lib, tovarlar, kapital, xizmatlar va ishchi kuchi resurslariga bo'lgan ichki to'siqlarni yo'q qilish, yagona tashqi tariflar o'rnatish, yagona agrar siyosatini ishlab chiqish, xuquqiy ta'minot va soliqqa tortish tizimini yo'lga qo'yish va xokazo. Dunyoning boshqa chekkalarida, avvalo, Lotin Amerikasi va Sharqiy Yevropada iqtisodiy integratsiyaning boshqa shakllari vujudga kelgan. Erkin savdo zonasi va bojxona ittifoqining har xil turlari Afrika va Osiyoda ham bor. SHanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) tashkilot sifatida shakllanish va boshlang'ich tadrijiy rivojlanish jarayonini qisqa fursatda bosib o'tdi. ShHT doirasida a'zo mamlakatlarning tashqi siyosat maxkamalari, iqtisodiyot va savdo vazirliklari, xavfsizlik kengashlari o'rtasida muntazam muloqotlar o'tkazilmoqda. Bugungi globallashtgan murakkab dunyoda Xitoy o'zini daxlsiz ravishda rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shish yo'lidagi eng to'g'ri yo'lni tanladi desak adashmagan bo'lamiz. Chunki Xitoy o'z yo'lida har qanday g'oyalar va tarafkashlikka og'maydigan pragmatik davlat deb atagan. Bu esa kelajakda Xitoyning siyosatida o'zga davlatlarga ta'sir qilish tendensiyasi kutiladi, chunki mamlakatning rivojlanish potensiali oshgan sayin uning birlamchi tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyoji ham oshib bormoqda, ayniqsa energetik resurslarga. Buning oqibatida Xitoy resursga boy mamlakatlarga tobora iqtisodiy jihatdan tobe bo'lib bormoqda, o'z navbatida u mamlakatlar ham Xitoyga tobora qaramlashib bormoqda. Ayni shu tartibni yo'qotmaslik uchun va rivojlanishni bir maromda davom etishi uchun Xitoy qo'lidan kelgan barcha narsani qilishi kutiladi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining eng ustuvor yo'nalishi – qo'shni davlatlar, avvalo, mintaqadagi davlatlar bilan aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash va har tomonlama hamkorlik qilishdir. Mintaqaviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish – Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotning garovidir. G'arb, Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari, Janubi-Sharqiy va Janubiy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni izchillik bilan rivojlantirib, O'zbekiston ushbu aloqalarni yangicha ma'no-mazmun bilan to'ldirishga intilmoqda. O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasida 1996 yilda imzolangan Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi Bitimga muvofiq, Yevropa Ittifoqi bilan siyosiy muloqotlar, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalar rivojlanmoqda va mustahkamlanmoqda. Yana bir muhim yo'nalishlardan biri bu MDH davlatlari bilan aloqalardir.

O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan yana biri – mintaqaviy va global miqyosda tinchlik va barqarorlikni saqlashdagi xalqaro hamkorlikdir. Xavfsizlikning uzviyligi to'g'risidagi eng asosiy tamoyilga asoslangan holda, O'zbekiston xalqaro tuzilmalarning, eng avvalo, BMTning xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashdagi rolini kuchaytirish zarurligini ta'kidlab kelgan va bundan keyin ham shunday qiladi.

IV. Xulosa

Ilmiy manbalarni o'rganib shunday xulosaga keldik-ki, geosiyosat tushunchasi – muayyan bir mamlakat o'rni, tabiiy boyliklari, iqlim va boshqa geografik omillarning davlat tashqi siyosatiga muayyan ta'sirini ifodalash uchun ishlatiladi. Geosiyosat geografiya asosida vujudga kelgan. Bu albatta tasodifiy emas. Chunki, geo-makon, yer, siyosat esa davlatni makon bilan o'zaro aloqasi va faoliyatini bildiradi. Ilmiy adabiyotlardan ham ma'lumki, davlat maqomini olishning ham eng asosiy shartlaridan biri bu – geografik chegaralangan hudud va makonga ega bo'lish hisoblanadi. Insonlar hayoti va jamiyatda geografik muhit aloqasi haqidagi g'oyalarni qadimgi olimlar ham ko'rsatib o'tgan (Aristotel, Gerodot, Strabon, Polibiy va boshqalar). Hattoki geografik muhit odamlarning fikrlash doirasi va dunyoqarashiga ham ta'sir o'tkazishi fanda o'z isbotini topgan hisoblanadi. Davlatlar iqtisodiy va siyosiy munosabatlari tabiiy-geografik muhitga bog'lik ekan, geosiyosiy voqelik ham doimiy davom etadigan jarayondir. Demmakki, geosiyosiy jarayonlar bu – bugungi kunda paydo bo'lib qolgan jarayon emas. U uzoq davom etgan tarixiy jarayon mevasi hisoblanib, uni ijobiy tomonga yo'naltirish ham shu qadar uzoq vaqt va mashaqqatni talab etadi. Bunga faqat barcha dunyo davlatlarning hamfikrligi va hamjihatliyligi bilan erishish mumkin.

Geosiyosiy maydon olamida hamisha kuchli davlat maqomi tabiiy geografik omilga bog'liq bo'lgan holda o'zgarib turgan. Jumladan, eng dastlabki sivilizatsiyalar vujudga kelish davrida suv havzalari va daryo bo'ylarida tashkil topgan shahar-davlatlar bir muncha mustahkam bo'lgan va tezroq rivojlangan. Keyinchalik ular quruqlik mintaqalarni o'zlashtirish hisobiga o'z yerlarni kengaytirish orqali o'z ta'sirini kuchaytira borganlar. Zero, bugungi geosiyosiy olamning ham eng katta dengiz kuchi bo'lmish AQSh quruqlik mintaqasida o'z gegemonligini o'rnatish maqsadida quruqlik mintaqasining yirik vakili Rossiya o'rtasidagi manfaatlar to'qnashgan. Bu manfaatlar nuqtasi Heartland – ya'ni yer yuragi, markazi bo'lib, bugungi kunda geosiyosatchilar Yevrosiyo mintaqasiga nisbatan shu atamani qo'llashmoqda. Aynan mana shu mohiyat asosida va atrofida dunyodagi barcha geosiyosiy jarayonlar rivojlanmoqda va avj olmoqda. Buni bugungi kunda o'z ta'sir

doiralarini kengaytirishga harakat qilayotgan NATO va ShHT misolida ko`rishimiz mumkin. Quruqlik va dengiz kuchlari o`rtasidagi bunday raqobatlar bugungi kunda ham hali davom etib kelayotgan Ukraina va Iroq voqealarining ijobiy tomonga hal qilinishiga xalaqit bermoqda.

Shuningdek hozirda ko`p qutbli dunyoning mavjud bo`lishi esa yuqoridagi kuchlar munosabatlarini bir muvozanatga solib kelmoqda. Jumladan, bunday muvozanatni saqlashga hizmat qilayotgan davlatlar: Yevropa ittifoqi davlatlari, Markaziy Osiyo davlatlari, Yaponiya ayniqsa, Germaniya va Xitoy hisoblanadi. Chunki Germaniya va Xitoy bugungi kunning pragmatik davlatlari hisoblanadi. Ammo bu holat ham uzoq davom etmasligini Ukrainada bo`layotgan voqealar isbotlamoqda. Bu kabi voqelarni oldini olishda Xalqaro tashkilotlarning roli va o`rni beqiyos hisoblanadi. Biroq ayrim tashkilotlarning faqat o`z siyosiy va iqtisodiy manfaatlar asosida birlashayotgani yoki geopolitik maqsadlarni ko`zlab harakat qilayotgani dunyoda insoniyat boshiga kulfat bo`luvchi terrorizm, diniy ekstremizm, narkobiznes, shovinizm kabi illatlarning oldini olishga to`siq bo`lmoqda. Bugungi globallashuv zamoni Toynbi fikri bilan aytganda, “insoniyat umumiy uy, umumiy tashvish va umumiy taqdir” deb yashaydigan zamon bo`lib, unda faqatgina dunyo ahli yagona bir fikr atrofida birlashsagina bu kabi illatlar va muammolarning oldini olish va doimiy tinchlik, barqarorlikni o`rnatish mumkin.

Umumiy xulosa qilib aytadigan bo`lsak hozirgi dunyo siyosatida qudratli davlatlar oldida ikkita tanlov dilemmasi mavjud : Iqtisodiy ta'sir va siyosiy ta'sir. Albatta o`ziga ishongan ko`pchilik mamlakatlar dastlab siyosiy ta'sirni kuchaytirib, shuning natijasida iqtisodiy mevalarni terib olmoqchi, lekin bu o`z navbatida katta yo`qotishlar orqali erishiladigan uslubdir. AQSh va boshqa g`arb mamlakatlarining Afg`oniston va Iroqdagi muvaffaqiyatsizliklari, Yaqin sharqdagi nazoratni izdan chiqishi va Rossiyaning anti-g`arb pozitsiyalarini mustahkamlanishi bunga yaqqol misoldir. Iqtisodiy ta'sir esa dastlab mamlakatlarga iqtisodiy sarmoyalar kiritish orqali ularga keyinchalik yaqin kelajakda ta'sir o`tkazish, bunga Xitoyning Afrikadagi olib borayotgan siyosati va Germaniya-Rossiya munosabatlari misol bo`la oladi. Ko`rinib turibdiki, O`zbekistondan tashqari Markaziy Osiyoning boshqa

davlatlaridagi ichki va tashqi siyosiy vaziyat ancha nozik bo'lib, ular tashqaridan amalga oshirilayotgan kuchli geosiyosiy ta'sir ostida qolib kelmoqda. Ushbu davlatlarning suverenitetini ta'minlash va iqtisodiy qudratini oshirish maqsadida tashkil etilgan mintaqaviy tuzilmalar – Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyati va ShHTning ahamiyati beqiyosdir. Masalan, Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyatiga Belorussiya, Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va O'zbekiston a'zo bo'lib, Ukraina, Moldova va Armaniston bu tashkilot faoliyatida kuzatuvchi sifatida ishtirok etmoqda. Hamda mafkuraviy va ma'naviy tahdidlarning kirib kelishi kuchaygan bir davrda bu kabi xalqaro tashkilotlarning iqtisodiy va siyosiy manfaatlar asosida birlashuvi yuqoridagi tahdidlarning e'tibordan chetda qolishi ildiz otishi va kuchayishiga olib kelmoqda. Oqbatda insoniyat boshiga kulfat keltiruvchi Iroq voqealariga o'xshash hodisalarning kelib chiqishiga sabab bo'layotgani achinarlidir.

Bugungi kunda noan'anaviy tahdidlar xalqaro mojarolarning qiyofasini butunlay o'zgartirmoqda va informatsion-psixologik xurujlar sezilarli havf-xatar tug'dirmoqda. Ular davlatning negiziga putur yetkazish, avvalo, uning ma'naviy-axloqiy asoslariga ta'sir o'tkazishga urinish va shuningdek, zamonaviy internet texnologiyalardan foydalanish orqali bizning bunyodkorlik ruhidagi boy madaniyatimiz, ma'naviy qadriyat va an'analarimizga mutlaqo zid bo'lgan buzg'unchi g'oya va tushunchalarni yoshlarimizning ongu tafakkuriga singdirishga qaratilgani bilan ayniqsa xatarlidir. Chunki hozirda dunyodagi geosiyosiy maqsadlarni amalga oshirish vositasi – fikr, unga erishish quroli bu – “axborot” sanaladi. Nega deganda bugungi kunda davom etayotgan geosiyosiy jarayonlar rivojida fikrlar va g'oyalar to'qnashuvi sodir bo'layotir hamda bu to'qnashuv “uchunchi dunyo urushi” deb nom olgan.

XXI asrda chegara bilmaydigan tahdidlarning kirib kelishi kuchaymoqda. Bu esa XXI asr dunyoning mafkuraviy manzarasi va mintaqaviy xususiyatlarini shiddat bilan o'zgarishi hamda ommaviylashishi geosiyosiy jarayonlarni chuqur tahlil etishni, o'rganishni talab qiladi. Ammo bu masalani faqat tor doirada o'rganish yechim bo'la olmaydi. Shundan kelib chiqqan holda keng xalq ommasi uchun mo'ljallangan axborot - targ'ibot ishlarini tashkil etish orqali geosiyosiy bilim va

ko'nikmalarni shakllantirishni taqazo etadi. Buning uchun oynayijahon orqali ko'rsatuv, tele dasturlar ishlab chiqish hamda idora va tashkilotlar mutasaddilari ishtirokida ilmiy anjuman, konferensiyalar o'tkazish orqali keng jamoatchilikni e'tiborini tortish lozim. Natijada asl sabab, mohiyatni anglab yetgan xalq ommasi orqali bugungi kunda yuz berayotgan siyosiy janjal va nizolarning oldi olinib, doimiy tinchlik hamda barqarorlikni saqlab qolishga erishiladi. Shuningdek bugungi kunda geopolitik maqsadni amalga oshiruvchi obye'kt diqqat markazida yoshlar muhim o'rin tutadi. Bu esa yosh avlodni ham yangi zamon ruhiga mos tarbiyalashda umumiy o'rta ta'lim bosqichida ham geosiyosiy jarayonlarni geogafiya fani bilan hamkorlikda joriy etish ehtiyojiga talabni yanada oshiradi. Hamda oliy ta'lim tarixiy manba va adabiyotlarda davlatlar tarixi bilan birga, ularning geosiyosiy o'rni, geosiyosiy qarashlariga bag'ishlangan rejalar ham kiritib o'tilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. Rasmiy adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T- «O'zbekiston» 2015. 36 B.
2. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. T- «O'zbekiston» 2002. 205 B.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida; xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T- «O'zbekiston» 1997. 277 B.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.,«O'zbekiston» 2008.175 B
5. Karimov I.A.“Biz uchun xalqimiz, vatanimiz manfaatidan ulug' maqsad yo`q”. // Xalq so`zi gazetasi, 2001-yil, 7-dekabr soni.
6. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo`nalishlari. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to`qqizinchi sessiyasidagi nutqi // Xalq so`zi. 30 avgust. 2002 y
7. «Evrosiyo» jurnali 2008 yil dekabr. Karimov.I.A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz.-T.: «O'zbekiston», 1999. 176 B.
8. Karimov.I.A. BMT Bosh Assambleyasida so`zlagan nutqidan. 9-jild. T., “O'zbekiston”, 2001.
9. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma'ruzasi. 23.01.2015y
10. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi tashkiliy yig`ilishidagi nutqi. 12-yanvar 2015y
11. I.A.Karimov. Inson uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. “Xalq so`zi”. 2005 y. 8 dekabr.

II. Asosiy ilmiy adabiyotlar.

1. A. Jalilov, G.Tulenova. Geosiyosat asoslari T., 2007. 156 B
2. U. Norbekov “Geosiyosiy jarayonlar: kecha va bugun”. T., 2010 36 B.
3. I. Karimov “Noosfera: geosiyosat va mafkura”. T., 2008. 161 B.
4. Safoyev S.S. “Markaziy Osiyodagi geosiyosat”. T., 2005. 248 B.

5. Jo'rayev. S va boshqalar. Davlatlar va xalkaro tashkilotlar. O'quv qo'llanma. «Akademiya nashriyoti». 2006. 342 b.
6. Jo'rayev S. va boshqalar. Xalkaro munosabatlar (geosiyosat, diplomatiya, xavfsizlik). O'quv qo'llanma. «Akademiya nashriyoti». 2006. 345 B
7. Umarov X.P. O'zbekiston Respublikasi geosiyosiy xolatining geostrategik xususiyatlari. Siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasi uchun dissertatsiya avtoreferati. T,2004. 188 B.
8. Xusniddinov.Z. Diniy ekstremizm va terorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. T., «Toshkent islom universiteti», 2005. 215 B
9. SHaripov F.SH. Siyosatshunoslik. T., «O'zbekiston», 1992. 356 B
10. Ma'ruzalar to'plami. T., «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti», 2000, 270 B.
11. Azizxonov A.T., Musayev O.R va boshqalar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi amaliyoti. T., "DITAF" nashriyoti, 2001, 335 B.
12. Jahon mamlakatlari. Ma'lumotnoma. T., «O'zbekiston», 1990, 517 B.
13. Nuriddinov Z. R. G'arb mamlakatlarining eng yangi tarixi. T., "O'qituvchi", 1978, 526 B.
14. Salimov.O va boshqalar. Yangi O'zbekistonning 7 zafarli yili. T., «SHarq», 1999, 300 B.
15. Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya, geosiyosat va geodemografiyaning dolzarb muammolari. To'plam. Andijon, 2005. 425 B.
16. Karimov.I Noosfera, geosiyosat va mafkura. (www. pedagog.uz), Geosiyosat va Markaziy Osiyodagi mafkuraviy jarayonlar (www.uz.ref.uz).
17. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T. Davlat milliy nashriyoti: 2-j. 2001; 3-4 j – 2002; 5-j. – 2003.;
18. Falsafa Qomusiy lug'at. «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti» T. 2004 y. 579 B.
19. Jalilov A. O'zbekiston va jahon hamjamiyati. Ma'ruzalar matni.-T.: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2002, 164 B
20. Jahon mamlakatlari. Mualliflar jamoasi. T.«SHarq». 2006 y. 340 B.

21. Atamurodov S., Ergashev I. va boshqalar. Politologiya. T. 1999. 255 B.
22. O'zbekistonda politologiya. T. 2001. 435 B.
23. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. T. 2001. 384 B.
24. A. G. Dianov, S.G. TSizov "Geopolitika". Omsk., 2008.
25. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2001. 643 B
26. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. O'quv qo'llanma. T., "Yangi asr avlod", 2001, 222 B.
27. Jo'rayev. N Tarix falsafasining nazariy asoslari. T., "Ma'naviyat", 2008. B 221
28. Ergashev. I Milliy istiqlol g'oyasi. T., 2005. –B. 309.
29. Qur'onov M. Ezgu g'oyalar ro'yobi. T., "Ma'naviyat". 2011, 389 B.
30. Нортон М.А "Геополитика". М- 1999
31. Тихонбаров Ю "Геополитика" . М- 1998.
32. Бжезинский З. "Великая шахматная доска". М-1999
33. Дугин А. Великая война континентов. — Дугин А.Г. Конспирология. М., 1992.
34. Киссинджер Г. Дипломатия. М., 1994.
35. Тихонравов Ю.В. Геополитика. — М., 2000
36. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. Политические исследования. 1994. № 1.
37. Цыганков П.А. Международные отношения. — М., 1996.

III. Ilmiy – ommabop nashriyot manbalari.

1. Boboyev. A "O'zbekiston va Rossiya ittifoqchi davlatlar" / Toshkent oqshomi
2. «Yangi dunyo»: sarobmi yo haqiqiat. XXI asr. 2004y. 23 sentabr, payshanba
3. Safaev J. Yangi qutblar – dunyoda tinchlik va tabiiy muvozanatni ta'minlaydi. Fidokor. 2005y. 20 oktabr.
4. Karimbekov. K. O'zbekiston tinchlik uchun kurash yo'lida // «Marifat», 2001, 19 dekabr.
5. Bo'ronov Y. «Safarlar diplomatiyasi» yoki Vashingtonning Markaziy Osiyoga nigohi. XXI asr. 2005y. 20 oktabr.

6. Abdurahmanov M. Amerika fojeasi yoki Z.Bjenskiyning «Amerika halokatga yuz tutmoqda» maqolasi XXI asr. 2005y. 27 oktabr.
7. Egamqulov B. Qudratli davlat. Xalq so`zi. 2003y. 20 mart.
8. Pentagonning «Oltin asri» tugayapti. XXI asr. 2005y. 15 dekabr.
9. Rossiya siyosatshunosining xolis fikri – AQSHning Markaziy Osiyodagi siyosati mohiyatini to`g`ri tushunishga yordam beradi. XXI asr. 2005y. 25 avgust.
10. Abdullayev O.B, Nurullayeva N. O`zbekiston – Markaziy Osiyoda tinchlik tayanchi. Ilm sarchashmalari. 2002y. 2-son. 26-27 betlar.
11. Markaziy Osiyo: kecha, bugun, ertaga. Ishonch. 2001y. 29 dekabr.
12. Ergashev I. Demokratiya – uning, yakka-yu – yagona «universal modeli» bo`lmaydi. Fidokor. 2006y. 10 yanvar
13. Safayev J. Yangi tahdid: «Biznes»ga aylanayotgan siyosiy vasvasa. XXI asr 2005y. 14 dekabr.
14. Uchlik «Rangli o`yin»larga qarshi. XXI asr. 2005y. 20 dekabr
15. Jalilov A. Geosiyosatda Mondializm nazariyasi. «Tafakkur». №1. 2006.
16. Jalilov A., Xelford Makkinderning geosiyosiy qarashlari. Maqola. Jamiyat va boshqaruv. 2006 yil № 2. 45-46 b.
17. Qubayev O. Maqsad – mintaqaviy xavfsizlik. Jamiyat va boshqaruv. 2002y. 1-son. 71 bet.
18. Safaev J. Global dunyo – geosiyosiy manzara va milliy manfaat. Fidokor. 2004y. 7 sentabr.
19. «XXI asr», «Tafakkur» gazeta va jurnallardan hamda internet ma`lumotlari

Internet saytlari:

1. www.google.uz
2. www.geopolitika.uz
3. www.mtrk.uz
4. www.ziyonet.uz
5. www.referats_ru